Xulosa shuki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarga ziddiyatni anglash bosqichi - qarama-qarshi tomonlar nafaqat manfaatlar to‘qnashuvini his qila boshlaydilar.

Bu erda bir nechta variantlar mavjud:

a) ikkala ishtirokchi ham ziddiyatli munosabatlar nomaqbul degan xulosaga keladi va o‘zaro da’volardan voz kechishga tayyor;

b) ishtirokchilardan biri mojaroning muqarrarligini tushunadi va barcha holatlarni ko‘rib chiqib, taslim bo‘lishga tayyor; boshqa ishtirokchi yanada og‘irlashtirish uchun ketadi; boshqa tomonning roziligini zaiflik deb biladi;

v) ikkala ishtirokchi ham qarama-qarshiliklar murosasiz degan xulosaga keladi va nizoni o‘z foydasiga hal qilish uchun kuchlarni safarbar qila boshlaydi.

Adabiyotlar

1. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son qarori bilan tasdiqlangan Umumiy O‘rta ta’limning Davlat Ta’lim Standarti.

2. Muhammadiyeva, X. K., & Ergasheva, G. Z. (2021). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish metodikasi. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, *1*(2), 10-14.

3. Muhammadieva, K. (2020, June). The Idea “Personal Interests and the Priority of Education” in the Education as One of the Key Factors in Reforming School Education for Upbringing Perfect Individual. In *Proceedings of International Multidisciplinary Scientific-Remote Online Conference on Innovative Solutions and Advanced Experiments* (p. 22).

4. Tuxtayevna, H. M., Mahkambayevna, E. G. Z., & Karamatovna, M. X. Methodological bases of development of socially active competencies of future primary school teachers in students and improvement of its methodology. *International Journal of Health Sciences*, (II), 10646-10654.

5. Khamdamovna, I. Z., R. Kamola, and J. Nigora. "Problems and Solutions for the Organization of Pedagogical Communication in the Educational Process of Future Primary School Teachers." *European Multidisciplinary Journal of Modern Science* 4 (2022): 413-416.

6. Inoyatova, Z. X., Po‘Latova, G. N, & Xojimurodova, D. (2022). Ta’lim jarayonida o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish. *Science and Education*, *3*(12), 795-800.

RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIM ASOSIDA O'QUV FAOLIYATINI TASHKIL QILISH

Sultanova Ulbosin Mamadaliyevna,
Nizomiy nomidagi TDPU Boshlang'ich ta'lim fakulteti
Boshlang'ich ta'limda matematika va uni o'qitish metodikasi kafedrasi dotsent v.b

Annotasiya. *Rivojlantiruvchi ta'lim tizimida o'quv faoliyatini tashkil qilishning eng muhim xususiyatlari, EvroOsiyo mintaqasi olimlari o'quv faoliyati, asarlari g`oyalari yoritib borilgan.*

Kalit so`zlar: *Rivojlantiruvchi ta'lim, ta'lim tizimi, o'quv faoliyati, maktab o'quvchisi.*

Аннотация. *Выделены важнейшие особенности организации образовательной деятельности в системе развивающего образования, идеи образовательной деятельности и работы ученых Евразийского региона.*

Ключевые слова: *Развивающее обучение, образовательная система, образовательная деятельность, школьник.*

Annotation. *The most important features of the organization of educational activities in the system of developmental education, the ideas of educational activities and the work of scientists in the Eurasian region are highlighted.*

Keywords. *Developmental education, educational system, educational activities, schoolchild.*

Kirish. Rivojlantiruvchi ta'lim tizimida o'quv faoliyatini tashkil qilishning eng muhim xususiyatlaridan biri jamoaviy-guruh ishidan foydalanish, ta'limot subyektlari *muloqotini* tashkil qilish hisoblanadi. Mazkur fikrga asos bo'lib L.S.Vigotskiy tomonidan ta'riflangan inson oliy psixik funksiyalarini rivojlantirish qonuni xizmat qiladi. "Boshida bolalar jamoasida bahs va u bilan birga o'z fikrini isbot qilishga ehtiyoj yuzaga keladi, deb ta'kidlagan L.S.Vigotskiy, va faqat shundan keyingina bolada ichki faoliyatning o'ziga xos foni sifatida mulohazalar paydo bo'ladi, uning xususiyati shundaki, bola o'z fikri asoslarini anglash va tekshirishga o'rganadi" [1, 387-b.].

Bolalarni o'qitish jarayoniga asosiy genetik qonunni qo'shgan holda, L.S.Vigotskiy o'qitish yaqin rivojlantirish zonalarini yaratib, bir qator ichki rivojlanish jarayonlarini chaqiradi va harakatga keltiradi, ular boshlang'ich bosqichlarda "atrofdagilar bilan o'zaromunosbatlar va o'rtoqlar bilan hamkorlik sohasida amalga oshirilishi mumkin, lekin ichki rivojlanishni boshdan kechirib, ular bolaning ichki yutug'iga aylanadi" [1, 388-b.].

O'quv faoliyati shakllanishining birinchi bosqichlarida u *jamoa subyekti* bilan bajariladi. Boshida boshlang'ich sinf o'quvchilario'quv faoliyatini birgalikda, o'quv vazifasini qabul qilish va hal etishda bir-birini qo'llagan holda bajaradi, dialoglar olib boradi va eng yaxshi harakatlar, eng yaxshi yechim yo'llarini tanlash masalalari bo'yicha kengaytirilgan bahs-muzokaralarini tashkil qiladi. Aynan shu vaziyatlarda bolalarda ularning yaqin rivojlanishi zonalari yuzaga keladi. Lekin asta-sekin bu faoliyatni har bir bola uning *individual sub'yektiga* aylanib, mustaqil amalga oshira boshlaydi [2, 67-b].

Shunday qilib, rivojlantiruvchi ta'limni qo'llash jarayonida o'quv faoliyatini tashkil qilish asosi bo'lib tadqiqot faoliyatining hamkorlikdagi mahsuli sifatida ko'rib chiqiladigan o'quv dialogi hisoblanadi [3]. O'quv bahsini tashkil qilish "boshlang'ich sinf o'quvchilari mustaqilligini oshirish, o'z tashabbusiga, bilish qiziqishi tiklanishiga ko'ra harakat qilishga intilish, tanqidiy fikrlashni ishlab chiqishga yordam beradi" [4, 37-b.]. O'quv bahsi, bilish faoliyati sub'yektlari dialogini yuzaga keltiruvchi vaziyatlarning yaratilishi rivojlantiruvchi ta'limning samarali vositasi bo'lib hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. O'quv faolit, shunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchisi yetakchi faoliyati bo'lib hisoblanib, nafaqat nazariy fikrlash va hulq-atvor ixtiyoriyligini rivojlantiradi, balki bolalar shaxsi, ehtiyojlari va motivlariga muhim ta'sirni ko'rsatadi.

O'quv faoliyati va sub'yekti nazariyasi G.N. Vergeles [5, 6], V.V. Davidov [7], A.N. Leontev [8], A.K. Markova [9, 10] va boshqalar asarlarida berilgan. Bu nazariyada gap inson tomonidan umuman

bilim malakalarning o‘zlashtirilishi haqida emas, balki aynan o‘ziga xos o‘quv faoliyati shaklida sodir etadigan o‘zlashtirish haqida yuritiladi. Maktab o‘quvchisi bilan o‘quv faoliyati shaklidagi u yoki bu bilimlarning o‘zlashtirilishi o‘zlashtiriladigan materialni ijodiy qayta o‘zgartirishdan boshlanadi.

O‘quv faoliyati asosiy tarkibiy qismlari bo‘lib, ma’lum bo‘lishicha, o‘quv ehtiyojlar, motivlar, vazifalar, harakat va jarayonlar hisoblanadi. Birinchi sinfga kelgan bolalarda albatta uning bir butun tuzilmasi mavjud emas. U ayrim bolalarda bir necha yillar davomida shakllanadi, va ayniqsa boshlang‘ich sinflarda jadal sodir etadi. Ta’kidlanganidek, kichik maktab yoshida o‘quv faoliyat boshqa bolalar faoliyati turlari orasida asosiy va muhim bo‘lib hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tomonidan bajarilishi ularda “bosh psixik yangi hosilalarning va, avvalom bor, qonuniy predmetlar rivojlanishini yoritib berishga qaratilgan nazariy fikrlash asoslarining shakllanishini aniqlaydi”

Rivojlantiruvchi ta’limni qurishda nazariy bilimlar va mazmuniy umumlashtirishlar rolini ko‘rsatib, L.V. Zankov, V.V. Davidovdan farqli ravishda nazariy fikrlashga qaratilganlik bilan rivojlantiruvchi ta’lim funksiyalarini cheklamaydi, balki ularni bola aqli, irodasi, hissiyotlari bilan bog‘laydi, bunda “mustaqil idrok qilish shakllari sifatida fikrlashni empirik va nazariyga taqsimlashning o‘zi chuqur xatodir”. Biroq muayyan muammoni tadqiq qilish maqsadlarida va aniq masalalarni yechish uchun bunday taqsimlashning imkoni mavjud.

Psixologiya fanida “o‘quv faoliyat” tushunchasi mazmuni turli jihatlari ko‘rib chiqiladi [5, 6, 7, 8, 10]. Masalan, N.F. Talizina o‘quv faoliyatni o‘ziga xos va umummantiqiy harakatlardan iborat bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida bola shaxsini shakllantirish va rivojlantirishni ta’minlaydigan yetakchi faoliyat turlaridan biri sifatida ko‘rib chiqadi [11]. O‘ziga xos o‘quv harakatlari bilimlarni aniq mazmunida o‘zlashtirilishini ta’minlaydi;

O‘quv faoliyatining amalga oshirilishi o‘qituvchidan maktab o‘quvchilari tomonidan yordamida o‘quv vazifalar yechilishi kerak bo‘lgan harakat va jarayonlarning to‘laqonli va to‘g‘ri bajarilishiga nisbatan alohida e’tiborni nazarda tutadi: masala shartini o‘zgartirish; yechiladigan o‘quv vazifasida ajratilgan munosabatni predmet, grafik yoki belgili shaklda modellashtirish; modelda ajratilgan munosabat xususiyatlarini batafsil o‘rganish maqsadida uni qayta o‘zgartirish.

Maktab o‘quvchilari tomonidan nazariy bilimlar va ularga mos malaka va ko‘nikmalarning o‘zlashtirilishi, shunday qilib, o‘quv vazifalarini yechishda sodir bo‘ladi. Bunday vazifalarning yechilishi o‘quvchilardan ularning xususiy ko‘rinishlarini o‘zlashtirgunga qadar qandaydir umumiyni o‘zlashtirishga imkon beradi. Shunday qilib, rivojlantiruvchi ta’limning asosiy metodi bo‘lib bolalarni o‘quv vazifalari vaziyatiga va uni yechish bo‘yicha o‘quv harakatlarini tashkil qilishga kiritish metodi hisoblanadi.

O‘quv faoliyati boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi yetakchi faoliyati bo‘lib hisoblanib, nafaqat nazariy fikrlash va hulq-atvor ixtiyoriyligini rivojlantiradi, balki bolalar shaxsi, ehtiyojlari va motivlariga muhim ta’sirni ko‘rsatadi.

Adabiyotlar

1. Выготский Л.С. Проблема обучения и умственного развития в школьном возрасте. // Педагогическая психология. М.: Педагогика, 1991. - С. 374-390.

2. Цукерман Виды общения в обучении. - Томск, ПЕЛЕНГ, 1993.

3. Лебедева В.П., Орлов В.А., Панов В.И. Психодидактические аспекты развивающего обучения // Педагогика. - № 6. - С. 25-30.

4. Антропова М.В., Бородкина Г.В. Кузнецова Л.М., Манке Г.Г. Физиолого-гигиеническая оценка развивающего обучения в начальных классах // Педагогика. 1999. - № 8. - С. 35-41.

5. Вергелес Г.И. Формирование учебной деятельности как проблема дидактики // Младший школьник как субъект педагогического воздействия: Межвуз. сб. научн. трудов / Ред. Г.И. Вергелес. - Л. Изд- во ЛГПИ, 1989.-С. 54-73.

6. Вергелес Г.И. Формирование учебной деятельности младших школьников на основе межпредметных связей: Учебн. пособие. - Л., Изд-во ЛГПИ, 1987. - 80 с.

7. Давыдов В.В. Психологическая теория учебной деятельности и метод начального обучения, основанный на содержательном обобщении. - Томск: Пеленг, 1992. — 114 с.

8. Леонтьев А.Н. Проблемы деятельности в психологии // Вопросы философии. - 1972. - № 9. - С. 95-109

9. Маркова А.К. Формирование интереса к учению у школьников. — М.: Педагогика, 1986. - 113 с

10. Маркова А.К. Формирование мотивации учения в школьном возрасте. М.: Просвещение, 1983. - 96 с

11. Тализина Н. Ф. Педагогическая психология: Учеб. Пособие. М.: Издательский центр «Академия», 1998. - 288 с.

12. Sultanova U.M. Rivojlantiruvchi ta'lim metodologiyasi va texnologiyasi xalqaro ilmiy jurnali № 4(95) 2022 y.

EMOTSIONAL INTELLEKT - STRESSGA BARQARORLIKNI OSHIRUVCHI KOPING ZAXIRA SIFATIDA

Ismoilova Nurjaxon Zuxuriddinovna,
Toshkent davlat pedagogika universiteti
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Annotatsiya*. Mazkur maqolada millatimizning kelajagi sifatida alohida e'tibor qaratilayotgan maktab o'quvchilari va talaba yoshlarda stressga barqarorlikka oshirishning asosiy omillaridan biri bo'lgan emotsional intellektga oid ma'lumotlar, uning stressga barqarorlik bilan o'zaro munosabat xususiyatlari yosh differensiatsiyasiga ko'ra tahlil qilib berilgan. Shuningdek, tadqiqotdan olingan natijalar asosidagi xulosalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar*: stressga barqarorlik, koping zaxira, emotsional intellekt, tashqi aspekt, ichki aspekt, hissiyotlarni tushunish, hissiyotlarini boshqarish.*

Аннотация*. В данной статье анализируются данные об эмоциональном интеллекте, который является одним из основных факторов повышения стрессоустойчивости школьников и студентов с учетом возрастной дифференциации. Также представлены выводы по результатам исследования.*

Ключевые слова*: стрессоустойчивость, копинг-резерв, эмоциональный интеллект, внешний аспект, внутренний аспект, понимание эмоций, управление эмоциями.*

Abstract*. This article analyzes data on emotional intelligence, which is one of the main factors in increasing the stress resistance of schoolchildren and students, who are the future of our nation, taking into account age differentiation. Conclusions from the study are also presented.*

Key words*: stress resistance, coping reserve, emotional intelligence, external aspect, internal aspect, understanding emotions, managing emotions.*

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarga bo'lgan e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani quvonarli holdir. Chunki yoshlar mamlakatimizning kelajagi, qolaversa davlatning muhim zaxirasi sifatida rostmana e'tiborga loyiqdir. Shunga ko'ra, davlatimiz siyosatida yoshlar tarbiyasi, ularning jismoniy va ruhiy salomatligi masalasiga nisbatan e'tiborning yanada kuchayganligi bu masalaning naqadar ahamiyatga molik ekanligini asoslaydi.

Davlatimiz rahbarining joriy yilning 11-aprel kuni yoshlar siyosati sohasidagi ishlar natijadorligini oshirish chora-tadbirlari yuzasidan o'tkazgan videoselektor yig'ilishida ham bu masalaning muhimligi qayd etib o'tildi. Mazkur yig'ilishda Prezidentimizning "Yoshlar bilan ishlash hayot-mamot masalasidir. Shuning uchun mamlakatimizda yoshlarni barkamol etib tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Farzandlarimizni bugungi tahlikali davrda turli yot g'oyalar ta'siridan himoyalash, yoshlarning fikrlarini birovlar egallamasdan turib, ularga o'zimiz g'amxo'rlik va to'g'ri yo'l ko'rsatishimiz zarur", degan fikrlari psixologiya sohasida faoliyat yuritayotgan olimlar zimmasiga ham mas'uliyat yuklaydi. Xususan, yoshlarning ruhiyatiga salbiy ta'sir etadigan holatlarni o'rganish va ularning oldini olish borasida ilmiy izlanishlar olib borish muhimligini ko'rsatadi.

Bugun ayrim yoshlar, ayniqsa ta'lim olish bilan band bo'lgan ko'pchilik o'smir va o'spirinlar hayot va o'quv faoliyati jarayonida uchrayotgan o'ziga xos stressogen omillar ta'sirini yengib o'tish usullarini bilmaganligi sababli o'ta ta'sirchan bo'lib qolganligini hisobga olinsa, ularda stressga barqarorlik ko'nikmalarin shakllantirishning qay darajada muhim ahamiyat kasb etishini tushunish mumkin. Zero, ularning stressga barqarorligini oshirish bugun juda ko'p psixologlar tomonidan e'tibor qaratilayotgan masalalardan biridir. Buning uchun esa

o‘ziga xos ta’sirga ega bo‘lgan shaxs xususiyatlarini ham o‘rganish talab etiladi. Ana shunday shaxs xususiyatlaridan biri emotsional intellektdir.

Mavzuning o‘rganilganligi. Emotsional intellekt - bu inson o‘zining va boshqalarning his-tuyg‘ularini idrok etishi, baholashi va tushunish va hissiyotlarni boshqarish qobiliyatidir. Yuqori emotsional intellektga ega bo‘lgan insonlar o‘zlarini yaxshi nazorat qilishlari va samarali muloqotga kirisha olishning usutnligi bilan boshqadan farqlanib turadilar. Psixologlar va boshqa soha ilmiy jamoatchilik vakillari, shuningdek, ko‘plab tashkilotlarning rahbarlari emotsional intellekt hayotiy ahamiyatga ega ekanligini tan olishadi.

R.U.Otamuratov [174]ning adabiyotlar tahliliga tayanib, qayd etishicha, emotsional intellekt chuqur hamdardlik, o‘zini yo‘qotmasdan boshqalarga donolik bilan rahbarlik qilish va o‘z iste’dodini rivojlantirish, yaqin insonlarning muhabbati va qo‘llab quvvatlashini qabul qilish hamda ularga yordam bera olish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Ilmiy nuqtai nazardan emotsional intellekt 5 ta alohida komponentga ajratiladi. Bularning dastlabki uchtasi shaxsning o‘ziga, qolgan ikkitasi esa tashqi dunyoga tegishli bo‘lib, ular: o‘ziga ishonch, o‘z-o‘zini tartibga solish, o‘z-o‘zini rag‘batlantirish, empatiya, ijtimoiy kompetensiya [4].

A.P.Katunin emotsional intellektni “shaxsning eng muhim fazilat va qobiliyatlaridan biri” sifatida e’tirof etish bilan birgalikda uning ichki muvozanatini, o‘ziga ishonchini, shuningdek, boshqalar bilan o‘zaro munosabatlarining muvaffaqiyatini ta’minlovchi omil sifatida ta’riflaydi. Shuningdek, muallif, emotsional intellektning rivojlanganligi shaxsda o‘zining kuchli va kuchsiz tomonlarini bilish bilan shartlanishini hamda stressogen vaziyatda o‘zining emotsional holatini boshqarish uchun diqqatini jamlashga, o‘qish va mehnat faoliyatida ishtirok etish uchun shaxsiy zaxiralarini tezkorlik bilan safarbar etishiga yordam berishini, bundan tashqari yuqori emotsional intellekt shaxsning o‘zini, o‘z imkoniyatlarini, faoliyati jarayonida qo‘lga kiritgan yutuqlarini, shuningdek, o‘zining his tuyg‘ularini adekvat idrok etishiga, baholashi hamda nazorat qilishiga imkon berishini ham qayd etadi [3].

Ma’lumki shaxs taraqqiyotida stressga barqarorlikni shakllanishida emotsional intellektning o‘rnini baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada bir qancha olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan va turli soha vakillarida stressga barqarorlik bilan uning aloqadorligini o‘rganishgan. Xususan, xorij psixologlari bu borada juda ko‘p tadqiqotlarni amalga oshirishgan bo‘lib, ular hatto emotsional intellekt stressogen vaziyatlarning ajralmas tarkibiy qismi ekanligini asolash uchun stress jarayonida kechadigan his-tuyg‘ularni ham bilvosita modellashtirishga urunishgan. Mualliflar o‘z tadqiqotlari natijalariga tayangan holda, kasbiy faoliyatdagi stress bilan bog‘liq his-tuyg‘ular keyinchalik ham subyektning muayyan xulq-atvor turini tanlashiga ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini ta’kidlashgan.

Ayrim mualliflarning qayd etishicha, emotsional intellektning rivojlanishi bir tomondan, shaxsning optimal ishlashiga, shaxslararo munosabatlarda samarali va konstruktiv munosabatlar o‘rnatishiga yordam bersa, ikkinchi tomondan esa uning ijtimoiy moslashuvidagi xavotir hissini kamaytirish asosida shaxsning stressga barqarorligini ta’minlashga yordam beradi [1].

Tadqiqot metodlari. Mualliflarning xulosalari va qaydlaridan kelib chiqqan holda biz ham ta’lim tizimida tahsil olayotgan o‘smir, ilk o‘spirin va o‘spirinlarning o‘quv faoliyatida sodir bo‘layotgan stresslarga barqarorligini oshirishda emotsional intellektning o‘rni qay darajada ta’sir etishini o‘rganish maqsadida sinaluvchilarda M.A.Manoylovaning «Emotsional intellektni aniqlash» so‘rovnomasini o‘tkazdik. Empirik tadqiqotda qo‘lga kiritilgan natijalarga ko‘ra biz sinaluvchilar guruhida stressga barqarorlik va emotsional intellekt ularning yosh toifasiga ko‘ra qanday bog‘liqlikni ifodalashini aniqlashga muvaffaq bo‘ldik.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Olingan natijalar matematik va statistik jihatdan qayta ishlandi va ular quyidagi jadvalda o‘z aksini topgan.

1-jadval.

Sinaluvchilarning stressga barqarorligi va emotsional intellekti o‘rtasidagi korrelyatsion aloqadorlikning yoshga ko‘ra ifodalanishi.

Koping zaxira		Stressga barqarorlik		
		O‘smirlar	Ilk o‘spirinlar	O‘spirinlar
Emotsional intellekt	O‘z hissiyotlarini tushunish	0,202**	0,044	0,275**
	O‘z hissiyotlarini boshqarish	0,201**	0,051	0,313**
	Boshqalarning hissiyotlarini tushunish	0,072	0,024	0,268**
	Boshqalarning hissiyotlarini boshqarish	-0,022	-0,111	-0,005

Izoh: ** p≤0,01

Jadvaldagi natijalarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, o‘smirlarda stressga barqarorlik emotsional intellektning ichki aspekti bilan korrelyatsion aloqadorlik hosil qilgan, ya’ni stressga barqarorlik bilan o‘z hissiyotlarini tushunish (r=0,202; p≤0,01) va o‘z hissiyotlarini boshqarish (r=0,201; r≤0,05) o‘rtasida musbat korrelyatsiya qayd etilgan. O‘smirlarda stressga barqarorlik va emotsional intellektning ichki jihati bo‘lgan o‘z emotsiyalarini tushunish va o‘z emotsiyalarini baholash o‘rtasidagi korrelyatsion munosabatni shunday izohlash mumkinki, o‘smirlik davridagi psixofiziologik o‘zgarishlar bois o‘smir o‘z kayfiyatidagi noturg‘unlikni, o‘zidagi serzardalik va qaysarlikning sababini tahlil qila olmaydi, bu esa uning ruhiyatida sodir bo‘layotgan emotsional holatlarni tushuna olmasligi va boshqara olmasligi fonida stressga barqarorlikning pasayishiga olib keladi. O‘smirlarda stressga barqarorlik emotsional intellektning tashqi aspekti bilan korrelyatsion aloqadorlikni hosil qilmagan. Buni o‘smirlik davrida kattalik va mustaqillik hislarining kuchayishi ortida o‘smirlarning atrofidagi kattalar, xususan ota-onasi, o‘qituvchilari va unga “aql o‘rgatuvchi”larning hissiyotlarini tushunishni ham, boshqarishni ham istamasligi bilan izohlash mumkin. Demak, o‘smirlik davrida o‘z emotsiyalarini tushunish va ularni boshqara olish ularning stressga barqarorligini ta’minlashga ta’sir etishi mumkin.

Tadqiqotimizda olingan juda qiziq natija sinaluvchi ilk o‘spirinlarda stressga barqarorlik va emotsional intellektning hech qaysi shkalasi o‘rtasida korrelyatsion aloqadorlik kuzatilmagan.

O‘spirinlarda stressga barqarorlik emotsional intellektning ichki aspektining har ikkalasi va tashqi aspektidan bittasi bilan korrelyatsiyani ko‘rsatgan. Aniqroq aytadigan bo‘lsak, o‘spirinlik davridagi respondentlarda stressga barqarorlik o‘z hissiyotlarini tushunish (r=0,275; p≤0,01), o‘z hissiyotlarini boshqarish (r=0,223; p≤0,01) va boshqalarning hissiyotlarini tushunish (r=0,268; p≤0,01) bilan musbat korrelyatsiyani ko‘rsatgan bo‘lsa, boshqalarning hissiyotlarini boshqarish bilan aloqadorlik qayd etilmagan. Bu natijalarni izohlash uchun o‘spirinlik davrining o‘ziga xos xususiyatini tahlil qilish yetarli, ya’ni hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish tajribasining ortishi va turli xil stressogen vaziyatlarga nisbatan rasional munosabatning yuzaga kelishi natijasida o‘spirinlik davrida emosiyalarni ijtimoiy perseptiv tahlil qilishning kuchayishi asnosida o‘z hissiyotlarini tushunish va boshqarish ko‘nikmalari tarkib topa boshlaydi. Bu esa stressogen vaziyatda o‘zining emotsional barqarorligini saqlab qolish barobarida stressga barqarorlikning ortishiga olib keladi. O‘spirinlarda refleksiv jarayonlarlarning kuchayishi emotsiyalarni tushunish va boshqarishga imkon bergani bois ular nafaqat o‘zining, balki boshqalarning ham emosiyalarini tushuna olishga, ularni tahlil qilishga harakat qilishadi va o‘zaro munosabatlarda ijobiy natijalarga erishish tufayli o‘spirinlar stressga barqarorroq bo‘la borishadi.

Shunday qilib, emotsional intellektning yuqori darajasi o‘smir, ilk o‘spirin va o‘spirinda o‘zining bilimi, kuchli va kuchsiz tomonlarini hisobga olgan holda emotsiogen vaziyatlarda o‘z his tuyg‘ularini boshqargan holda stressga barqaror munosabat bildirishini va o‘quv faoliyatini muvaffaqiyatli davom ettirishishini ta’minlaydi.

Ayrim olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda yuqori sinf o‘quvchilarining stressga barqarorligini oshirish va xavotirlanish darajasini pasaytirishda emotsional intellektning ta’sirini o‘rganishga urinishlar mavjud. Xususan, Ye.P.Ilinning ta’kidlashiga ko‘ra, yuqori emotsional intellektga va yetarli darajada hissiy barqarorlikka ega bo‘lgan katta maktab yoshidagi o‘quvchilar o‘zlariga, qobiliyatlariga, xulq-atvorlari va his-tuyg‘ularini boshqarishga qodir, haqiqatni xotirjam idrok etadilar, stressga chidamli, murakkab hayotiy muammolarni osonlikcha hal qiladilar, ziddiyatli xulqni nazorat qila oladigan bo‘ladilar [2; 326 b].

Muallifning qayd etishiga ko‘ra, «O‘quv jarayonida o‘rta maktab o‘quvchilari doimo turli qiyinchiliklarga duch kelishadi. Natijada hissiy va intellektual stressni boshdan kechiradilar. Yuqori xavotirlanishga ega bo‘lgan talabalar o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishdan bosh tortishlari mumkin. Biroq bu ularda xavotirlanish darajasini pasaytiradi va hayotidan kamroq tashvishlanadi deb oldindan aytib bo‘lmaydi. Ular boshqalarga konformal moslashish yo‘lidan emas, balki o‘zlarining ichki dunyosiga, o‘zini izolyatsiya qilish yo‘lidan borishadi, bu esa yolg‘izlik tuyg‘usida namoyon bo‘ladi» [2; 318 b]. Shu sababli, o‘quvchilarda turli xil stresslarga nisbatan barqaror munosabatda bo‘lish ko‘nikmasini shakllantirish tobora dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda.

Xulosa. Olingan natijalarni umumlashtirilganda, o‘smir va o‘spirinlarning stressogen omillarga nisbatan barqaror munosabat bildirishida koping zaxiraning tarkibiy qismlaridan biri sifatida emotsional intellekt muhim ta’sirga ega ekanligi aniqlangan bo‘lib, tadqiqotda o‘smirlarda stressga barqarorlik o‘z hissiyotlarini tushunish, o‘z hissiyotlarini boshqarish bilan, o‘spirinlarda o‘zini baholash, o‘z hissiyotlarini tushunish, o‘z hissiyotlarini boshqarish, boshqalarning hissiyotlarini tushunish bilan musbat korrelyatsion aloqadorlikka ega ekanligi kuzatilgan.

Demak, o‘z hissiyotlarini tushunadigan va hissiyotlarini nazorat qilib, boshqara oladigan o‘smir, o‘spirinlarda stressga barqarorlik darajasining o‘sib borish tendensiyasi kuzatilsa, aksincha ulardagi o‘zida kechayotgan hissiyotlarni anglay olmaslik va hissiyotlarini boshqara olmaslik holatlari stressga barqarorlik ko‘rsatkichining pasayishiga olib keladi.

Adabiyotlar

1. Водопьянова Н.Е. Современные концепции ресурсов субъекта профессиональной деятельности // Вестн. СПб. ун-та. Сер. 16. – 2015. Вып. 1. С. 45–54

2. Ильин Е.П. Эмоции и чувства. СПб.: Питер, 2011. -783 с

3. Катунин А.П. Стрессоустойчивость как интегративный фактор совместной деятельности сотрудников служебных коллективов: автореф. дисс...канд. психол. наук. 2016. – 24 с

4. Otamuratov R.U. O‘quvchilarda kasbiy motivatsiyalar shakllanishining psixologik omillari. O‘zbekistonda psixologiyani rivojlantirish muammolari: nazariya va amaliyot uyg‘unligi. 2021., - 282 b

BOSHQARUV FAOLIYATI RAHBAR QAROR QABUL QILISHI ASOSIY IJTIMOIY-PSIXOLOGIK DETERMENANT SIFATIDA

Nazarov Azamat Sottarovich,
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi dotsenti

Annotasiya. *Ushbu maqolada boshqaruv faoliyati rahbar qaror qabul qilishi asosiy ijtimoiy-psixologik determenant sifatida nazariy jihatdan talil qilingan. Qaror qabul qilish muammosini mamlakatimiz, mustaqil davlatlar hamdo‘sligi va xorij olimlarining ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarda o‘rganilganligi ko‘rib chiqilgan. Tahlillar tadqiqot natijalariga asoslangan holda keltirilgan va xuloslangan.*

Kalit so‘z: *shaxs, personal, menedjer, shaxsning idividual xususiyatlari, menejment, qaror qabul qilish, boshqaruv qarorlari, ongli tanlov, determinizm, indeterminizm.*

Аннотация. *В данной статье теоретически доказано, что управленческая деятельность является основной социально-психологической детерминантой принятия управленческих решений. Проблема принятия решений изучалась в социально-психологических исследованиях нашей страны, стран Содружества Независимых Государств и зарубежных ученых. Представлен анализ и сделан вывод на основе результатов исследования.*

Ключевые слова: *личность, персонал, руководитель, индивидуальные особенности человека, управление, принятие решений, управленческие решения, осознанный выбор, детерминизм, индетерминизм.*

Abstract. This article theoretically proves that management activity is the main socio-psychological determinant of management decision-making. The problem of decision making has been studied in socio-psychological studies in our country, the countries of the Commonwealth of Independent States and foreign scientists. An analysis is presented and a conclusion is drawn based on the research results.

Key words: *personality, personnel, leader, individual characteristics of a person, management, decision making, managerial decisions, conscious choice, determinism, indeterminism.*

Jahonda boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish, rahbar xodimlarning qaror qabul qilish kompetensiyalarini takomillashtirish, zamonaviy boshqaruv uslubi va qaror qabul qilishda rahbarlarga xos xarakterologik sifatlar, boshqaruv qarorlariga qo‘yiladigan talablar, boshqaruv qarorlarini qabul qilishning ijtimoiy-psixologik jihatlari hamda uning ijrosini ta’minlashning ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy asoslari kabi masalalar dolzarb muammolardan bo‘lib qolmoqda. «Agar menejerning bitta universal belgisi bo‘lsa, u qaror qabul qilishdir» tamoyiliga ko‘ra, boshqaruv qarorlari muammosi ijtimoiy-psixologik, pedagogik, xuquqiy, sotsiologik, iqtisodiy jihatdan o‘ziga xos ravishda kengroq tadqiq etish zaruratini ko‘rsatadi. Bu borada psixologiya fani nuqtai nazaridan zamonaviy boshqaruv faoliyatida qarorlarni qabul qilishning ijtimoiy-psixologik jihatlarini tadqiq etish hamda boshqaruv sohasida kadrlar tizimini qayta isloh qilish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ba’zi tadqiqotlarda qaror qabul qilish hodisasi, noaniq vaziyatlarda dastlabki axborotlarni o‘zgartirish asosida, maqsad sari olib boruvchi xatti-harakatlar izchilligini shakllantirishning irodaviy hodissa sifatida ham ta’riflanadi. L.N.Kardanskayaning aytishicha, qaror qabul qilish jarayoni bu – iroda kuchi talab etiladigan, uylab xulosa qilinadigan, ba’zida tavakkal qilish orqali amalga oshiriladigan maqsadli jarayondir. Shuning uchun, uni iroda harakatlar kuchiga tenglashtiriladi. Biroq, bizningcha tadqiqotlararo o‘ziga xoslikliklarni aniqlash uchun avvalo, u bilan bog‘liq yaqin tushunchalarni aniqlab olish zarur. Qaror qabul

qilish fenomenining ijtimoiy-falsafiy asoslari keng tadqiq etilgan bo‘lib, hozirga qadar ushbu kategoriyaga oid ko‘plab falsafiy lug‘atlar chop etilgan.

Yetuk falasuf olim Q.Nazarov tahriri ostida chop etilgan “Falsafa: qomusiy lug‘at” kitobida ta’riflanishicha, qaror qabul qilish jarayoni bu –irodaviy hodisa sanalib, u inson xulq - atvori, erkinligi, narsa-hodisalarga bo‘lgan munosabat, sababiy bog‘liqliklarni aniqlash kabi ma’nolarni anglatadi. Shuningdek, ushbu muammoni o‘rganishda ikki yondoshuv mavjud, biri determinizm bo‘lsa, ikkinchisi indeterminizm yondoshuvi hisoblanadi. Mazkur ta’rifdan ma’lumki, qaror qabul qilish jarayoni bir tomondan inson irovadaviy harakatlarining mahsuli bo‘lsa, ikkinchi tomondan hayotiy vaziyatlar yoki tabiiy jarayondir. Biroq, qaror qabul qilish jarayonini tahlil etishda, imkon qadar ijtimoiy - falsafiy qarashlardan kamroq foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi.

K.M.Zakkarning tadqiqotlarida ko‘ra, qaror qabul jarayoni bu – insonning biron ishni bajarishga qaratilgan ongli intilishidir. Shu bilan birga, qaror qabul qilish irodaviy faoliyatining manbai sanalib, unda biror shaxs yoki yetakchining obyektiv dunyoni o‘zgartirishga qaratilgan amaliy faoliyati aks etadi. Ya’ni “men xohlayman” hissi emas, balki “men buni qilishim kerak” mazmunda harakat qiladi. Ammo, qaror qabul qilish barcha insonlar va yetakchi shaxslar uchun ham, doim muvaffaqqiyatli kechavermaydi. Bu holat ularda shakllangan qobiliyat, tajriba, malaka hamda boshqaruv kompetentligini ta’minlovchi qator psixologik xususiyatlar turi bilan uzviy bog‘liq hisoblanadai. Ikkinchidan, rahbar tomonidan chiqarilgan qarorlar bo‘ysunuvchilar uchun qat’iyan kuchga ega bo‘lgan huquqiy asoslardan biri hisoblanadi.

G.V.Gutman tomonidan olib borilgan tadqiqotlardja aniqlanishicha, muvaffaqqiyatli rahbar tomonidan qabul qilingan qarorlar quyidagi talablarga javob berishi lozim:

– Maqsadli – ya’ni qaror aniq mazmunda shakllantirilishi, qo‘l ostidagi xodimlar va ishchilar o‘rtasida noaniq fikr va shubha tug‘dirmasligi kerak;

– Oqilona va izchil – ya’ni ichki va tashqi vaziyatlarga, shuningdek, avvalgi va kelgusidagi qarorlarga to‘liq mos kelishi shart;

– Vakolatlilik – ya’ni qonunlar rahbarning ko‘rsatmalari va buyruqlari talablariga tayanib, rahbar va bo‘ysunuvchining vazifalari va huquqlarini hisobga olishi;

– Istiqbolli – muddati, nimaga, kimga, qanday, qachon, qaerda va qaysi sanaga qadar bo‘lganligi haqidagi savollarga javob bera olishi;

– O‘z vaqtida va samarali – xarajatlarga nisbatan, kutilgan natijaga nisbatan imkon qadar yaxshiroq bo‘lishi va hokazo.

Yuqoridagi tasnifdan farqli o‘laroq, ba’zi tadqiqotlarda qaror qabul qilish jarayoni uchun muhim bo‘lgan yondashuvlar haqidagi fikr-mulohazalarni ham ko‘rish mumkin. Tadqiqotchi K.V.Baldinning aytishicha, qarorlarni tayyorlash jarayoni murakkab ijtimoiy-psixologik jarayon sanalib, unda uch xil yondoshuv ajratiladi:

– Intuitiv yondoshuv – ushbu yondoshuvga muvofiq, qarorning ijobiy va salbiy tomonlari tahlil qilmasdan, uning to‘g‘riligini his etish asosida qabul qilish tushuniladi;

– Tajribaga asoslangan yondoshuv – bu bilim yoki to‘plangan hayotiy, kasbiy tajribalarga asoslangan jarayondir. Mazkur yondoshuvga muvofiq, qarorlarni qabul qilishda alternativ qarorlar va o‘tmish qarorlari hisobga olinadi. Bu yondoshuvning kamchiliklaridan biri shuki, u o‘tmish tajribada mos o‘xshash bo‘lmagan vaziyatlarda yaxshi samara bermaydi;

– Analitik yondoshuvga asoslangan qarorlar, ya’ni bunday qarorlar avvalgisidan farqli o‘laroq, o‘tgan tajribaga bog‘liq bo‘lmaydi, balki u analitik fikrlashga asoslanadi. Ushbu tasniflardan shuni xulosa qilish mumkinki, zamonaviy rahbar faqat o‘tmish tajribasiga tayanib emas, balki u kreativ fikrlash va tanqidiy tafakkur qilish asosida ham samarali qarorlarni ishlab chiqish imkoniyatiga egadir. Xorij tadqiqotchilardan M.Vudkok hamda D.Frensislarning aniqlashicha, qaror qabul qilishning to‘rtta darajasi mavjud va ularning har biri rahbardan o‘ziga xos boshqaruv ko‘nikmalarini talab qiladi:

Birinchi daraja – Doimiy qarorlarni qabul qilishda rahbar o‘zini ma’lum bir dasturga muvofiq yo‘naltiradi, ya’ni xuddi shu vaziyatlarni tan oladigan va oldindan bashorat qiluvchi tarzda harakat qiluvchidir. Ushbu darajada rahbarning asosiy vazifasi - vaziyatlarni “his qilish” va aniqlash, so‘ngra ma’lum harakatlarni boshlash uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olishdir;

Ikkinchi daraja – Mazkur darajada rahbar, qator mumkin bo‘lgan yechimlarning afzalliklarini baholaydi hamda yaxshi ishlab chiqilgan muqobil harakatlar majmuidan muammoga eng mos keladiganidan birini tanlashga harakat qiladi;

Uchinchi daraja – moslashish jarayoni bo‘lib, unda rahbar ma’lum bo‘lgan muammoning yangi yechimini izlaydi. Muvaffaqiyatga erishish uning shaxsiy tashabbusi va noma’lum vaziyatlarni hal eta olish qobiliyatiga bog‘liq bo‘ladi. Bundan tashqari, ushbu jaraja rahbar shaxsining kasbiy ko‘nikmalari va malkasi, kasbiy kompetentligiga ham uzviy bog‘liqdir;

To‘rtinchi daraja – innovasion jarayon sanalib, unda rahbar umuman kutilmagan va oldindan aytib bo‘lmaydigan muammolarni tushunish yo‘llarini izlashi lozim, bunda asosiy yechim rahbarning muammoga yangicha yondoshuvi hamda uning umumiy intellekt darajasiga ham bog‘liqdir. Demak, qaror qabul qilishdagi darajalar, o‘z mazmunida rahbar shaxsning imkoniyatlari, salohiyati, kasbiy kompetensiyalari, yangi tajribasi va aqliy ko‘rsatkichlari kabilarni ham aks ettirishi tabiiydir.

A.V.Mendelning aytishicha, qaror qabul qilish uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan narsa - bu qat’iyatlilik, ya’ni insonning mustaqil ravishda mas’uliyatli qarorlarni qabul qilishi va ularni faoliyatida barqaror amalga oshirish qobiliyatidir. Ko‘pincha, bunday harakatlar ma’lum xavfli vaziyatlar hamda ularni hal etishga qaratilgan muqobil yechimlarni tanlash zarurati bilan bog‘liq bo‘lgan qiyin vaziyatlarda yaqqol seziladi. Shuning uchun, qat’iylik sifati, qabul qilingan qarorlar uchun rahbarning mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishi bilan xarakterlanadi. Ta’kid joizki, har bir muvaffaqqiyatli rahbar albatta, qabul qilingan qarorning maqbul, samarali bo‘lishini xohlaydi. Biroq, bunday istakni ro‘yobga chiqarish uchun, hech bo‘lmaganda qaror qabul qilish jarayoniga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlay olishi lozim. V.L.Senderov qaror qabul qilish jarayoniga ta’sir etuvchi omillarni to‘rt guruhga ajratadi:

– Axborot omillari – ya’ni bu harakat obyekti haqida, ijrochilar va harakat sodir bo‘ladigan sharoitlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar miqdori bilan xarakterlanadi;

– Motivasion omillar – ya’ni subyektning qaror qabul qilish motivlari, uning qiziqishlari, munosabatlari va pozisiyalari bilan tavsiflanadi. Bundan tashqari ushbu omillar tarkibiga, rahbar shaxsning boshqalar bilan bo‘ladigan shaxslaaro munosabatlari tizimi ham mavjud;

– Xarakterli omillar yoki subyektning xarakter xususiyatlari va kollegial qarorlari – bu qaror qabul qilgan guruhdagi munosabatlar xarakteri, rahbar va xodimlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning mutanosibligi bilan tavsiflanadi;

– Texnologik omillar – bu rahbarning ma’lum prinsiplar va qoidalarga, texnologik protseduralarga rioya qilish, qaror qabul qilish usullarining mavjud arsenalidan foydalanish tufayli texnologik omillar. Demak, mazkur omillar ta’siri oriali inson iaror iabul iilish jarayoni mohiyatini puxta amalga oshira boradi.

Boshqaruv qarorlarini tadqiq etishning ijtimoiy-psixologik masalalari A.R.Urubkovning izlanishlarida ham o‘z aksini topgan. Muallifning aytishicha, rasional mazmundagi boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoni besh bosqichni o‘z ichiga oladi:

– Indikativ bosqich – bunda muammoli vaziyatni aniqlash va uning yechimlarini aniqlash kechadi. Rahbar shuni biladiki, qaror to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri bo‘lishiga qaramasdan uni qabul qilish majbur;

– Axborot bosqichi – yuzaga kelgan muammo bo‘yicha ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va tahlil qilish, shuningdek o‘ziga xos vaziyatlarga bog‘liq bo‘lgan to‘siqlarni aniqlanadi;

– G‘oyani ishlab chiqish va qaror qabul qilish bosqichi va hokazo.

Tadqiqotchi tomonidan berilgan mazkur tasnif mazmunidan shu narsa ayon bo‘ladiki, boshqaruv qarorlari bu shunchaki g‘oya emas, unda strategik maqsadlar va g‘oyalar aks etishi lozim. Va bu barcha rahbarlar uchun maqsadga muvofiq sanalgan, qaror qabul qilish malakalarida o‘z aksini topishi kerak.

Shuni alohida aytib o‘tish joizki, boshqaruv qarorlarini o‘rganishga oid ilmiy yonoshuvlar va konsepsiyalarda faqat ijtimoiy-psixologik masalalar emas, boshqaruv menejmentiga oid ko‘plab dolzarb muammolar ham ko‘rib chiqilgan. Chunki, boshqaruv jarayoni nafaqat ijtimoiy-psixologik muammolarni balki, ijtimoiy, iqtisodiy masalalarni ham qamrab oladi.

Misol uchun sotsiolog G.Spenser o‘zining “Sotsiologiya induksiyasi” nomli asarida, boshqaruv qarorlari haqida so‘z yuritib, ushbu jarayonga xos bo‘lgan quyidagi qonunlarni ajratadi:

– Har kim yetarli ma’lumoti bilan qaror qabul qilishi mumkin;

– Rahbar yaxshi bo‘lmasa ha, u qaror qabul qiladi;

– Ideal qarorlar yo‘q, ba’zan ishlab chiqilgan qarorlar teskarisiga ham ishlashi mumkin va boshqalar.

Boshqaruv nazariyasi va amaliyoti hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishning psixologik asoslari muammosi, yurtimiz psixolog, sotsiolog, iqtisodchi olimlari tomonidan o‘ziga xos o‘rganilgan bo‘lib, unda asosiy e’tibor rahbar shaxsi va uning boshqaruv uslubi, boshqaruv qarorlarini bajarishining samaradorlik jihatlari kabilarga qaratilgan. Quyida mahalliy psixologlar tomonidan amalga oshirilgan, boshqaruv psixologiyasi va boshqaruv qarorlarining amalga oshirishning psixologik asoslari borasidagi ayrim tadqiqotchlarning izlanishlari mazmuniga e’tibor qaratishga harakat qilamiz.

Misol uchun, tadqiqotchilardan V.M.Karimova, O.E.Xayitov, N.Sh.Umarovalarning aytishicha, boshqaruv ilmining nazariy tarixiy asoslari o‘z mazmunida boshqaruv tamoyillari, boshqaruv usullari, guruhlardagi rahbarlik va liderlik masalalari, liderlik uslublari, superliderlik fenomeni, rahbarlik sifatlari, rahbarlikka loyiqlikni baholovchi mezonlar, boshqaruvchiga xos kompetensiyalar tasnifi kabi masalalarning iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik jihatlarini to‘liq qamrab olishi lozim. Chunki, boshqaruv qarorlari keng qamrovli tushuncha sanalib, uni sohalararo tadqiq etish, mazmunini aniqlashtirish maqsadga muvofiq sanaladi.

Boshqa olimlardan farqli o‘laroq, I.I.Mahmudovning so‘zlariga ko‘ra, boshqaruv psixologiyasi va qarorlari masalasi tarixiy ahamiyatga ega hodisa sanalib, uni o‘rganishga bo‘lgan ilmiy intilishlar quyidagi xronologik davrlarni o‘z ichiga oladi:

– Ilmiy boshqaruv maktabi yoki mehnatni ilmiy tashkil etish maktabi (1885-1920);

– Boshqaruvda klassik yoki ma’muriy maktab (1920-1950);

– Insoniy munosabatlar maktabi (1930-1950);

– Boshqaruvga kapital yondoshuv;

– Miqdoriy yondoshuv;

– Jarayon sifatida yondoshuv;

– Tizimli va vaziyatli yondoshuv;

– Inson resurslarini rivojlantirish nazariyasi va hokazo. Demak, boshqaruv qarorlarini o‘rganish xorologik davrlashtirish asosida kechib, unda ham tarixiy ham, zamonaviy konsepsiyalarning asl mohiyati aks etadi.

N.Boymurodovning ta’kidicha, rahbar qabul qilgan qapop sheriklarning manfaatiga ham daxldor bo‘lishi lozim. Muvaffaqqyaitli rahbar doimo o‘zini hamkorining o‘rniga qo‘yib ko‘rish tamoyiliga tez-tez murojaat qilish foydalidir. Ya’ni “o‘zinga ravo ko‘rgan ishni va

vazifani boshqalarga ham ravo ko‘r, o‘zingga ravo ko‘rmagan narsani boshqalarga ham ravo ko‘rma” degan hikmatli aqidaga amal qilishi lozim. Aks holda, boshqaruv faoliyatining samaradorligi pasayadi yoki manfaatlar bir tomonlama tus oladi. Mazkur mulohazadan shu narsa aniq bo‘ladiki, rahbarlik faoliyati va boshqaruv qarorlari insonning qadriyatlari tizimi bilan uzviy bog‘liq sanalib, unda insonning ko‘plab ijobiy xarakterologik sifatlari mujassamdir.

Tadqiqotchilardan G‘.D.Shermatovning so‘zlariga ko‘ra, rahbar oqilona qaror qabul qila olish malakasi bilan birga, quyidagi psixologik va sotsiologik rollarni bajarishi lozim: tadbirkor, korxonani inqirozdan saqlovchi, muzokara olib boruvchi, ishchi xodimlarni o‘qitish, malakasini oshirish, iqtisodiy kuchlarni joylashtirish, mukofotlash, ishchixodimlarning ishiga hamda intilishiga e’tibor berish, doimiy nazorat, komissiyani kutish,katta rahbarga hisobot berish va boshqalardir. Ya’ni, qabul qilingan qarorlar nafaqat boshqaruv va ijro masalasiga balki, hamkorlik ishlari, o‘zaro munosabatlar, strategik rejalar, ijtimoiy-qo‘llab quvvatlash kabilarga ham xizmat qilishi kerak.

I.Xudoyberdiyev boshqaruv samaradorligi haqida yozarkan, avvalambor, har bir korxona rahbarining asosiy vazifasi korxonada ma’naviy-psixologik iqlimni yaratish, ya’ni ishchilar orasida doimiy psixologik va pedagogik, ya’ni tushuntirish ishlarini olib borishlari lozim. Buning uchun, har bir korxonada mutaxassis psixologlar ishlashi lozim. Bu boshqaruv qarorlari ijrosini samaradorligini ta’minlovchi omillardan biri hisoblanadi. Chunki ular har bir ishchi xodimning ruhiyatini o‘rgangan holda, ularga yondashadi va ularga vazifalar beradi. Menejment sohasida yetakchi olimlardan sanalgan S.S.G‘ulomovning yozishicha, har xil holatlar turlicha tashkiliy boshqarish tuzilmalarini va boshqaruv qarorlarini talab etsa, unda muayyan vaziyatlardan kelib chiqib, strategik rejalar va qarorlar ishlab chiqish ahamiyatli sanaladi.

O.E.Hayitovga ko‘ra, rahbarlarga xos ijobiy sifatlar va innovasion qaror qabul qila olish malakalari, quyidagi majmuaviy kompetensiyalar turi bilan uzviy bog‘liq sanaladi:

– Professional kompetensiya;
– Uslubiy kompetensiya;
– Ijtimoiy-psixologik kompetensiya;
– Autopsixologik kompetensiya;
– Ijtimoiy-informasion kompetensiya;
– Kommunikativ kompetensiya;
– Kognitiv kompetensiya;
– Maxsus kompetensiya;
– Madaniy kompetensiya va boshqalar.

Tadqiqotchi Q.X.Abdurahmonovning aytishicha, samarali va muvaffaqqiyatli rejalar va boshqaruv qarorlari nafaqat rahbar uchun obro‘’ -e’tibor olib keldai balki, quyidagi natijalarga erishish imkoniyatini berberadi:

– Raqobat bardoshlikni oshirish;
– Bozorningochiqligini rag‘batlantirish;
– Turmush darajasini yaxshilash;
– Atrof - muhitni muhofaza qilish;
– Boshqaruvda shaffoflik va qonun ustuvorligini ta’minlash va hokazo.

Yuqoridagi qarashlar va yondoshuvlardan farqli o‘laroq, boshqaruv qarorlari o‘ziga hos tahlilni talab etib, unda qaror qabul qilishning ijtimoiy-psixologik mezonlari, shart-sharoitlari e’tiborga olinishi lozim. B.G.Litvakning aytishicha, boshqaruv qarorlarini tahlil etishda avvalambor, uning samadaorlik jihatlarini, ishonchliligini, istiqbolligini, kuchliligini, kamchiliklari kabi jihatlarga ham ko‘proq e’tibor qaratish kerak. Bu shuni anglatadiki, ma’lum bir boshqaruv qarorlarini amalga oshirishning sifati va aniqligi qanchalik kuchliroq bo‘lsa, qarorlarni qabul qilishda ishtirokchilar ham shuncha ko‘p ishtirok etadi. Mazkur

yondoshuvlardan farqli ravishda, boshqaruv qarorlarini ijtimoiy-psixologik jihatdan o‘rganish masalasida, rahbar shaxsidagi o‘ziga ishonch hissi ham e’tiborga olinadi. Ya’ni bu rahbar tomonidan amalga oshirilgan, qaror qabul qilish jarayonini nazorat qilish tajribasi bilan ham uzviy bog‘liq. O.I.Larichevning so‘zlariga ko‘ra, boshqaruv qarorlarini nazorat qilishda quyilagi bosqichlar mavjud:

– Tashkiliy bosqich – bunda qaror va uning muddatlarini ijrochilarga yetkazish, mas’ul shaxslarni tayinlash, brifinglar uyushtirish, hamkorlik va tashqi aloqalar va hokazo. Bundan tashqari, diplomatik munosabatlar va strategik sherikchilik ishlari ham mazkur bosqichda jarayonida bajariladi;

– Nazorat bosqichi – bunda qarorlarning bajarilishini hisobga olish va nazorat qilish kabilar bajarilib, unga ko‘ra qaror maxsus tuzilgan ishchi guruhga beriladi. Bundan tashqari, ushbu bosqichda guruh ishini baholash, tekshirish, amalga oshirish jarayonining samaradorligi nazorat qilib boriladi.

Mohiyatan, inson mavjud bo‘lgan qarorlarni majburiy emas, balki erkin tarzda bajarilishini ko‘proq qadrlaydi. Yaponiya kompaniyalarida mazkur holatga juda katta e’tibor beriladi. Demak, boshqaruv qarorlari faqat jamiyat va davlat manfaatlarigagina emas, balki mamlakat fuqrolariga ham ijtimoiy, iqtisodiy jihatdan keng xizmat qilishi lozim. Ana shundagina, qarorlarni ijrosi hamma uchun muhim bo‘ladi va uni bajarishda barcha o‘z hissasini qo‘shishga harakat qiladi. F.X.Azizovning so‘zlariga ko‘ra, har bir boshqaruv qarorlarini bajarishning o‘z lahzasi mavjud, agar shu lahza qo‘ldan boy berilsa, u qarorni amalga oshirishning afzalliklari kamayib ketadi yoki umuman yuqoladi. Bunday mulohaza iqtisodiyotda, yugurib ketayotgan kal boshli inson qiyofasiga o‘xshatiladi. Ya’ni kal insonni yugurib ketayotganda ushlash juda mushkul.

Ba’zi manbalarda keltirilishicha, qaror qabul qilish jarayoni vaqtli xarakterga ega sanaladi. V.V.Глущенkoning aniqlashicha, boshqaruv qarorlarini qabul qilish murakkab hodisa sanalib, uni qabul qilish va ishlab chiqish bir necha kundan oygacha hatto, yillab vaqt oralig‘ida kechishi mumkin. Chunki, jamiyat ahamiyatiga molik qarorlar, ijtimoiy vaziyatlar haqidagi qarorlar, ijtimoiy doktorinalar to‘g‘risidagi qarorlar shular jumlasidandir. Biroq, o‘ta keskin, favqulodda vaziyatlar hamda hayot uchun xavfli holatlarda qaror qabul qilish jarayoni bir necha soniyada amalga oshishi mumkin, lekin ijtimoiy rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqish to‘g‘risidagi qarorlar, bir necha yil mobaynida ham bo‘lishi mumkin.

Boshqaruv qarorlarini qabul qilish boshqaruv rahbar uchun eng muhim vazifalardan biridir. Tadqiqotchilar D.Kaneman hamda P.Sloviklarning fikricha, qaror – bu boshqaruv organlari yoki rahbarning akti bo‘lib, unda nafaqat maqsad aniqlanadi, vazifalar belgilanadi, balki uni amalga oshiruvchilar ham tayinlanadi. Shuningdek, qaror uchun mablag‘lar ajratiladi hamda unga javobgarlik belgilanadi. Kundalik o‘zgarishlardagi masalalar qarorlar mazmuniga keng ta’sir etib, uning turlarini bevosita belgilab beradi.

Avvalambor, har qanday qarorni qo‘llashdagi samaradorlik ko‘proq, rahbar va bo‘ysunuvchilarning ijtimoiy-psixologik sifatlariga ham uzviy bog‘liq sanaladi. Chunki, qaror g‘oyasi rahbar tomonidan tanlanadi, uylanadi, boshqa g‘oyalar bilan solishtiriladi va ulardan eng maqbul varianti tanlanadi. Bizningcha, qarorlar har doim ijtimoiy bo‘lib, ikkinchi tomondan salbiy iqtisodiy oqibatlarga ham olib kelishi mumkin. Shuning uchun, har qanday qarorni ishlab chiqishda uning turi, nima uchun ishlab chiqilayotganligi alohida e’tibor qilinadi.

E.Kirxlerning aytishicha, qarorlar ishlab chiqilish mazmuniga ko‘ra, quyidagicha tasniflanadi:

– Karor qabul qilayotgan subyektning holatiga qarab;
– Hal qilinayotgan muammoning qiyinligiga qarab;
– Mavjud alternativ yechimlar soniga qarab;
– Rahbarning kasbiy va shaxsiy fazilatlaridan kelib chiqadigan.

Yuqoridagi tasnifga ko‘ra, qaror qabul qilish jarayonini tezlashtirishga yordam beradigan texnologiyalari mavjud, rahbar bundan o‘ta og‘ir vaziyatlarda foydalanishi mumkin. Rahbarning asosiy muhim vazifasi bu - boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ularni ijrochilar e’tiboriga tez va aniq yetkazishdan iborat. Barcha tashkilot va korxonalarning samarali faoliyati asosan, boshqaruv qarorlarining to‘g‘ri va o‘z vaqtida qabul qilinishiga ham bog‘liq hisoblanadi.

I.N.Gerchikovaning so‘zlariga ko‘ra, qaror qabul qilish jarayonining ijtimoiy – psixologik mazmuni shundan iboratki, u noaniq sharoitlarda ma’lumotni o‘zgartirishga asoslangan, maqsadga erishishga olib keladigan va ketma-ket harakatlarni shakllantirishga qaratilgan inson irodaviy harakatining mahsulidir. Bundan tashqari, har qanday faoliyatning yo‘nalishi, istiqboli, faoliyatdagi insonlarning muvaffaqqiyatlari, hamkorlikda ishlashning yutuqlari hamda birgalikdagi maqsadlarning samarali kechishi bu, oqilona qabul qilingan qarorlarning mahsulidir. Sotsiologik va ijtimoiy-psixologik mazmunda amalga oshirilgan ayrim tadqiqotlarda, boshqaruv qarorlarining o‘ziga xos bosqichlari ham farqlangan. M.Eddousning yozishicha, boshqaruv qarorlari boshqa turdagi qarorlardan ikki bosqichli ekanligi bilan farqlanadi. Boshqaruv faoliyatida mobaynida, rahbar doim qanday rahbarlik qilishi kerakligi to‘g‘risida o‘ylaydi. Rahbar shu asnoda o‘ziga mos bo‘lgan qarorlar qabul qiladi. Bunday qaror qabul qilish g‘oyasi mazmunida, bo‘ysunuvchilarning qanday harakat qilishlari va ularning qarorga bo‘lgan munosabatlari kabi fikrlar ham aks etadi. Demak, qarorlarning ishlab chiqilishi faqatgina korxona va rahbar manfaatlarini emas, boshqalarning imkoniyatlari va talablaridan kelib chiqib, ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, qarorlar har doim ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lib, bir tomondan u, ishchi va xodimlarda ijobiy yoki salbiy fazilatlarni tarbiyalashga ham keng xizmat qiladi. Shuning uchun, biror turdagi qarorni qabul qilishda rahbarlar ikki tomonlama holatni hisobga olishlari lozim. Bir so‘z bilan aytganda, mazkur holatlar iqtisodiy – ijtimoiy hamda axloqiy va psixologik vaziyatlar ta’sirini nazarda tutadi.

Adabiyotlar

1. Nazarov A. S. The psychology of decision-making strategies // Актуальные научные исследования в современном мире.– 2021. – №. 1-7. – S. 79-82.

2. Назаров А. С. и др. Психологические особенности разработки и реализации управленческих решений //Актуальнее научные исследования в современном мире. – 2021. – №. 2-9. – С. 31-35.

3. Nazarov A. Scientific and methodological foundations of the influence of the social and psychological properties of the manager on managerial decisions //Obщestvo i innovasii. – 2021. – Т. 2. – №. 4/S. – S. 523-532.

4. Умаров Б. М., Назаров А. С. Socio-psychological aspects and mechanisms affecting management decision-making in the activities of the head //Международний научно-практический электронний журнал «Моя профессионалная карера». Випуск № 29 (том 1)(октаябрь, 2021). Дата выхода в свет: 31.10. 2021. – С. 91.

IJTIMOIY TARMOQLARDAGI AXBOROTLARNI TUSHUNISH MUAMMOSINING PSIXOLOGIK MAZMUN-MOHIYATI

Jabbor Alisher Musirmon o‘g‘li,
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ijtimoiy tarmoqlardagi axborotlarni tushunish muammosining psixologik mazmun-mohiyati va tabiati ochib berilgan. Shuningdek, ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlardagi axborotlarni tushunishda shaxslilik sifatlari va retsidentning idrok bilan bog‘liq xususiyatlari tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy tarmoq, axborot, virtual tarmoq, tushunish, shaxslilik sifati, axborotni idrok qilish.*

Аннотация. *В данной статье раскрывается психологическая сущность и природа проблемы понимания информации в социальных сетях. Также в данной статье анализируются личностные качества и особенности восприятия жителя в понимании информации в социальных сетях.*

Ключевые слова: *социальная сеть, информация, виртуальная сеть, понимание, качества личности, восприятие информации.*

Abstract. *This article reveals the psychological essence and nature of the problem of understanding information in social networks. This article also analyzes the personal qualities and characteristics of a resident’s perception in understanding information on social networks.*

Key words: *social network, information, virtual network, understanding, personality traits, perception of information.*

So‘nggi yillarda psixologiyada kiberpsixologiya tobora mustaqil ilmiy yo‘nalish maqomiga ega bo‘lib, mazkur sohaga oid tadqiqotlar ko‘lami kengayib, chuqurlashib bormoqda. Chunki insonning qay tarzda so‘zlashishi, unda nutqning paydo bo‘lish va shakllanish jarayoni bilan bog‘liq masalalar shu sohadagi izlanuvchilarni avvaldan qiziqtirib kelgan. Jamiyat rivojlanib borgan sari inson dunyoqarashi, tafakkuri, idroki va nutqi ham tadrijiy ravishda o‘zgarib boradi. Kishilarning kognitiv imkoniyatlari va nominativ xususiyatlarini kuzatishda inson tilini o‘rganish o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bunda asosan matn orqali tilning ichki qonuniyatlarini shaxs tushunishi va idrok etishini kuzatish mumkin. Bu borada matnlarni idrok etilish masalalarini falsafiy tahlil etish nuqtayi-nazaridan to‘xtalib o‘tamiz.

Tushunish va uning bilish bilan o‘zaro nisbati muammosi ko‘pdan beri muhokama qilinadi. U bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan va ko‘p jihatdan bahslidir. Tushunish tavsiflash, tushuntirish va talqin qilish bilan bir qatorda, ilmiy bilish faoliyatining asosiy muolajalariga kiradi. Tushunish-muayyan hodisaning ma’nosini, uning dunyodagi o‘rnini, yaxlit bir butun tizimdagi funksiyalarini tushunib yetish demakdir. U borliqning ma’nolarini teran anglab yetishga ko‘maklashadi. Hozirgi adabiyotlarda tushunish turlari, tiplari va darajalarining har xil tasniflari mavjud. Masalan, G.I.Ruzavin tushunishning uch asosiy turini farqlaydi:

- dialogda til vositasida aloqa qilish jarayonida yuzaga keladigan tushunish. Tushunish yoki tushunmaslik natijasi matnning idrok etilishiga va suhbatdoshlar o‘z so‘zlariga qanday ma’no yuklashiga bog‘liq;
- bir tildan boshqa tilga tarjima qilish bilan bog‘liq tushunish. Bu yerda o‘zga tilda ifodalangan ma’noni ona tilidagi gaplar yordamida ifoda etish va saqlash nazarda tutiladi;

- Axborotlarni, badiiy adabiyot va san’at asarlarini, shuningdek, odamlarning turli vaziyatlardagi qilmishlari va harakatlarini talqin qilish bilan bog‘liq tushunish. Bu yerda, ma’noni intuitiv tushunishning o‘zi yetarli bo‘lmaydi. Bu tushunishning birinchi darajasi.

- Tushunishning ikkinchi darajasi tadqiqotning boshqa, xususan: mantiqiy-metodologik, aksiologik, kulturologik vosita va metodlarini jalb qilishni taqozo etadi.

Tushunish bilan bir qatorda-tushuntirish ham mavjud. Tushuntirishning bosh maqsadi o‘rganilayotgan predmetning mohiyatini, rivojlanish sabablari, shartlarini va manbalarini, harakat mexanizmlarini o‘rganishdan iborat. Tushuntirish odatda tavsiflash bilan chambarchas bog‘liq va ilmiy bashoratning negizini tashkil etadi. Shuning uchun ham tushuntirish deganda, umumiy tarzda, muayyan hodisani umumlashtirishni tushunish mumkin.

Teologik yoki intensional tushuntirish harakatning oqilonaligini emas, balki harakat qilayotgan shaxs ko‘zlagan maqsadni, tarixiy hodisalar ishtirokchilarining niyatini ko‘rsatib beradi. Mashhur faylasuf va mantiqchi G.X.Fon Frigt fikriga ko‘ra, teleologik tushuntirish “inson haqidagi fan metodologiyasida uzoq davr yetishmagan va qonun orqali tushuntirish modelining haqiqiy muqobili bo‘lib xizmat qiladigan tushuntirish modelidir”.

Dunyoning manzarasiga kiruvchi madaniyat va jamiyat haqidagi bilimlarni ilmiy tizimga solish ehtiyoji ijtimoiy bilishda maxsus tadqiqotlarga sabab bo‘ldi. XIX asrning 80-yillari hamda XX asrning 30-yillarida yangi gegelchilik bilan kurash, analizning falsafiy-lingvistik usullariga asos solish orqali matnlar bu – fikrlarning mantiqiy ravshanlanish muolajasi degan g‘oya ustuvor bo‘lgan. Taniqli olim L.Vitgenshteynning falsafiy tadqiqotlarida tilni uning foydalanishidan ich-ichidan ajratilmaydigan holat tarzida tahlil qiladi. Tilga doir o‘yinlar, ya’ni til bilan uning foydalanilishi yaxlitlikni tashkil etadigan rang-barang aniq lisoniy kontekstlar tarzida tushuniladi. Vitgenshteyn fikriga ko‘ra, muloqotning mazmunli, ochiq va tushunarli bo‘lishi lisoniy materialning hajmi va ma’no jihatdan chegaralanmaganligiga bog‘liqdir. Bu o‘rinda til zahirasida ijtimoiy-tarixiy axborotni saqlashning ikki darajasini yoki usulini farqlash mumkin:

- tilning o‘zida, ya’ni tilning semantik tizimida, lug‘atlarda va grammatik kategoriyalarida;

- tilda yaratilgan muloqot materiallarida, ya’ni og‘zaki va yozma matnlarda.

Odatda, axborotlarning bajaradigan ko‘plab funksiyalari qatorida ba’zilari eng muhim ekanligi ko‘rsatiladi: til odamlar orasida eng muhim aloqa vositasidir; u insoniyatning ijrimoiy tarixiy tajribasini saqlash uchun xizmat qiladi; til tafakkurning asosiy elementi vazifasini bajaradi. Bular har qanday tilning eng muhim, asosiy funksiyalari hisoblanadi. Ammo tilning funksional imkoniyatlari bu bilangina cheklanmaydi. Analitik falsafa vakillari tilning ilmiy xususiyatiga e’tibor qaratgan bo‘lsa, postmodernizmda til va matnlarning ilmiy-falsafiy mazmun-mohiyati bilan bir qatorda uning estetik xususiyatiga ham alohida e’tibor qaratilgan.

Nemis matematigi va mantiqshunosi G. Frege formallashgan til g‘oyasini ishlab chiqqan. U formallashgan til uchun ikki tamoyil xarakterli deb ko‘rsatdi: birinchisi, bir ma’nolilik prinsipi bo‘lsa, ikkinchisi, predmetlik prinsipidir. Biroq olim tilning rivojlanish xususiyatlari hamda universal tomonlarini e’tibordan chetda qoldiradi. Chunki V. Gumboldt aytganidek, “til o‘ziga xos reallik bo‘lib, o‘zini o‘zi rivojlantiradi, o‘zini o‘zi ishlab chiqaradi”. Bu holat tilda ham bunyodkorlik ruhi mavjud ekanligidan dalolat beradi. M.Shlik esa “matnlarda mantiqqa to‘g‘ri kelmaydigan, ikki ma’noli so‘zlarni chiqarib tashlash kerak” degan fikrni maydonga tashlaydi. L.Vitgenshteyn “til – o‘yindir” deb ta’kidlaydi. Sh.Taleyran ham “til insonga o‘z fikrini yashirish uchun berilgan” degan edi.

Shuni ta’kidlash lozimki, tarixni va hozirgi zamon axborotlarini germenevtik nuqtayi nazardan o‘rganish juda muhim bo‘lib, bu borada germenevtikaning ijtimoiy-falsafiy tahlili matn talqiniga munosabatni, matnlarning o‘zaro aloqadorlik, qiyosiylik tamoyillarini tahlil qilish ijtimoiy ahamiyatini yanada oshiradi. Matnni tushunib yetish uchun germenevtik kodlar

yordamida uning ichki holatini, muallifning ruhiy kechinmalarini tadqiq etish orqali komentatorlik qiladi. Tarixiylik, mantiqiylik asosida matnlarning o‘zaro aloqadorlik jihatlari o‘rganiladi. Shuning uchun germenevtika biz uchun boshlang‘ich, ya’ni psixologiyada yangi metod sanaladi. Germenevtika metodining kategoriyasi sifatida falsafiy, monointerpretatsiya, avtointerpretatsiya, avtokommunikativ interpretatsiya, tarixiy funksional idrok, ta’sir va aks ta’sir dialektikasining matnlarda ifodalanishi, akkersepsiya, bibliopsixologiya masalalari, kod, dekod, dialog, ya’ni madaniyatlararo munosabat, xronotop, shuningdek, musulmon sharqida: kod, tafsir, ta’vil, tabdil, kitobat ilmi, isnodlar, sanadilar, xoshiyalar, ishorat ilmi, badiiy san’atlar matnning germenevtik talqini bilan bog‘liq o‘nlab atama va hodisalar yoritiladi.

Qadimgi axborotlarni, belgilarni, o‘zga tildagi manbalar mazmunini germenevtik doirada talqin qilish uslubi sifatida ishlatilgan. O‘rta asrda germenevtika teologiya bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan “cherkov otalari” asarlarini talqin qilishda qo‘llanilgan. Renessans (uyg‘onish) davrida filologik germenevtika paydo bo‘lgan. Bu davrda uning vazifasi diniy matnlarni tanqidiy ko‘rib chiqish, ularni xatolardan xalos etish va dastlabki mazmunini tiklashdan iborat bo‘lganligi ma’lum. Falsafiy matnlarni tushunish va idrok etish XIX asrning o‘rtalarida vujudga keldi. Uning asoschilaridan biri F. Shleyermaxerdir. U matnni idrok etishni ruh haqidagi fanlarning uslubi sifatida ko‘rib chiqgan. Olim ruhiyat orqali qadimgi matn mualliflarining ichki dunyosiga singish mumkinligini isbotlashga harakat qilgan. Shu asnoda tarixiy shaxslarning faoliyatini o‘rganib, tarixiy hodisalarni qayta ko‘rib chiqib, ularni yanada chuqurroq tushunish va idrok etishni taklif qilgan.

Talqin jarayonida interpretatsiya turlari va matnga qay yo‘sinda yondashish lozimligi to‘g‘risida bilib olish lozim.

- So‘z bilan bog‘liq interpretatsiya – matn tili, so‘z va so‘zlar manbayi izohi;
- Tarixiy interpretatsiya – germenevtni matn paydo bo‘lgan davr bilan tanishtiruvchi talqin;
- Texnik interpretatsiya – matndagi tasviriy vositalar yoki izohi bo‘lmagan xoshiyalar.

Xulosa siaftida aytish mumkinki, tushunish, talqinchining madaniy tayyorgarligi va ruhiy olamida aks etgan madaniy an’ananing obyektiv qatlamini ko‘rsatadi. Tushunish talqin vositasida anglashiladi. Ayrim olimlar esa tushunish va talqin etishni bir narsa deb qaraydilar. Aslida barcha nemis olimlari germenevtikani sferaga bo‘lganlaridek interpretatsiya jarayonining o‘z butun va qism shaklida o‘rganish kategoriyalari mavjud.

Adabiyotlar

1. Рузавин Г.И. Методология научново исследования.-М.,”Прогресс”,1999. – С.214-215.
2. Вригт Г.Х. Логика-философские исследования.-М.,”Наука”,1986. – С.64.
3. Витгенштейн Л. Современная аналитическая философия.-М.,1991. – С.179-190.
4. Фреге Г. Смысл и значение// Избранные работы.-М.,ДИК,1997. – С.25-49.
5. Талейран Ш.М. Мемуары.-М.,1998. – С.54.
6. Ляпушкина Е.И. Введение в герменевтику.СПб.,Издателство,2002. – С.96.
7. История философии для студентов ВУЗов Ростав на Дону.,1998. – С.69.

UDK: 316.6:17.022.1(575.1)

PROKURATURA TIZIMI XODIMLARIDA KASBIY REFLEKSIYA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK FENOMEN SIFATIDA

O‘sarov Odiljon Avalbaevich,
Samarqand harbiy prokurori, adliya polkovnigi

Annotatsiya. *Mazkur maqola prokuratura tizimi xodimlarida kasbiy refleksiyaning ijtimoiy-psixologik asoslariga bag‘ishlangan bo‘lib, prokuratura tizimi xodimlarining kasbiy, ilmiy, psixologik tayyorgarligi kabilarni tadqiq etishni nazarda tutadi. Shuningdek, maqola mazmunida prokuratura tizimi xodimlarining individual psixologik xususiyatlari, shaxsning ijtimoiy-psixologik qiyofasi va kasbiy refleksiya shakllanishining ijtimoiy-psixologik tadqiqi keng yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *prokuratura, refleksiya, ichki xizmat, jinoyat, intizom, jasorat, ijtimoiy-psixologik qiyofa, maxsus unvon, professional xodim, psixolog, fenomen.*

Аннотация*. Данная статя посвящена сотсиально-психологическим основам профессионалного рефлексия у сотрудников прокуратури и предусматривает проведение исследований по таким вопросам, как профессионалная, научная, психологическая подготовка сотрудников прокуратури. Также в содержании стати широко освещени индивидуально-психологические особенности сотрудников прокуратури, сотсиально-психологический образ личности и сотсиально-психологическое исследование формирования профессионалного рефлексия.*

Ключевие слова: *прокуратура, рефлексия, внутренняя служба, преступност, диссиплина, мужество, сотсиально-психологический имидж, спесиалное звание, профессионалний сотрудник, психолог, феномен.*

Annotation. *This article is devoted to the socio-psychological foundations of professional reflex in the employees of the prosecutor's office system and provides for the study of such as professional, scientific, psychological training of the employees of the prosecutor's office system. Also, in the content of the article, the individual psychological characteristics of the employees of the prosecutor's office system, the socio-psychological image of the individual and the socio-psychological study of the formation of professional reflex are widely covered.*

Key words: *prosecutor's office, reflection, internal service, crime, discipline, courage, socio-psychological image, special title, professional employee, psychologist, phenomenon.*

O‘zbekiston Respublikasida hamma sohalar qatori prokuratura sohasida ham qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Prokuratura tizimida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan yangilash, huquqiy savodxonlik sifatini yangi bosqichga olib chiqish, jumladan, yuridik psixologiya fanini o‘qitish jarayoniga ilg‘or uslublarni joriy etish orqali huquqiy kasb natijaviyligini ta’minlash imkoniyatlari kengaytirildi. Bir so‘z bilan aytganda, prokuratura tizimi hozirgi zamon talablari darajasida shakllandi. Lekin, zamonaviy prokuratura tizimi xodimlarini shakllantirishda kasbiy faoliyatga oid refleksiv qobiliyatlar tizimini va mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratish zarur. Bu uchun prokuratura tizimi xodimlarida kasbiy refleksiyani ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida tadqiq etish o‘rinli hisoblanadi.

A.V.Karpovning yondashuviga ko‘ra, refleksivlik psixikaning kognitiv strukturasining bir qismi, butun tizim uchun tartibga solish funksiyasini bajaradigan meta-qobiliyat bo‘lsa, refleksiv jarayonlar “uchinchi darajali jarayonlar” sifatida qaraladi (kognitiv, emotsional, irodaviy, motivasion jarayonlar – birinchi darajali, sintetik va tartibga soluvchi esa ikkinchi darajali hisoblanadi)[1,424].

Uning konsepsiyasida refleksiya integratsiya jarayonining eng yuqori darajasi hisoblanadi. Bu ayni paytda psixika tizimining o‘z chegaralaridan tashqariga chiqish yo‘li va mexanizmi bo‘lib, shaxsning egiluvchanligi va moslashuvchanligini belgilaydi deyishimiz mumkin.

Shuni ta’kidlash kerakki, sabablari subyektning ichida va tashqarisida joylashgan hodisalarni bir-biridan ajratib, farqlashga aynan refleksiya jarayoni yordam beradi. Bu subyektda sababiy bog‘liqlik borligini ko‘rsatadi. Uning yordami bilan subyekt aynan nimaning sababi ekanligini (yoki bo‘lishi mumkinligini) va buning uchun nima qilish kerakligini aniqlash mumkin. Shunday qilib, refleksiyani subyekt o‘zining resurslarini tushunish vositasi sifatida ko‘rish mumkin. O‘z harakatlari, motivlari, kognitiv va emotsional jarayonlarini tahlil qilish vaqtida o‘z xatti-harakatlarining sababiy mexanizmi haqida tasavvur hosil bo‘ladi, oqibatlari anglanadi, sodir bo‘layotgan voqealarga mas’uliyatli munosabat shakllanadi.

Shunday qilib, bir qator refleksiya funksiyalari tafakkur jarayonini qayta tashkil etishga qaratilgan bo‘lsa, boshqalari esa shaxsning rivojlanishini ta’minlaydigan o‘z-o‘zini bilish jarayoniga kiradi.

Tadqiqotchi M.M.Mukanova ta’kidlashicha, o‘z-o‘zini bilish jarayonida refleksiyaning rolini aniqlash bilan bir qatorda, u muloqotda o‘zaro tushunishga erishish imkoniyatini ta’minlaydigan ijtimoiy persepsiyaning asosiy mexanizmlaridan biri sifatida qaralishini ta’kidlydi[2,54].

Bu yerda refleksiya muloqotdagi sherigi tomonidan o‘zini qanday qabul qilinishini anglashida namoyon bo‘ladi, shuningdek, ijtimoiy persepsiyaning yana bir mexanizmi bo‘lgan sherigining kechinmalarini tushunishga qaratilgan kognitiv empatiya bilan bog‘liq hisobanadi.

Tadqiqotchi Yu.I.Lobanovaning fikricha, prokuratura tizimi xodimlarining faoliyatida refleksiyaning roli ularning kasbiy fikrlash jarayonida bajaradigan funksiyalari bilan belgilanadi. Fikrlash jarayonini tahlil qilish funksiyasi muvaffaqiyatsizlik tufayli yuzaga keladigan muammoni tushunishni ta’minlaydi va mutaxassis o‘zini xato qilayotgan ijrochi sifatida ko‘rishida, qabul qilgan qarorlari nima uchun samarali yoki samarasiz ekanligini aniqlashga intilishida namoyon bo‘ladi[3,54].

Demak, refleksiya ongli ravishda muammoni qo‘ya olishni, fikrlash jarayonini mustaqil ravishda shakllantirishni, ya’ni uni tashkil etishni ta’minlaydi. Bu vaziyatda refleksiya tafakkurni amaliy muammoni hal qilish uchun tanlangan yo‘lni qayta ko‘rib chiqishga, ular asosida yangi harakat uslubini ishlab chiqish uchun uning xatolarini topishga majbur qilar ekan. Ushbu funksiyaning natijasi mavjud vaziyatdan tashqariga chiqish va ijodiy tafakkur jarayonini faollashtirish bo‘ladi.

Yuqorida sanab o‘tilgan funksiyalar, boshqalari bilan bir qatorda, mutaxassisning tafakkuri samaradorligini ta’minlaydi, chunki refleksiya yordamida hozirgi vaziyatda eng samarali bo‘lmagan qaror turlari chetga suriladi va tafakkur jarayoni muammoli vaziyatdan chiqish uchun yangi narsalarni topishga yo‘naltiriladi. Shuni ta’kidlash kerakki, agar xodimning fikrlash jarayoni oqilona yechim topishga emas, balki muvaffaqiyatsizliklardan qochishga qaratilgan bo‘lsa, refleksiya faoliyati uchun bo‘sh joy sezilarli darajada cheklanadi.

Prokuratura tizimi xodimlari faoliyati uchun kasbiy jihatdan muhim bo‘lgan fazilatlar orasida mas’uliyat alohida ajralib turadi. Uning mas’uliyatliligi xodimning o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarini sifatli bajarishi bilan tavsiflanadi. Xizmatni mas’uliyatli amalga oshirish uchun topshiriq vazifasini bilishi, balki unga erishish yo‘llarini tahlil qila olishi, shuningdek, natijalar sifatini baholashini ta’minlaydigan refleksli jarayonlarning ishlashi bilan ham bevosita bog‘liqdir.

Tadqiqotchi M.K.Tutushkina ta’kidlashicha, prokuratura tizimi xodimlarida refleksiyani shaxsning o‘zini o‘zi boshqarishidagi zaruriy mexanizmlardan biri sifatida belgilaydi. U

prokuratura tizimi faoliyatdagi refleksivlikning ikki xil nazorat va konstruktiv funksiyasilariga ajratadi[4,67].

Nazorat funksiyasi ma'lum bir sohadagi mavjud vaziyat va shaxs dunyoqarashi o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish va tekshirish jarayonidan iborat bo'lib, ma'nolar, munosabatlar va obrazlar shaklidagi ko'rsatmalardan iborat bo'ladi. Konstruktiv funksiya muayyan harakatlarni bajarish bilan bog'liq bo'lib, ideal obrazning o'zi harakat bajarilishi kerak bo'lgan model jarayonida yaratiladi, ya'ni bu ijodiy jarayon hisoblanadi.

Psixolog olim V.A.Metayevaning fikricha, prokuratura tizimi xodimlarida kasbiy refleksiyaning akmeologik xususiyatini alohida ta'kidlab, refleksiya orqali shaxsiy va kasbiy rivojlanishda eng yuqori natijalarga erishishni ta'minlaydi. Aynan akmeologiyada "refleksiv kompetensiya" boshqa barcha turdagi kasbiy kompetensiyalarning yetarli darajada rivojlanishiga hissa qo'shadigan meta-kompetensiya sifatida qaraladi degan fikrni ilgar suradi[5,58].

V.A.Metayevaning o'qituvchilar, tibbiyot xodimlari, jamoat va siyosiy arboblar, rahbarlar o'rtasida olib borgan tadqiqotlari refleksiya barcha mutaxassislar faoliyatida tizimni tashkil etuvchi element bo'lib, ularning kasbiy malakasini rivojlantirishga xizmat qilishini isbotlaydi.

Rus olimi S.Yu.Stepanovning ta'kidlashicha, refleksiv kompetentlik prokuratura tizimi xodimlarining kasbiy sifati bo'lib, vazifalarni yanada samarali va adekvat amalga oshirish, rivojlanish va o'z-o'zini rivojlantirishni ta'minlaydigan refleksiv qobiliyatni yuzaga chiqarish, kasbiy faoliyatga ijodiy yondashuv asosida maksimal samaradorlik va natijaga erishishga imkon yaratib beradi degan fikrni ilgari suradi[6,14].

Demak, prokuratura tizimi xodimlarida refleksiv kompetensiyani shakllantirish xodimni kasbiy va shaxsiy rivojlanish subyekti sifatida shakllantirish muammosi hisoblanar ekan. M.S.Mirimanova refleksiyani insonning o'ziga tashqi tomondan nazar sola olish qobiliyati deb ta'riflaydi[6,58].

Demak inson o'zini ma'lum bir obyekt sifatida kuzatishga harakat qilishi yoki ijtimoiy refleksiya orqali o'z ongida boshqalarning u haqidagi tasavvurlarini modellashtirish tufayli boshqa shaxs orqali o'zini tushunishga erishar ekan. Rus olimi N.V.Kuzminaning fikricha, professionalizm faoliyat subyektining sifat ko'rsatkichi bo'lib, pedagog kasbiy muammolarini hal qilishning zamonaviy vositalariga, uni amalga oshirishning samarali usullariga ega bo'lish bilan xarakterlanadi. Kasbiy pedagogik faoliyat mazmuniga muvofiq, u kompetensiya modelini taklif qiladi, bunda refleksiya mustaqil element – fikrlash yoki faoliyatni tahlil qilishni, ularga nisbatan tanqidiy munosabatni va yangi normani izlashni o'z ichiga olgan protsedura hisoblanib, shaxsga mustaqil ravishda qaror qabul qilish imkonini beradi. Demak, refleksiya kasbiy kompetensiya tarkibiga kiradi va uni shakllantiradigan tizimni tashkil etuvchi omil hisoblanadi.

M.I.Karginning fikricha, refleksiya insonga o'zini boshqa odamning o'rnida turib tushunishga, o'z harakatlarini baholashga, o'z xatti-harakatlarining afzalliklari va kamchiliklarini hisobga olishga va ularni qayta tiklashga imkon beradi[7,98].

Refleksiya insonning ichki holatiga o'tishning eng muhim mexanizmidir. U insonlarda tug'ilganda bo'lmaydi, balki ontogenezning barcha bosqichlarida rivojlanadi. Tadqiqotchilar I.N.Semenov va S.Yu.Stepanovlarning ta'kidlashicha, shaxs refleksiyasi amalga oshishini boshi berk ko'chaga kirib, vazifani, vaziyatni hal qilib bo'lmaydigan deb tushunish, shaxsiy stereotiplarni (harakat namunalarini) tasdiqlash va ularni obro'sizlantirish, shaxsiy stereotiplarni, muammoli nizoli vaziyatni va unda o'zini yangidan ko'rib chiqish kabi bosqichlarga ajratadi[8,98].

Qayta ko'rib chiqish jarayoni quyidagilar bilan ifodalanadi: subyektning o'ziga, o'zining "men"iga munosabatini o'zgartirishda va tegishli harakatlar shaklida amalga oshiriladi;

subyektning o‘z bilimiga, malakasiga munosabatini o‘zgartirishda. Bunda nizoli kechinma bostirilmaydi, balki holat yanada og‘irlashib, muammoni hal qilishga erishish uchun “men” resurslarini safarbar qilishga olib keladi.

Psixologik nuqtai nazardan kasbiy refleksiya noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan vaziyatlarda o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egaligini anglatadi. Kasbiy refleksiya mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kasbiy refleksiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi.

Prokuratura tizimi xodimlarida kasbiy refleksiya shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganish masalasi ijtimoiy psixologiya sohasining oldidagi eng dolzarb masalalardan biri sanaladi. Tadqiqot jarayonida prokuratura tizimi xodimlarida kasbiy refleksiya faoliyatini rivojlantirish darajasining psixologik jihati bilan bir qatorda, ularning kasbiy, ijtimoiy va psixologik xususiyatlari ham e’tiborga olingan. Tadqiqotimizda prokuratura tizimi xodimlarida kasbiy refleksiyaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganish uchun Solomin tomonidan ishlab chiqilgan “Kasbiy moyillik xususiyatlari”, Kaganning “Kognitiv refleksiv-impulsiv” so‘rovnomasi, Milman tomonidan ishlab chiqilgan “Shaxs motivasion tuzilmasi diagnostikasi” va D.A.Leont’ev va Ye.N.Osinning “Refleksiyaning differensial tipik” kabi so‘rovnomalaridan foydalanilgan. Bular o‘rtasida parametrik va noparametrik mezonlar hamda korrelyatsion aloqadorlik jihatlari ham aniqlangan.

Quyidagi jadvalda prokuratura tizimi xodimlarida kasbiy faoliyat olib boruvchi xodimlarning kasbiy moyillik darajasi xususiyatlarining parametrik mezon bo‘yicha ko‘rsatkichlari keltirilgan.

Kasbiy moyillik darajasini baholashning besh omilli so‘rovnomasi natijalari (Styudentning t-mezoni bo‘yicha)

Shkalalar	guruhlar	M	Standart og‘ish	t-statistika
Odamlar bilan ishlashga moyillik	Tergov bo‘limi	8	3,2	4,442**
	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi	5	2,5	
Kashfiyotchilik kasblariga moyillik	Tergov bo‘limi	4	1,8	5,631*
	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi	2	0,3	
Amaliy turdagi ishlarga moyillik	Tergov bo‘limi	5	3,2	4,428**
	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi	2	2,1	
Ekstremal turdagi ishlarga moyillik	Tergov bo‘limi	8	3,6	3,746**
	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi	4	2,8	
Iqtisodiy turdagi ishlarga moyillik	Tergov bo‘limi	4	0,8	8,623
	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi	3	0,2	

Izoh: * – $p \le 0,05$; ** – $p \le 0,01$; *** – $p \le 0,001$.

Prokuratura tizimi xodimlarida kasbiy moyillik darajasini o‘rganishga doir so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, birinchi shkala bo‘yicha ya’ni odamlar bilan ishlashga moyillik M (8-5), standart og‘ish esa, (3,2-2,5) farqlar bilan o‘zaro tafovutlangan. Ya’ni boshqaruv, o‘qitish, tarbiyalash, xizmat ko‘rsatish (maishiy, tibbiy, axborot tahlil) kasblarga moyillik asosiy jihatlarni tashkil etadi. Bu guruhga doir insonlar odamlar bilan til topisha olishlik, muloqotchanligi, ularni kayfiyatini tushuna olishi kabi bilimlarga egadirlar.

Keyingi shkala kashfiyotchilik kasblariga moyillik bo‘yicha M (4-2), standart og‘ish esa, (1,8-0,3) natijani namoyon qilgan. Shu bilan birgalikda ularning o‘rtasidagi o‘zaro tafovutli farq ham sezilarli darajada namoyon bo‘lmagan. Bunday shaxslar ma’lum vaziyatni ma’lum darajada o‘zgartirish, biron nimaga barham berish, biron nima qilish, biron nima ko‘rish va shu kabi maqsadni o‘z oldiga qo‘ya oladi.

Amaliy turdagi ishlarga moyillik shkalasi bo‘yicha har ikki guruh sinaluvchilarining natijalari M (5-2), standart og‘ish esa, (3,2-2,1) darajalar bilan o‘rtacha farqni tashkil etgan. O‘tacha tafovutlar ham ahamiyatli ekanligi aniqlangan.

Keyingi shkala ekstremal turdagi ishlarga moyillik bo‘yicha sinaluvchilarning ko‘rsatkichlari M (8-4), standart og‘ish esa, (3,6-2,8) farqlar bilan o‘rtachadan yuqori darajani namoyon etgan. Shuning uchun odamning irodaviy zo‘r berishi va ixtiyoriy harakatlari tashqi to‘sqinliklarni yengishga qaratilishi bilan bir vaqtda organizmning ichki ahvolini ham o‘zgartiradi. Bundan tashqari ular o‘rtasidagi farq ham ahamiyatli natijani namoyon qilgan. Bu kasbga sport, sayohat, ekspeditorlik, qo‘riqlash, tezkor qidiruv faoliyati, harbiy xizmat bilan aloqador kasblar kiradi.

Iqtisodiy turdagi kasblarga moyillik shkalasiga ko‘ra, sirnaluvchilarning natijalari M (4-3), standart og‘ish esa, (0,8-0,2) farqlar bilan o‘rtacha natijani aks ettirgan. Shuningdek bu kasbiy faoliyat turiga ko‘ra, asosan inson-texnika sohasida kasbiy faoliyat olib boradigan kasb egalari mansub bo‘ladi. Ularning o‘rtasidagi farq ham sezilarli farqlarni tashkil etmaganligi aniqlandi.

Yuqoridagi keltirilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, prokuratura xodimlarining berilgan so‘rovnomaga nisbatan mulohazalari hozirgi davr uchun eng muhim sanalgan kasbiy refleksiya shakllanish faoliyati bilan bog‘liq jarayonlarni o‘rganishda ularning bu mulohazalarga bergan javoblari shuni namoyon qildiki, kasbiy refleksiyani rivojlantirishga xos sifatlarni inobatga olishi va buning natijasida kasbiy faoliyatda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni oldini olishda asosiy mezonlardan biri sanalishi muhim ahamiyat kasb etishi nomyon bo‘ldi.

Tadqiqot davomida, prokuratura tizimi xodimlarining shaxs xususiyatlari va kasbiy refleksiya xususiyatlarining o‘zaro bog‘liqlik xususiyatlari korrelyatsion koeffisient jihatlari quyidagicha tahlil qilindi.

Kasbiy moyillik va kasbiy refleksiya sifatlarining o‘zaro aloqadorlik darajasi (K.Pirsonning r-korrelyatsiya koeffisienti bo‘yicha)

Shkalalar	Kognitiv refleksiv	Kognitiv impulsiv	Tizimli refleksiya	Introspeksiya	Kvazi-refleksiya
Odamlar bilan ishlashga moyillik	0,282	0,666**	0,594**	0,228	0,456*
Kashfiyotchilik kasblariga moyillik	0,467*	0,442*	0,115	0,463*	0,492*
Amaliy turdagi ishlarga moyillik	0,482*	0,580**	0,436*	0,240	0,581**

Ekstremal turdagi ishlarga moyillik	0,163	0,560**	0,573**	0,223	0,479*
Iqtisodiy turdagi ishlarga moyillik	0,488*	0,568**	0,140	0,146	0,639**

Izoh: * – $p \leq 0,05$; ** – $p \leq 0,01$; *** – $p \leq 0,001$.

Yuqoridagi natijalarga ko‘ra, odamlar bilan ishlashga moyillik shkalasi bilan kognitiv impulsiv, tizimli refleksiya va kvazirefleksiya shkalalari, kashfiyotchilik kasblariga moyillik shkalasi kognitiv refleksiv, kognitiv impulsiv, introspeksiya va kvazirefleksiya shkalalari, amaliy turdagi ishlarga moyillik shkalasi bilan kognitiv refleksiv, kognitiv impulsiv, tizimli refleksiya va kvazirefleksiya shkalalari, ekstremal turdagi ishlarga moyillik shkalasi bilan, kognitiv impulsiv, tizimli refleksiya va kvazirefleksiya shkalalari, iqtisodiy turdagi ishlarga moyillik shkalasi bilan, kognitiv refleksiv, kognitiv impulsiv va kvazirefleksiya shkalalari korrelyatsion bog‘lanishda ekani aniqlandi.

Inson kamolotining shaxs davri yetukligining muayyan bosqichi hisoblanib, ijtimoiy hayotda alohida ahamiyat kasb etadi va o‘zining ko‘rsatkichi bilan muhim rol o‘ynaydi. Shaxsning ma’lumot darajasiga qaramay, yuksak ko‘rsatkichlarga erishuvi uning kamolotidan darak beradi. O‘z sohasida kasbiy, iqtisodiy mahoratini namoyish etish yetuklikning yuksak darajasini bildiradi va jamoatchilik fikrida iliq iz qoldiradi. Tashabbuskorlik takliflari, ixtirolari sohadagi muvaffaqiyatni ifodalab berib, betakror shaxs ekanligini isbotlashga xizmat qiladi. Noyob kasb egasi, fenomenal qobiliyatli, iste’dodli yetuk shaxs shakllanganligi ijtimoiy-tarixiy voqelik sifatida yuksak baholanadi.

Yuqoridagi keltirilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, prokuratura tizimi xodimlarining berilgan so‘rovnomalarga nisbatan mulohazalari korrelyatsion koeffisient bo‘yicha shkalalarning ahamiyatli ravishda bog‘langanligi, ularning kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etishini prognoz qilishimiz mumkin.

Adabiyotlar

1. Карпов А.В. Психология рефлексивних механизмов деятелности. – М.: Институт психологии РАН, 2004. С. 424.

2. Муканов М.М. Исследование когнитивной эмпатии и рефлексии упредставителей традиционной культури // Исследование рече-мисли и рефлексии. Алма-Ата, 1979. С. 54-79.

3. Лобанова Ю.И. Исследование влияния рефлексивного механизма науспешност профессионалной подготовки современного специалиста: Авто-реф. ... канд. психол. наук. СПб., 1998. С. 45.

4. Тутушкина М.К. Практическая психология. Учебник . Санкт-Петербург. 2001. С. 67..

5. Семенов И.Н., Степанов С.Ю. Психолого-акмеологические основы изучения и развития рефлексивной культури госслужащих. М.РАГС. 1998. С. 146.

O‘SMIR EMOTSIONAL HISLARI O‘Z-O‘ZIGA MUNOSABATINI TAKOMILLASHTIRISHDA TUTGAN O‘RNI

Orziqulova Charos Raxmatovna,
Farg‘ona davlat universiteti Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi, Xalq ta’limi a’lochisi

Annotatsiya. *O‘smirlik davrida o‘z-o‘ziga munosabatning ijtimoiy psixologik xususiyatlari va bu davrdagi oliy insoniy hislar hamda ular bilan emotsiyaning uzviy bog‘liqligini izohlashga xarakat qilingan. Izohlash jarayoni tashkil etilgan dastlabki tadqiqotlar natijasiga asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *etnopsixologik, emotsional, simpatiya, yozilmagan qonuniyatlar, bag‘rikenglik, do‘stlik, sevgi, fizioanatomiya, shaxs, munosabat, ishonch, sadoqat.*

Аннотация. *Предпринята попытка объяснить социально-психологические особенности самоотношения в подростковом возрасте и неразрывную связь между высокими чувствами и эмоциями человека в этот период. Процесс интерпретации основан на результатах предварительных исследований, организованных.*

Ключевые слова: *этнопсихологический, эмоциональный, симпатия, неписаные законы, физиоанатомия, личность, отношение, доверие, лояльность.*

Abstract. *An attempt has been made to explain the socio-psychological characteristics of self-attitude in adolescence and the inextricable connection between high feelings and human emotions during this period. The interpretation process is based on the results of preliminary studies organized by.*

Key words: *ethnopsychological, emotional, sympathy, unwritten laws, physioanatomy, personality, attitude, trust, loyalty.*

Yangilanayotgan O‘zbekistonning yosh avlodini barkamol shaxs bo‘lib yetishishlari uchun etnopsixologik tarbiya birinchi o‘rinda tursa, umumbashariy odob axloq unga hamohang holda zamonamizga mos bo‘lgan shaxsni dunyoqarashini shakllantirishga asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazaran olib qaraydigan bo‘lsak davlatimizda yoshlarni ma’naviy va axloqiy jihatdan barkamol bo‘lishlari uchun har tomonlama keng imkoniyatlar yaratib bermoqda. Misol uchun mahalla fuqarolar kengashidan tortib oliy ta’lim tizimlarigacha yoshlar bilan ishlash bo‘limlari alohida mustaqil ravishda o‘z faoliyatini olib bormoqda. Bundan tashqari, yosh avlodni ertangi kunini belgilab beruvchi yoshlar xususiyatlarni o‘rgarishga qaratilgan fanlarning tarmoqlariga ham alohida imtiyozlar yaratilib, yoshlar bilan olib boriladigan har qanday ma’niviy dunyoqarashni rivojlanishiga hissa qo‘shadigan fanlar uchun alohida urg‘u berilayotganligi mamlakatimizning ertangi kunga qo‘yayotgan poydevor hisoblanadi. Yuqoridagi fanlar qatoriga umumiypsixologiya tarmoqlaridan “Rivojlanish psixologiyasi”, “Yosh davrlar psixologiyasi”, “Ontogenez psixologiyasi”, “Diferentsial psixologiya”, “Kasbiy psixologiya” kabi bir nechta yo‘nalishlar mavjud. Ularda yoshlarning, nafaqat, rivojlanishi, balki har bir bilish jarayonlarini, o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlarini, ijtimoiy psixologik xususiyatlarini hamda faoliyat va qobiliyatlarini o‘rganishga alohida to‘xtalib o‘tiladi. Quyida shaxs ontogenezining eng murakkab davri hisoblanmish, o‘smirlik davrini takomillashuvida emotsional hislarni ta’siri xaqida to‘xtalib o‘tishni maqsad qilib qo‘ydik.


Professor M.G.Davletshin tariflari bilan aytilganda o‘smirlikning eng noyob xususiyati bag‘rikenglik bo‘lib, u barcha insoniy hislarga yo‘l ochib beradi. Ayni ana shu jarayonga nisbatan professor E.G‘.G‘oziev “O‘smirlik davrining serhosil bo‘lishi bag‘rikengligining qay darajada rivojlanganligiga bog‘liq. O‘smir yaqinlariga nisbatan qanchalik ijobiy munosabatda bo‘lsa, jamiyatga nisbatan ham shunday bo‘ladi”. O‘zbek psixologiya fanining asoschilarini fikrini inobatga oladigan bo‘lsak, darhaqiqat, insoniy hislarni olamiga kirishi uchun

bag‘rikenglik eshigidan o‘tish lozim bo‘ladi. Shu sababli, bag‘rikenglik barcha insoniy hislarni poydevori bo‘lib, o‘smirning dunyoqarashi va emotsional holatlarini boshqara olishi, aynan shu ijtimoiy psixologik xususiyatga bog‘liqdir. Bag‘rikenglik ijtimoiy muhitning mahsuli bo‘lib, unda avvalombor, o‘smirning o‘ziga nisbatan va qurshab turgan muhitga nisbatan munosabati namoyon bo‘ladi. O‘smirning psixik jarayonlaridan idrok, xotira, tafakkur va xayoli atrof muhitdagi narsa va hodisalarning aks ettirishga yo‘nalgan bo‘lsa, ushbu aks ettirish bevosita bag‘rikenglikka bog‘liq hisoblanadi. Shuningdek ongli faoliyatni maqsadli yo‘naltirishga qaratilgan diqatning turlari ham alohida ahamiyatga egadir. Demak, mazkur holat bilish jarayonlarining takomillashuviga ham, boyishiga ham o‘z hissasini qo‘shadi. Bundan tashqari, o‘smirning xulqi va xarakteri hamda milliy o‘zligi asosi ham bag‘rikenglikka asoslanadi. Shu sabali ham, bag‘rikenglikni qay darajada rivojlanganligiga qarab o‘smir ruhiyatiga baho berish mumkin sanaladi. Shaxs psixologiyasida faoliyatning yo‘nalganligi va ongliligi bag‘rikenglikning bir bo‘lagi sifatida tahlil etilishi bejiz emas. O‘smirdagi bag‘rikenglikni takomillashtirish uchun o‘smirning nutqi va muloqatmandligiga alohida urg‘u berish lozim bo‘ladi. Aynan yuqorida biz sanab o‘tgan shaxslilikning to‘laqonlik shakllanishiga katta avlod turtki vazifasini o‘taydi. O‘smirdagi taqlidchanlik, o‘rnak olish va faoliyatlari bo‘yicha xulosa chiqarish aynan bag‘rikenglikni mahsuli sifatida qaraladi. O‘smirlikdagi bag‘rikenglik ijtimoiy jamiyatda uning mavqeyini belgilash bilan bir qatorda o‘z tengdoshlari tomonidan tan olinishi uchun ham xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan yondashadigan bo‘lsak bag‘rikeng o‘smirlarning tengdosh va o‘zidan katta yoshdagi do‘stlari ko‘p bo‘lishi tabiiy hol hisoblanadi.

Do‘stlik o‘smirlik davridagi eng noyob xususiyatlardan bo‘lib, uning yordamida o‘smir o‘ziga mos bo‘lgan ruhiy kechinmalari mutanosib bo‘lgan hamfikr shaxs bilan o‘z kelajagini bog‘lab, doimiy sirdoshga ega bo‘ladi. Umuman, psixologiyada do‘stlik tushunchasi keng ma’noni anglatib, shaxs har qanday vaziyatlarda ham ruhiy hamda jismoniy suyanishi mumkin bo‘lgan shaxs bilan uzviy bog‘langanligi tushuniladi. Mazkur bog‘langanlik burch, ma’suliyat, mas’ullik va muloqot kabi yuqori insoniy hislarni takomillashuviga asos bo‘la oladi. Demak do‘stlik hissini bir necha o‘nlab hislar asosida o‘z emotsional holatlarini ongli faoliyat asosida yo‘naltirishga sabab bo‘luvchi omil sifatida ham qarash mumkin bo‘ladi.

Jahon psixologiyasi fanida asosan ikki xil do‘stlik e’tirof etiladi. Birinchisi bir jinslilar o‘rtasidagi do‘stlik, ikkinchisi esa turli jins vakillarining o‘rtasidagi do‘stlik. Shuni takidlash joizki xorij mamlakatlari psixologlari tomonidan aksar hollarda turli jins o‘rtasidagi do‘stlik inkor etib kelinadi. U o‘rtoqlik munosabati sifatida etirof etilsa ham. O‘rtoqlik hissi tanish notanish kimsalar uchun ham qo‘llanilsada, do‘stlik sanoqli shaxslarga nisbatan namoyon bo‘lishini takidlab o‘tish lozim.

Demak, psixologik lug‘at: “do‘stlik – shaxslarning ruhiy o‘zaro munosabatlarning bog‘lanish jarayonida ruhiy qo‘llab quvvatlash kuchayishi bilan tavsiflangan barqaror, individual tanlangan shaxslararo munosabatlar turidir.” Mazkur holat quyidagi tizmada aks etgan.



Do‘stlikning rivojlanishi “yozilmagan qonuniyatlar"ga rioya qilishni o‘z ichiga oladi, bu o‘zaro tushunish, o‘zaro ochiqlik, ishonch, faol o‘zaro yordam, boshqa birovning ishlari va tajribasiga o‘zaro qiziqish, his-tuyg‘ularning samimiyligi va befarqligi zarurligini tasdiqlaydi. "Yozilmagan qonuniyatlar"ning do‘stlar tomonidan jiddiy buzilishi do‘stlikning to‘xtatilishiga yoki yuzaki do‘stona munosabatlarga, hatto do‘stlik hissining adovatga aylanishiga olib keladi.

Do‘stlik hissining rivojlanishi va takomillashuvi umumiy maqsadlar, manfaatlar, ideallar, hamkorlik faoliyatga bog‘liq. Do‘stlik qadr qiymatiga yo‘naltirilgan maqsad unda namoyon bo‘lishi kerak. “Do‘stlik” tushunchasi umumiy semantik mazmunni saqlab qolgan holda butunlay boshqacha tarzda idrok qilinadi. Boshqacha qilib aytganda, bola ham, o‘smir ham, kattalar ham do‘stlik do‘stona munosabatlardan ko‘ra muhimroq ekanligini va u oddiy tanish bilan bir xil emasligini aniq tushunadi. Shu nuqtayi nazardan yondashadigan bo‘lsak, do‘stlik shaxsni ruhiy ehtiyojidan kelib chiqqan holda o‘ziga kerakli energiyani olish uchun manbaa sifatida zarurligini psixologiyada bot-bot takrorlab turiladi.

Do‘stlik asosida shaxs o‘z emotsional holatlarini yashirin qirralarini kimnidir oldida ochish imkoniyati yuzaga kelishi lozim. O‘z menligini namoyon qilishi qatorida o‘zga shaxsni holatida o‘zini o‘zi aks ettira olishi uni idrok qilishini tushunishi va tafakkuri yordamida umumlashtirib izohlashga ko‘maklashishi lozim bo‘lgan munosabat hisoblanadi. Do‘stlik hissini shakllanishida mutanosiblik o‘zaro hurmat, o‘zaro tushunish, o‘zaro qo‘llab quvvatlash kabi xususiyatlar dominanta bo‘lishi bilan bir qatorda do‘stni ham ruhan ham jismonan yoqtirish lozim bo‘ladi. Do‘stlik hissi uzoq muddat shaxsni o‘z tasirida saqlab, uni muntazam ravishda sinovlardan o‘tkazib turadi. Bunda do‘stga nisbatan xatti-harakati, xulq atvori zamirida bir birini etirof etish va yoqtirish yotadi.

Psixologiyada yoqtirish tushunchasi bir shaxs tomonidan ikkinchi bir shaxsga nisbatan har tomonlama mos kelishi bilan bir qatorda faqat unigina tushuna oladigan shaxsga nisbatan ongli munosabat tushuniladi. Mazkur ongli munosabat o‘z navbatida yoqtirish darajasini ortirib boradi. Shaxs yoqtirgan shaxsi yonida o‘zini erkin tutadi. Shu bilan bir qatorda, munosabatlar nutq va xatti-harakatlar orqali amalga oshiriladi. Bir birini tushunish, bir birini anglash, bir biriga intilish, bir birini tan olish kabi holatlar asosida yoqtirish yuzaga kelar ekan, bu yoqtirish o‘z navbatida yangi tug‘ilgan chaqaloqni ilk kunlaridan boshlab bola xatti-harakatida kuzatilishi mumkin. Ko‘pgina rivojlangan mamlakat psixologlari mazkur holatni ongsizlik holati, anglanmagan holat va ixtiyorsiz holat sifatida talqin etishadi. Masalan, Z.Freyd “Yoqtirish hayvonot olamiga ham insoniyat olamiga ham tegishli jarayon bo‘lib, u turli emotsional holatlarni asosi hisoblanadi. Shuning uchun, shaxs umuminsoniyatni ikki toifaga bo‘lgan holda idrok qiladi. Bular: yoqimli bo‘lgan insonlar va yoqimsiz insonlar”.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, bunda shaxsning fizioanatomiyasi va ijtimoiy muhitdagi mavqeyi ahamiyatga ega emas. Aksincha, shaxsga nisbatan amalga oshirilgan xatti-harakatlar asosida bosh miyada shakllangan psixologik portret asosiy o‘ringa chiqadi. Ana shu psixologik portret orqali insonlar o‘tmishdagi faoliyatiga nisbatan yoqimli va yoqimsiz shaxslarga ajratiladi. Aynan shu holatni yuqori darajada rivojlangan jonivorlarda ham kuzatishimiz mumkin. Yoqtirish xususiyati asosida shaxs munosabati ijobiy yoki salbiy emotsiyalarni qo‘zg‘ashi tabiiy hol hisoblanadi. Shaxs tarifidan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, shaxsiylikni o‘ziga xos xususiyatlaridan biri ijtimoiy jamiyatda yoqimli va yoqimsiz bo‘lish asosida hamdardlik yuzaga keladi. Hamdardlik shaxsning ruhiy holatlariga nisbatan aziyat chekayotganligi yoki yutuqlaridan quvonayotganligini namoyish qilish orqali namoyon bo‘ldi. Bu holat fizioanotomik o‘zgarishlar orqali namoyon etiladi. Kuchli yoki sadoqatli hamdardlik nutq orqali ongli ravishda o‘z ichki hissiyotlarini namoyon qila olish hisoblanadi, aksari o‘smirlarda mazkur holatni namoyon qilishi qiyin kechadi. Demak, o‘smirlardagi ana shu hamdardlikni bayon qilolmaslik asosida o‘ziga hamdard, ruhiy madad beruvchi do‘stni topish qiyin bo‘ladi va ularda emotsional zo‘riqishlar yuzaga kelishi bilan bir qatorda o‘zlarini keraksizdek his qilishlari tabiiy holat hisoblanadi. Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqib biz tadqiqotimiz davomida L.Gozman va Yu.Aleshinaning “Sevgi va yoqtirish mayli shkalasi” so‘rovnomalari hamda “Do‘st topish osonmi?” so‘rovnomalaridan foydalandik. Unga ko‘ra:

1-jadval


Mann-Uitni U-mezoni bo‘yicha natijalari, худудий тахлили (n=300)

Shkalalar	Hudud	Sina-luvchi-lar soni	Ranglar o‘rtachasi	U (Mann-Uitni qiymati)	P (ishonch dara-jasi)
Bag‘rikenglik	Shahar	142	145,82	11109,500	0,908 p>0,05
	Qishloq	158	146,38		
Do‘st topish осонми so‘rovnomasi	Shahar	142	150,77	11179,500	0,958 p>0,05
	Qishloq	158	150,26		
Sevgi mayli	Shahar	142	151,27	11108,500	0,883 p>0,05
	Qishloq	158	149,81		
Yoqtirish mayli	Shahar	142	153,31	10819,500	0,593 p>0,05
	Qishloq	158	147,98		

*p<0,05; **p<0,01; ***p<0,001; p>0,05;

1-jadvalda “Do‘st topish osonmi?” hamda “Sevgi va yoqtirish mayli shkalasi” so‘rovnomalari shahar va qishloq sinaluvchilari o‘rtasida taqqoslandi. Ushbu jadvalda shahar va qishloqda yashab kelayotgan o‘smirda bag‘rikenglik, do‘st topish, sevgi hislari, bir-birini yoqtirish yani o‘zga jinsga munosabat tuyg‘ularining namoyon bo‘lishida deyarli ahamiyatli farq aniqlanmadi. Bunga sabab o‘smirlardagi yuqori insoniy hislar shakllanishida hamda takomillashuvida tashqi muhitning ta’siri nihoyatda kattaligini aniqlab oldik. Ulardagi har bir oliy insoniy hislar namoyon bo‘lishi jamiyat tomonidan yoshlarni xulq atvorini nazorat qilishni o‘ziga xosligini ko‘rishimiz mumkin.

1-rasm.



U Mann-Uitni qiymati va p ishonch darajasi natijalari

Yuqoridagi diagrammadan ko‘rinib turibdiki, ushbu natijalar tahlili bo‘yicha ham deyarli katta farq aniqlanmadi. Biroq sevgi mayli shkalasi bo‘yicha shahar sinaluvchilari qishloq sinaluvchilaridan biroz ustunligini ko‘rishimiz mumkin. Ammo Mann-Uitni qiymati bo‘yicha shahar va qishloq respondentlari o‘rtasida ahamiyatli farq r=0,883; r>0,05 aniqlanmadi. Bunga sabab ularning yashab turgan hududlarining yaqinligi, yashash muhitlarning o‘xshashligi, ba’zi oilalarning qarindoshligi, yoshlarining bajarayotgan mashg‘ulotlarining o‘xsash bo‘lishi mumkinligini aniqlab oldik. Biroq, bu yoshda o‘g‘il-qizlarining ham psixologik ham fiziologik jarayonlarni bir xilda kechishi tabiiy hodisa hisoblanadi. Ko‘p yoshlarda mazkur holatni teskari jarayoni yuzaga kelgani uchun ularda ma’lum bir yoqimli shaxslarga nisbatan oliy insoniy hislardan biri bo‘lmish sevgi yuzaga keladi. Ushbu xususiyat aksari holatlarda qarama-qarshi jinsli o‘smirlar o‘rtasida yuzaga keladi.

O‘smir yoshida sevib qolish juda kata o‘zgarishlarga olib kelib, hattoki xarakterdagi ba’zi unsurlar yo‘qolib o‘zini sevgan odami oldida namoyon qilishga o‘zligini namoyon etishga moyilligi ortib ketadi. Aynan shu holat, do‘stlikdan yuqori turuvchi his ekanligini ko‘p o‘smirlarda sevgi hissini o‘rgangan psixologlar takidlab o‘tishgan.

O‘smir yoshida sevib qolish yoki ishtiyoq aksari hollarda kattalarga (romantik qahramonlarga nisbatan) taqlid qilish asosida anglanmagan sevgi yuzaga kelib, unda qarama qarshi jinsga nisbatan qiziqish ortib boradi. U moyil bo‘lgan shaxs ham uni tan olishini xohlaydi.

O‘smir sevgisini tan oldirish uchun amalga oshiradigan faoliyat yoki taqdirning sovg‘asi emas, balki insondan o‘z-o‘zini rivojlantirish, ijodkorlik va ichki erkinlikni talab qiladigan yuksak san’atdir. Demak sevgi ta’siri ostida ulkan ma’suliyat yotishini anglash lozim bo‘ladi. Buning uchun esa o‘smirda yuzaga kelayotgan o‘zgarishlarni ota ona va pedagoglar o‘smir holatini anglagan holda o‘smirga sevgining qanday muqaddas jarayon ekanligini tushuntirishlari lozim bo‘ladi.

Adabiyotlar.

1. E.G‘.G‘oziev “Ontogenez psixologiyasi” Noshir T - 2019
2. M.G.Davletshin va boshqalar "Yosh davrlar va va pedagogik psixologiya" T.TDPU. 2009.
3. E.G‘.G‘oziev. Umumiy psixologiya. T. 2010 y. O‘z FMJ nashiryoti.
4. Orzukulova, C. R. (2022). High human feelings in early adolescence impact on career choice. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 9, 274-277.

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA YOSHLARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MODELI

Abdullayev Amrullo Nassulloyevich,
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti dotsenti

Annotatsiya. *Harbiy ta'lim muassasalari talabalarining jismoniy tayyorgarlik jarayonlari davomida, tezkorli, chidamkorlik va kuch jismoniy sifat darajalarini rivojlantirish masalasi hali ham ko'plab professor-o'qituvchi va sport mutaxassislarining e'tiborini tortib kelmoqda. Hozirgi vaqtda ko'plab tadqiqotchilarning qiziqishi turli yoshdagilarda jismoniy sifatlarini tarbiyalash masalasiga qaratilgan va bu qobilyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv-mashg'ulot jarayonlari ratsional texnikani o'zlashtirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga hamda shug'ullanuvchilarda imkon qadar , tezkorli, chidamkorlik va kuch jismoniy sifat darajalarini yuqori darajada rivojlantirishga yordam beradi. Mazkur maqolamiz mana shu muammlarning yechimiga bag'ishlangan bo'lib, maqolada harbiy ta'lim muassasalari talabalarining , tezkorli, chidamkorlik va kuch jismoniy sifat ko'rsatkichlarining rivojlanganlik darajalari tadqiq etilgan.*

Kalit so'zlar: *Vatan, 100 va 400 metr masofaga yuqori startdan yugurish, 1 kilometrga yugurish va Kuperning 12 daqiqalik yugurish testi, bukib yozish (Kuper) testi, tezkorli, chidamkorlik va kuch jismoniy sifatlari, harbiy ta'lim muassasalari.*

Аннотация: *в процессе физической подготовки курсантов военно-учебных заведений вопрос развития уровней физических качеств скорости, выносливости и силы до сих пор привлекает внимание многих преподавателей и специалистов в области спорта. В настоящее время интерес многих исследователей сосредоточен на проблеме воспитания физических качеств в разном возрасте, а тренировочные процессы, направленные на развитие этих способностей, способствуют созданию благоприятных условий для снижения рациональной техники и развитию высоких показателей физических качеств, быстроты, выносливость и сила в участниках как можно больше. Решению этих задач посвящена данная статья, и в статье исследуются уровни развития показателей физического качества скорости, выносливости и силы курсантов военно-учебных заведений.*

Ключевые слова: *Родина, бег на 100 и 400 метров в высоту, бег на 1 км и беговая проба Купера на 12 минут, скоропись (проба Купера), физические качества скорости, выносливости и силы, военно-учебные заведения.*

Abstract. *in the process of physical training of cadets of military educational institutions, the issue of developing the levels of physical qualities of speed, endurance and strength still attracts the attention of many teachers and specialists in the field of sports. Currently, the interest of many researchers is focused on the problem of education of physical qualities at different ages, and training processes aimed at the development of these abilities contribute to the creation of favorable conditions for the reduction of rational technique and the development of high indicators of physical qualities, speed, endurance and strength in participants as much as possible. This article is devoted to solving these problems, and the article ehamines the levels of development of indicators of physical quality of speed, endurance and strength of cadets of military educational institutions.*

Keywords: *Motherland, running 100 and 400 meters in height, running 1 km and running Cooper test for 12 minutes, cursive (Cooper test), physical qualities of speed, endurance and strength, military educational institutions.*

Yoshlarda mafkuraviy immunitet, milliy iftixor, o‘zlikni anglash, vatanparvarlik tuyg‘ularining shakllanganligi va rivojlanganligini aniqlash uchun ta’lim-tarbiyani quyidagi tizim asosida tashkil etish samarali natijalarni beradi:

-*birinchidan,* teskari aloqani o‘rnatish - ko‘zlangan o‘quv-tarbiyaviy maqsadlarga erishish shakllari va yo‘llarini tahlil qilish;

-*ikkinchidan,* maqsad va vazifalarni belgilash - jamoaning taraqqiy qilish istiqbollarini, istiqboliy rejalarini aniqlash;

-*uchinchidan,* taqsimot yo‘nalishi-jamoa a’zolari o‘rtasida burch va vazifalarni taqsimlash;

-*to‘rtinchidan,* yaratuvchanlik yo‘nalishi - kattalarning yoshlar bilan muloqot qilishining sog‘lom muhitini tarkib toptirish;

-*beshinchidan,* pedagogik tajribani o‘rganish va umumlashtirish;

-*oltinchidan,* -motivatsiya va rag‘batlantirish yo‘nalishi–talaba-yoshlarning hamda murabbiy-o‘qituvchilarning ta’lim olish va ta’lim berish faoliyatini rag‘batlantirishni, tashqi stimullarni adekvat qabul qilishni nazarda tutadi. Tarbiyaviy jarayonda komillikka intilishni kuchaytiradi;

-*yettinchidan,* nazorat yo‘nalishi-ta’limiy-tarbiyaviy jarayonda turli xil nazorat turlarini o‘tkazishni nazarda tutadi, ma’naviy-ma’rifiy jarayon holati to‘g‘risidagi axborotga ega bo‘lishni bildiradi. Oliy ta’lim muassasalari yoshlarining vatanparvarlik ruhda shakllantiruvchi mezonlarga tayaniladi.

Yoshlarni vatanparvarlik ruxda shakllantiruvchi mezonlar

O‘zbekistonning har tomonlama rivojlanishi va amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati aholining, ayniqsa, yosh avlodning bilimi, tarbiyasi, vatanparvarligida namoyon bo‘ladi, ularning ma’naviy qiyofasini belgilaydi.

Shu asnoda yoshlar jamoasida vatanparvarlikni shakllantirish ishlari metodik jihatdan to‘g‘ri yo‘naltirilganda jamiyatning har bir a’zosi ongiga milliy istiqlol g‘oyalarini singdirish, mafkuraviy immunitetni hosil qilish, ularning o‘zligini anglashlari, vatanparvarlik va fidoiylik tuyg‘ularini, millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik, tolerantlikni shakllantirishda hamda komil insonga xos bo‘lgan fazilatlarni: sofdillik, to‘g‘riso‘zlik, adolatparvarlik, sahovatlilik, or-nomuslik, tantilik sifatlarini tarkib toptirishda ijobiy samaralarga erishish mumkin.

Mustaqil, ma’rifiy-madaniy, adolatli va insonparvar jamiyatda yosh avlodni har tomonlama yetuk, axloqli, odobli insonlar sifatida kamol toptirish, ularni o‘z Vataniga sadoqatli qilib tarbiyalashda ularda quyidagi xususiyatlarni shakllantirish lozim:

-ijobiy fazilatlar mohiyati va mazmunini to‘g‘ri tushunish hamda tahlil qilish, shaxsiy munosabatini bildira olish;

-jamoada yashash, mehnat qilish malakalarini egallash;

-barkamol inson siymosini idrok etish, uning ma’naviy qiyofasini shakllantirish metodlarini belgilash. Bu sifatlarni auditoriya va auditoriyadan tashkari ta’lim shakllarida amalga oshirish mumkin (1.1-расм)



1.1-rasm. Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruxda tarbiyalashda auditoriyadan tashkari tadbir turlari

Insonshunoslik fanida “inson-jamiyat”, “jamiyat-inson” shaklida o‘zaro ta’sirni taqozo etar ekan, birinchi va ikkinchisi ham to‘g‘ri, ham teskari aloqani o‘rnatishi joiz. Shu sababli, yoshlarning harbiy vatanparvarlik darajasining sifat ko‘rsatkichlarini o‘rganishda auditoriyadan tashqari tadbirlarda amalga oshirilgan tarbiyaviy ishlarning ahamiyati salmoqli.

Oliy ta’lim tizimida tahsil olayotgan yoshlarning vatanparvarlik tuyg‘ularini rivojlantirish uchun jamiyatning shaxsga qo‘yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulq-atvor malaka va odatlari hosil qilinadi. Bunga erishish kezida yoshlarning ongiga (ta’lim jarayonida), hissiyotiga (auditoriya va auditoriyadan tashqari ishlarda), irodasiga (faoliyatni uyushtirish, xulqni idora qilish jarayonida) tizimli va muntazam ta’sir etib boriladi.

Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda harbiy vatanparvarlik tarbiyasi bilan jismoniy tarbiya va sportning chambarchasligi.

Xalqimizning ma’naviy merosida axloq, inson ruhiyati, tarbiya masalalariga katta e’tibor qaratilganini tahlil qilsak, yoshlarda ma’naviy meros, uni o‘rganish jarayonida inson ma’naviyatini yuksaltirish mavzulariga e’tibor, qiziqishning katta ekanligini ko‘rish mumkin. Buni dastlabki o‘tkazilgan sinov savol - javoblari ham tasdiqlaydi. Ma’naviy merosni o‘rganish masalalariga yoshlarning befarq emasligi, yoshlarda ma’naviy madaniyatni tarbiyalash mavzusi ta’lim-tarbiya sohasida eng dolzarb ekanligini ko‘rsatadi. Birok, shuni ta’kidlash joizki, Yoshlarda vatanparvarlik darajasining sifat ko‘rsatkichlarini pedagogik tahlil qilish va baholash uchun yaxlit, tizimli metodika hanuzgacha ishlab chikilmagan.

Shu bois, bugungi kunda oliy ta’lim tizimida tahsil olayotgan talabalarga o‘qitilayotgan “Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi”, Amaliy jismoniy tayyorgarlik, «Milliy istiklol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari» hamda « O‘zbekiston tarixi», «O‘zbek tili va adabiyoti» kabi fanlarning, shuningdek, dars va darsdan tashqari o‘tkazilayotgan tarbiyaviy tadbirlarning mazmun - mohiyatini takomillashtirish talab etiladi.

Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhda tarbiyalash ko‘rsatkichlarini aniqlovchi metodlar ular faoliyatidagi analitik baholash me’yorlari sifatida qaralishi aniq. Ushbu metodlar sirasiga mustaqillik davri milliy istiqlol ma’naviyatini tiklash va rivojlantirish, milliy madaniyatni taraqqiy ettirish, milliy o‘z-o‘zini anglash, milliy his-tuyg‘ular, g‘ururni, vatanparvarlikni o‘stirish va mustahkamlash bilan bog‘liq tarbiyaviy metodlarni misol tariqasida keltirish mumkin. Mustaqil O‘zbekistonning taraqqiyoti jamiyat a’zolarining, har bir shaxs va ayniqsa, yoshlarning ma’naviy kamoloti, istiqlol g‘oyalarining kishilar ongiga, kundalik hayotiga chuqurroq singishiga bog‘liqdir. Mustaqil taraqqiyot yo‘lida milliy ong va milliy o‘z-o‘zini anglash ma’naviy kamolotning asosiy negizidir. Demak, talabalar faoliyati, ya’ni o‘qish va ijtimoiy mehnat qilishlari natijasida ular kelajagi buyuk O‘zbekistonning barpo etishda faol qatnashayotgan har bir fuqaro o‘z mamlakati, xalqi, millatining ajralmas bo‘lagi ekanligini anglashi – milliy ma’naviyat va ongning tarkibiy qismi ekanligini analitik his etishlari muqarrar.

Oliy ta’lim tizimida tahsil olayotgan talalabalarda O‘zbekistonning porloq kelajagiga dadil ishonch bilan qarashni mamlakatimizning har bir sohalarida dinamik yuksalish mavjudligini, xalqimizda yuksak insonparvarlik qadriyatlari tiklanayotganligi va takomillashayotganini ifodalovchi o‘ziga xos dunyoqarashni shakllantirish ularning analitik mushohada qilish qobiliyatiga borib taqaladi.

Yoshlarda analitik mushohada yuritishlari orqali ta’lim jarayonida vatanparvarlikni rivojlantirishga mo‘ljallangan o‘quv materiali, topshiriqlar tizimining pedagogik imkoniyatlari ularning aqliy operatsiyalar: analiz va sintez kabilarni idrok qilishlari va ijtimoiy hayotda amal qilishlari bilan uyg‘un holatda pedagogik ta’sir ko‘rsatish asosida amalga oshiriladi. Bu esa o‘z navbatida mustaqilligimizni qadrlay oladigan, o‘zligini, jamiyat, davlat va oila oldidagi mas’uliyatni anglaydigan yetuk shaxslarni shakllantirish kabi vazifalar bilan bog‘liq jarayon ekanligi ilmiy jihatdan asoslanilgan.

Yoshlarning vatanparvarlik ko‘rsatkichlarini aniqlovchi metodlar ular faoliyatini analitik baholash me’yorlari sifatida qaralar ekan, bu borada M.K. Shaxtaxtinskiyning fikriga murojaat etishga to‘g‘ri keladi: “Insonning tafakkur shakllari bo‘lgan tushuncha va hukmni xulosa chiqarishning tarkibiy qismlari sifatida tahlil qiladigan bo‘lsak, hukm – diayrezis-aqliy tashxisning natijasidir. Hukm biror narsaga nimaningdir taalluqli yoki taalluqli emasligi haqida bayon qilingan fikr bo‘lib, u chin yoki yolg‘on bo‘lishi mumkin. Har qanday gap ham hukm bo‘lmaydi. Faqat qat’iy fikrlargina hukm hisoblanadi”. Demak, talabalar faoliyatida jamiyatimiz taraqqiyotining muhim bosqichlarining ijtimoiy mohiyatini anglatmok, ya’ni vatanparvarlikning tarkib topishi, ilmiy - nazariy asoslarini o‘rgatmoq; milliy ma’naviyatimizning takomillashuvi bosqichlarida ishtirok etgan ota – bobolarimiz va zamondoshlarimizning dunyoga tatiydigan darajadagi ma’naviyati bilan yoshlarni yaqindan tanishtirmoq; ma’naviy barkamol inson siymosini tasvirlab berib unga erishish sirlaridan yoshlarni voqif qilmoq kabilardan tegishli xulosa chiqarmoq – bularning barchasi deduktiv, ya’ni sillogistik xulosa chiqarishning nazariy asoslarini ishlab chiqib, xulosa chiqarish isbotlash shakli,- deb qaralishi mumkin.

Jamiyatning rivojida taraqqiyot uchun foydali bilimlar, hikmatlar zarur. Foydali bilimlarni egallashdan maqsad, avvalo, o‘ziga so‘ng yaqin kishilariga va butun jamiyatga naf keltirishdir.

Muayyan bir foydali ishni kishi o‘z hayoti davomida ko‘p marta bajarishi, foydali ish natijasida uning ruhiga singib ma’naviyatiga aylanishini «hayot tarzi», «turmush tarzi» sifatida baholanishi mumkin. Har bir insonning yashash tarzi, ya’ni turmush tarzi turlicha bo‘ladi, bu faoliyat uning yashayotgan hududi, millati, uning egallagan bilimlari, mehnat faoliyati sohasi, e’tiqod qilayotgan diniga bog‘liq bo‘ladi.

“Ma’naviyatning asosini bilim tashkil qilar ekan, uning qismlarini diniy, tabiiy, texnikaviy, ijtimoiy-gumanitar, axloq – odob, fazoviy va boshqa bilimlar tashkil qiladi”-deydi o‘zbek olimasi S. Nishonova. Haqiqattan ham ma’rifatli bo‘lishga intilish, inson ma’naviy madaniyatining eng muhim mezonlaridan biridir. Ma’rifat, eng avvalo ma’naviy madaniyatning tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi, ma’rifat ma’naviyatni shakllantiradi. Shunday ekan, oliy ta’lim tizimida tahsil olayotgan Yoshlarda har bir o‘quv fani bo‘yicha olib borilgan ma’ruzalar, mashg‘ulotlar davomida umumnazariy tushunchalarga ega bo‘lish bilan bir paytda ma’naviyatning asosini bilim tashkil qilishini anglatish lozim bo‘ladi. Yoshlarda harbiy vatanparvarlik ko‘rsatkichlarini baholashda o‘ziga xos ma’naviy ehtiyoj sifatida, ular orasida bilimga bo‘lgan ehtiyoj yetakchi o‘rinni egallaydi.

Agar inson sog‘lom bo‘lsa, unda tinmay bilim olish ehtiyoji mavjud bo‘ladi. Islom dinining muqaddas kitobi bo‘lmish “Qur’oni Karim” va “Hadisi Sharif”larda bilim egallash – jamiyatga va o‘ziga foyda keltiruvchi shaxs bo‘lib yetishishda muhim omil - deb qayd qilingan. Bilimsizlik kishilarni nodonlikka, jaholatga, razolatga olib keladi, bilimsiz jamiyatda ana shunday salbiy tushunchalar hukmron bo‘ladi. Bilim, asosan, ta’lim - tarbiya orqali egallanadi. Bilimning insonga boshqa kishilar tomonidan berilish jarayoni ma’rifat deyiladi.

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimi tegishli davlat ta’lim standartlari doirasida oliy ta’lim berish, yoshlarning mutaxasisligi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini berish bilan birga yosh avlodni ma’naviy madaniyatli, yuksak axloqli va ma’rifatli qilib tarbiyalashda xalqning boy milliy madaniy-tarixiy an’analariga, urf –odatlari hamda umumbashariy qadriyatlariga asoslanadi. Yoshlarni tarbiyalash va ularni har tomonlama komil insonlar qilib voyaga yetkazish ta’lim muassasalari faoliyatida ustuvor maqsad va vazifa hisoblanadi. Umumiy hamda maxsus pedagogik jarayonda vatanparvar, ma’naviy madaniyatli shaxslarni tarbiyalash amalga oshiriladi hamda bu jarayon doimiy takomillashtirib boriladi.

Oliy ta’lim tizimi talabalarini vatanparvar, ma’naviy madaniyatli insonlar qilib tarbiyalashda o‘qitiladigan barcha maxsus va nomutaxasislik fanlari, ayniqsa ijtimoiy – gumanitar fanlar ahamiyati salmokli. Bunda “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari”, “Tarix”, “Axloqshunoslik”, “Nafosatshunoslik”, “O‘zbek tili” “O‘zbek adabiyoti” kabi fanlar alohida ahamiyatga ega. Ushbu fanlarning mohiyat-mazmuni talaba –yoshlarning siyosiy saviyasining o‘sishiga, dunyoqarashini shakllantirishga, o‘tmishda bo‘lgan va hozirgi kunda bo‘layotgan xalqaro siyosiy voqealarni to‘g‘ri baholashga, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy taraqqiyoti muammolariga ongli munosabatda bo‘lishga o‘rgatadi. Ijtimoiy – gumanitar fanlarni o‘qitishda talaba yoshlarning ta’lim va bilimlarga bo‘lgan ishtiyoqini kuchaytirishga, mustaqil dunyoqarash, ish yuritish, milliy iftixor va umuminsoniy qadr-qimmat tuyg‘usini shakllantirishga alohida e’tibor beriladi.

Oliygohlarning “Ma’naviyat soatlari”da vatanparvarlik ko‘rsatkichlarini rivojlantirishga mo‘ljallangan mavzular Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida «Pedagogika tarixi», «Dinshunoslik», «Falsafa», «Ma’naviyat asoslari», «Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» o‘quv fanlarini o‘qitish jarayonida «komil inson», «ma’naviy barkamol inson»ning sharqona tushunchasidan kelib chiqib, Yoshlarda vatanparvarlik, axlok va odob hamda boshqa bilimlar ma’naviyatini tarkib toptirish yo‘llari, shuningdek, bu ma’naviyatni shakllantirishda ijtimoiy muhit va ma’rifatning tutgan o‘rni haqidagi goyalar targ‘ib kilinadi.

X. Ziyoyev fikricha, vatanparvarlik odamning ruhiy, jismoniy va aqliy olamining yig‘indisidir. Vatanparvarlik axloqiy (odob, guruh, ma’suliyat tuyg‘usi), ilmiy ijodiy amaliy malakalar (mehnat, ijodkorlik, iste’dod, qobiliyat) diniy, mafkuraviy qarashlarning yaxlit birligidir[4]. Demak, vatanparvarlik millatning asrlar davomida shakllangan ildizlari, uning tarixiy tajribalari va ijtimoiy – madaniy rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ichki (aqliy) intellektual va sobit hissiy dunyosidir. Shu jihatdan olganda, yoshlarning vatanparvarlik ko‘rsatkichlarini aniqlovchi metodlar ular faoliyatida analitik baholash me’yorlari sifatida namoyon bo‘ladi.

Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruxda tarbiyalash ko‘rsatkichlarini aniqlovchi metodlar:

birinchidan, jamiyat talabidan kelib chiqqan holda, ta’lim-tarbiya natijalarini to‘g‘ri aniqlashni ta’minlashi, kafolatlashi, ikkinchidan, o‘ziga xos tarbiya yo‘nalishi va pedagogik ta’sir o‘tkazishni oqilona tanlashga yordam berishi kerak.

Yoshlarning harbiy vatanparvarlik ko‘rsatkichlarini aniqlashda testologiya tamoyillari va metodlariga murojaat etish talab etiladi.

Testologiya –(ingliz tilida: “test” – aniqlash, o‘lchash; yunon tilida: “logos”- ta’limot, bilim) sifatli va ilmiy asoslangan diagnostik metodikalarni yaratish to‘g‘risidagi fan. Pedagogikada testologiya metodlari psixometrik metodlar mushtarakligida qaraladi. Testologiya metodlaridan bugungi kunda pedagogika, meditsina, texnika, menejment kabi sohalarda foydalaniladi.

Xulosa. Davlatning bugungi va istiqboldagi barqaror iqtisodiy o‘sishini ta’minlovchi omillardan biri – mamlakatimiz yoshlarini vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma’naviy yetuk va jismonan sog‘lom barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlaydigan, mamlakatimiz istiqboli uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, xalq manfaati yo‘lida bor salohiyatini safarbar qiladigan, shijoatli yoshlarni tarbiyalashni ta’minlovchi pedagogik muhitni shakllantirish, uning mexanizmlarini takomillashtirish, jahon sivilizatsiyasi yutuqlari va axborot resurslaridan keng foydalanish, masalalari o‘z yechimini kutayotgan dolzarb muammolar sirasiga kirishi ilmiy kuzatishlar va tadqiqotlar tahlili natijasida aniqlandi.

Sohadagi vaziyat va amalga oshirilgan tadbirlar tahlili yoshlarning keng qatlamlariga dahldor bo‘lgan dolzarb masalalar, ayniqsa, respublikamiz yoshlarining katta qismini tashkil

qiladigan yoshlarni vatanparvarlik darajasini o‘rganish, o‘lchash, kvalimetrik tahlil qilish talab darajasida tashkil etilmaganligini alohida izlanish olib borishni taqozo etuvchi muammolar qatoridan o‘rin olgan.

Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida yangi mazmun va mohiyatdagi ta’lim-tarbiya tizimini shakllantirish bosh yo‘nalish sifatida belgilab olinar ekan, kelajakda yetuk mutaxassis bo‘lib yetishib chiqayotgan kadrlardan yuksak kasbiy salohiyat va insoniy sifatlar bilan birga milliy g‘oya va Vatanga sadoqatlilik, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanini chuqur singdirish; qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo‘lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo‘lish tuyg‘usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo‘lgan ishonchni kuchaytirish umumpedagogik, didaktik hamda psixologik xususiyatlariga ega bo‘lib, bu xususiyatlarni ochib berish natijasida oliy ta’lim jarayonini samarali tashkil etish imkoniyati vujudga keladi.

Yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ongi va qalbida mustaqillik g‘oyalariga sodiqlik, milliy o‘zlikni anglash, Vatanga muhabbat va uning taqdiriga dahldorlik, fidoyilik hissini qaror toptirish va rivojlantirish, turli mafkuraviy tahdidlardan asrash, ularni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir ishlar samaradorligini oshirish va faollashtirish, bu boradagi ta’lim-tarbiyaviy ishlarga mamlakatimiz fuqarolarini, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlarini hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini yanada faol jalb etish va yoshlar ongiga vatanparvarlik, mardlik tuyg‘ularini singdirish doirasida o‘rganish zarurati mavjud.

Jahonda tarbiya kategoriyasi ma’naviyatning tarkibiy qismi sifatida qadrlanayotgan bugungi sharoitda «ta’limning hamma bosqichlarida, ta’lim natijalarini baholash samaradorligini oshirish bilan birga tarbiyaviy mexanizmlarning ham samarali uslublarini takomillashtirish, testologiya tamoyillari orqali vatanparvarlik darajasining sifat ko‘rsatkichlarini pedagogik tahlil qilish va baholash imkoniyatini yaratish uchun bu sohada mavjud bo‘lgan yondashuvlar, tushunchalar, qarashlar, ta’limotlarni to‘plash, tasnif qilish va uni o‘qituvchi faoliyatiga joriy etish maqsadida tegishli ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish zaruriyatining mavjudligi ayon bo‘ldi.

Globallashuv jarayonida eng katta xavf insonlarning qalbi va ongini egallash uchun uzluksiz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir. Endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo‘layotgan kurashlar ko‘p narsani hal qiladi.

Shu jihatdan olganda mafkuraviy tizimning o‘zgarishi, ijtimoiy yangilanish vatanparvarlik darajasining sifatini tahlil qilishga va baholashga zarurat taqozo etadi.

Talabalarda vatanparvarlik darajasining sifatini tahlil qilish va baholashga asoslangan o‘quv-biluv jarayonini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash, bu mexanizmlarning joriy etilishini dunyo va respublikamizda olib borilayotgan tadqiqotlarni tahlil qilish asosida o‘rganish muhim ahamiyat kasb etishi dalillandi.

Tadqiqot natijasida insoniyat tarixida vatanparvarlik tuyg‘usini ijtimoiy tuyg‘u sifatida qadrlash tendensiyasi mavjudligi aniqlanib, falsafiy, sotsiologik, pedagogik adabiyotlar tahlili “vatanparvarlik” kontentiga turli qarashlar mavjudligini ko‘rsatdi.

Tadqiqot doirasida xorij tajribalarini o‘rganish asnosida “vatanparvarlik”– ijtimoiy-pedagogik kategoriya sifatida baholanib, unga insonning o‘z tug‘ilgan joyiga bog‘langanlik tuyg‘usidan tashqari, o‘z ona yurti madaniyati, moddiy, ma’naviy merosi va qo‘lga kiritgan muvaffaqiyatidan g‘ururlanish, milliy iftixor hissiga yo‘g‘rilganligi, o‘z ona yurtiga, fuqaroligiga, an’analariga, tiliga bo‘lgan sadoqatlilik va dahldorlik tuyg‘usidir, o‘zga millatlar oldida o‘z Vatanining qadrlanishini va xalqining e’zozlanishini bildiradigan istak, hohishdir,- deb ta’rif berildi.

Adabiyotlar

1. Abdullayeva Sh.A. Pedagogik diagnostika.-Toshkent:Fan va axborot texnologiyalari, 2010.-278 bet.

2. Abdullayeva Sh.A. Hamkorlik pedagogikasi.-Toshkent: Fan va axborot texnologiyalari, 2017.-178 bet.

3. Абдукаримов Х. «Профессионалное воспитание личности учителя в процесса непреривного педагогического образования» Автореф.дисс. ... докт. пед.наук.-Т.1997.-46с

4. Adizov B.R. Boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: Ped. fan. dok. diss... –T.: 2003. – 320 b.

5.M.J.Abdullayev, M.S Olimov, N.T, To‘xtaboyev “Yengil atletika va uning o‘qitish metodikasi.Toshkent-2017y.

BO‘LAJAK MUHANDIS TEXNOLOGLARNING KASBIY VA SHAXSIY QOBILI-YATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Haydarov Latifjon Rustamovich,
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti “Jismoniy tarbiya va umumiy fanlar kafedrasi mudiri”

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bo‘lajak mutaxasisga-texnolog mutaxasislarga kasbiy fanlarni o‘rganish jarayonida kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish modelini ishlab chiqishga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *Kasbiy shakllanish, Professional guruh integratsiyasi, rivojlanish inqirozlari, kasbiy qobiliyatlar, ijodkorlik,kasbiy kompetensiya.*

Аннотация. *Целью данной статьи является разработка модели формирования профессиональных компетенций будущих специалистов-технологов в процессе обучения профессиональным наукам.*

Ключевые слова: *Профессиональное становление, интеграция профессиональных групп, кризисы развития, профессиональные навыки, креативность, профессиональная компетентность.*

Annotation. *The purpose of this article is to develop a model for the formation of professional competencies of future technologists in the process of training in professional sciences.*

Key words: *Professional formation, professional group integration, development crises, professional skills, creativity, professional competence.*

Bo‘lajak mutaxasisga kasbiy fanlarni o‘rganish jarayonida kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish modelini ishlab chiqish va amalga oshirish juda muhim vazifadir. Maqsad kasbiy fanlarni nazariy va amaliy o‘rganish jarayonida kelajak muhandis texnologlariga yengil sanoat korxonalarida ishlash qobilyatini o‘rgatishning mukammal modelini ishlab chiqish. Zamonaviy muhandis texnologlar professional kompetensiyalarga ega bo‘lishi kerak; nostandart, ijodiy yondashuvlarni talab qiladigan o‘zgaruvchan sharoitlarda kasbiy faoliyatga tayyorligini to‘liq namoyish etish; texnologik masalalarni yechishda ta’limda loyiha, tarmoq, profil, meta-predmetli yondashuvlardan foydalanish; ijodiy harakat qilish va yangi ijtimoiy talablarga munosib javob berish; raqobatbardosh, mobil bo‘lish; o‘z dunyoqarashi va barqaror insonparvarlik e'tiqodiga ega; dinamik rivojlanayotgan jamiyatda moslashuvchan qobiliyatlarni va o‘z-o‘zini rivojlantirish, ijodkorlik istagini amalga oshirish; professional va shaxsiy o‘sishga ehtiyoj sezishi zarur. Natijada, nima uchun bugungi kunda muhandislarning kasbiy mahorati, nafaqat, pedagogik faoliyatda bilim, ko‘nikma va natijalarni rivojlantirishning eng yuqori darajasi, balki "turmush tarzi va fikrlash tarzi, stereotiplari" sifatida ham tushuniladi.

Kasbiy standart talablari asosida o‘qituvchining kasbiyogenezi jarayonini boshqarish ta'lim tashkilotining etakchi faoliyati bo‘lib, o‘qituvchining kasbiy sohada oldindan bashorat qilingan natijaga erishishini ta'minlaydigan murakkab, maqsadli jarayondir. O‘qituvchining kasbiy va shaxsiy rivojlanishini boshqarishning asosiy vazifasi uning o‘zgarishlar davrida rivojlanishi, yangi ijtimoiy muhitda erkin faoliyat yuritishi, kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirish va o‘z-o‘zini takomillashtirish istagining namoyon bo‘lishi uchun sharoitlarni ta'minlashdir.

O‘qituvchining kasbiy va shaxsiy rivojlanishi uzluksiz jarayondir. Bir tomondan, tashqi vaziyatning o‘zi o‘qituvchining rivojlanishiga ta'sir qiladi: o‘zgaruvchan dunyoda bir xil kasbiy pozitsiyalarda qolib yashash mumkin emas. Shunday qilib, kasbiy rivojlanish jarayoni o‘z-o‘zidan bo‘lishi mumkin. Ammo bu holda o‘qituvchining sifat jihatidan rivojlanishi sodir bo‘lmaydi, eng yaxshi holatda u tomonidan bilim, tajriba va hokazolarni rasmiy ravishda to‘plash haqida gapirish mumkin. O‘qituvchi haqiqatda sifatli kasbiy sakrashni amalga oshirishi va innovatsion faoliyat subyektiga aylanishi uchun malaka oshirish jarayonini boshqarish kerak. insonning kasbiy mehnat fazosi va

vaqtidagi harakati. Kasbiy shakllanishi va rivojlanishida mahalliy tadqiqotchilar (E.F.Zeer, E.A.Klimov, T.V.Kudryavtsev, A.K.Markova, L.M.Mitina, Yu.P.Povarenkov va boshqalar) va xorijiy tadqiqotchilar (E.Gintsberg, J.Super, D.Holland va b.) bu jarayonning bosqich va bosqichlarini farqlash. Kasbiy shakllanish va rivojlanish nazariyalarining tahlili shuni ko‘rsatdiki, ushbu jarayonni farqlashning turli mezonlari va asoslariga qaramay, taxminan bir xil bosqichlar: variant, kasbiy ta'lim va ta'lim, kasbiy moslashish, boshlang‘ich va o‘rta kasbiylashtirish, mahorat. Shu bilan birga, kasbiy rivojlanishning quyidagi traektoriyalarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1.Xuddi shu kasb doirasida moslashuvchan va silliq, mojarosiz va inqirozsiz kasbiy rivojlanish.

2.Shakllanishning dastlabki bosqichlarida, qoida tariqasida, xuddi shu kasb doirasida keyingi turg‘unlik va pasayish bilan tezlashtirilgan rivojlanish.

H. Stepwise, spazmatik shaxsiy va kasbiy rivojlanish, eng yuqori yutuqlarga olib keladi (shart emas, balki bir xil kasb doirasida) va kasbiy rivojlanish inqirozlari va to‘qnashuvlari bilan birga keladi.


Kasbiy hayotning bir bosqichidan ikkinchisiga o‘tish, qoida tariqasida, kasbiy shakllanish va rivojlanish inqirozlari sifatida belgilanishi mumkin bo‘lgan maxsus inqirozlar bilan birga keladi. Rivojlanish inqirozlari rivojlanishning bir bosqichidan ikkinchisiga o‘tish jarayonida yuzaga keladi va ijtimoiy munosabatlar, faoliyat va ong sohasidagi tizimli o‘zgarishlar bilan bog‘liq (L.S.Vigotskiy, A.N.Leontiev, D.B.Elkonin va boshqalar). Bular nisbatan qisqa (bir yilgacha) ontogenez davrlari bo‘lib, ular sifat jihatidan psixologik o‘zgarishlar bilan tavsiflanadi. Tadqiqotchilar rivojlanish inqirozini shaxsiy rivojlanish mantig‘i va asosiy kasbiy, ijtimoiy yoki yosh qarama-qarshilikni hal qilish zarurati bilan shartlangan me'yoriy jarayonlar deb hisoblashadi. Ammo, mualliflar me'yoriy inqiroz kontseptsiyasiga ijobiy ma'no berishlariga qaramay, ularning fikriga ko‘ra, inqiroz har doim ham shaxsning keyingi rivojlanishi uchun ijobiy hal etilmaydi va regressiya va kechikishning boshlanishiga aylanishi mumkin. Shu munosabat bilan o‘qituvchining kasbiy shakllanishi va rivojlanishi g‘oyasi chiziqli, inqirozsiz jarayon sifatida hech qanday asoslardan mutlaqo mahrumdir. O‘qituvchilarning kasbiy shakllanishi va rivojlanishidagi inqirozni ko‘rib chiqishda, inqirozni belgilaydigan qarama-qarshiliklarni aniqroq va asosli aniqlashda bunga e'tibor qaratish lozim. Har qanday rivojlanish jarayonida bo‘lgani kabi, obyektiv omillar ham ajralib turadi - faol, inqirozning boshlanishini keltirib chiqaradigan (ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, ta'lim siyosati, zamonaviy ta'limni rivojlantirish tendentsiyalari, mehnat dunyosidagi o‘zgarishlar, kasbiy faoliyatni standartlashtirish va boshqalar). Ushbu ta'sirlarning aks etishi kasbiy faoliyat subyektlarining o‘zgarishiga olib keladi.

Kasbiy rivojlanish inqirozlarini tushunishda muhim nuqta uning dinamikasini hisobga olish edi. Bu masalada biz L.S.ning ruhiyati va shaxsiyatining madaniy-tarixiy rivojlanishi kontseptsiyasiga tayandik.

L.S. Vigotskiy yoshga bog‘liq inqirozlarni tahlil qilishda uchta bosqichni aniqladi: tanqiddan oldingi, to‘g‘ri tanqidiy va tanqiddan keyingi. Uning kontseptsiyasiga ko‘ra, birinchi bosqichda rivojlanishning ijtimoiy holatining subyektiv va obyektiv tarkibiy qismlari o‘rtasidagi ziddiyatning keskinlashuvi; tanqidiy bosqichda bu qarama-qarshilik xatti-harakatlarda va faoliyatda namoyon bo‘la boshlaydi; posttanqidiyda qarama-qarshilik rivojlanishning yangi ijtimoiy holatini shakllantirish orqali hal qilinadi

“Blended learning” innovatsion metod orqali talabalarning hamkorlikdagi faolligini yanada oshirish orqali ijodiy g‘oyalarini shakllantirishdan iborat.

Metodning maqsadi: Aralashtirilgan ta'lim an'anaviy sinfda o‘qitish va yuqori texnologiyali onlayn o‘qitishni birlashtirgan usuldir. Bu sizga va talabalaringizga samarali o‘quv muhitini yaratish va o‘rganish tajribasini moslashtirish uchun ko‘proq moslashuvchanlikni beradi.



2-Rasm: O‘zlashtirish ko‘rsatkichlari diogrammasi

Shaxsning ijtimoiy-psixologik tayyorgarligi

· Professional guruh integratsiyasi. Kasbiy-guruh integratsiyasi, birinchi navbatda, sodir bo‘lgan kasbiy o‘zini o‘zi belgilashda, sodir bo‘lgan kasbiy o‘zini to‘liq his qilishda namoyon bo‘ladi. Kasbiy o‘ziga xoslik o‘qituvchining kasbiy jamoa, uning madaniyati va an'analari bilan yaqin professional, psixologik va ijtimoiy integratsiyalashuvida namoyon bo‘ladi.

· Professional motivatsiya. Kasbiy faoliyatning yangi yuqori sifatli natijalarini olishning samarali usullari va usullarini doimiy ravishda izlashga qaratilgan o‘qituvchining faol kasbiy faoliyati. Shuningdek, kasbdagi shaxsiy ma'noni chuqur anglash.

· Kasbiy madaniyat (kasbiy ma'naviyat). Kasbiy madaniyatning alohida o‘ziga xosligini A.M. Stolyarenko, bu kasbiy faoliyatni uning barcha umumiy insoniy, ijtimoiy, axloqiy, huquqiy jihatlari va bog‘liqliklarini hisobga olgan holda amalga oshirishga tayyorlik ekanligini tushuntirdi.

· Kasbiy o‘z-o‘zini anglash (professional o‘z-o‘zini anglash, kasbiy obraz, «Men»-tushuncha) - shaxsiy ma’no - o‘z kasbidagi «men»ini aks ettirish orqali anglash. Kasbiy o‘zini o‘zi anglashning ahamiyati o‘qituvchining madaniyat shaxsi sifatida ta'lim subyektlarining qadriyatga asoslangan bazasini shakllantirishda bevosita ishtirok etadigan missiyasi bilan bog‘liq. Va shuningdek, o‘qituvchi muqarrar ravishda jamoatchilikka kiritilishi va inson yaratilishi bilan bog‘liq ijtimoiy-madaniy jarayonlar.

Kasbiy yetuklikning asosiy psixologik komponentlari. Yuqorida ta'kidlanganidek, kasbiy kamolotning shakllanishi shaxsning asosiy psixologik xususiyatlari bilan bog‘liq. Kasbiy standartda o‘qituvchining kasbiy kompetentsiyalaridan tashqari, shaxsiy fazilatlarga ham bir qator talablar qo‘yiladi

Professional orientatsiya. Kasbiy yetuklikning tarkibiy qismi o‘qituvchining erkinligi va o‘z ishining natijalari uchun mas'uliyatining muvofiqlashtirilgan o‘sishini, o‘qituvchining uzluksiz kasbiy rivojlanishiga motivatsiyasini ta'minlashga qaratilgan o‘qituvchining kasbiy standartining asosiy funktsiyalarini aks ettiradi. Kasbiy motivlar tarkibida kasbiy yo‘nalish kasbiy motivlar va kasbiy "men"-kontseptsiyasiga asoslanadi. Ta'lim sohasidagi barcha islohotlarda asosiy shaxs ta'lim subyekti sifatida o‘qituvchi ekanligi shubhasiz haqiqat bilan bog‘liq.

Jarayon, uning maqomi tubdan o‘zgarmoqda, shaxsiy va kasbiy fazilatlari haqidagi g‘oyalar o‘zgarib bormoqda. Zamonaviy o‘qituvchining ta'lim funktsiyalari o‘zgardi. Bugungi kunda faqat yaxshi fan o‘qituvchisi bo‘lish, o‘qitishning metod va usullarini puxta egallash

yetarli emas. SHuning uchun ham o‘qituvchining kasbiy yetukligining xususiyatlariga doir ko‘plab bahs – munozaralar va tadqiqotlarning sababi o‘qituvchining axloqiy-psixologik qiyofasi masalasi birinchi o‘ringa chiqadi.

• Rivojlangan kasbiy qobiliyatlar. Kasbiy qobiliyatlar amalga oshirish darajasiga ko‘ra ikkita kichik guruhga bo‘linadi: potentsial qobiliyatlar va haqiqiy, allaqachon rivojlangan.

Rivojlangan (faol) kasbiy qobiliyatlarning mavjudligi o‘qituvchining yuqori kasbiy mahoratining so‘zsiz tasdig‘idir, bu kasbiy va ijtimoiy tajriba, nostandart samarali echimlarga tayyorlik, innovatsiyalar va yuqori darajada rivojlangan subyektivlik bilan ta'minlanadi, bu esa professionalning etukligini ko‘rsatadi. yutuqlar, ijodkorlikka, hamkorlikka qaratilgan. Maxsus tayyorgarlik, A.M. Stolyarenko uchta asosiy komponentni o‘z ichiga oladi:

• Kasbiy ta'lim.

• Professional mukammallik.

• Kasbiy va psixologik tayyorgarlik.

• Kasbiy ta'lim (kasbiy kompetensiya). Kasbiy ta'lim - bu nazariy va amaliy, keng va aniq, umumiy ilmiy va maxsus bilim va g‘oyalar, intellektual qobiliyatlar va boshqalarning ko‘p omilli tizimi. Shuni ta'kidlash kerakki, kasbiy ta'lim shaxsiy va kasbiy rivojlanish darajasini, kasbiy madaniyat va ma'naviy-axloqiy sohani doimiy ravishda yaxshilashga yordam beradi.

Xulosa. Ma'lumki, muhandis texnologlarning mehnat faoliyati sifati nafaqat kasbiy qobiliyatlari bilan, balki texnologlarni kasbiy etuklikni belgilovchi umumiy ichki va tashqi komponentlar bilan to‘ldiradigan kasbiy tajriba (ish tajribasi) mavjudligi bilan ham belgilanadi. Shuni inobatga olgan holda Bo‘lajak muhandis texnologlarning kasbiy va shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish o‘rganilishi kerak bo‘lib qoladigan asosiy sohadir.

Adabiyotlar.

1. Засобина Г. А., В.С. Мухаммед. Исследование в педагогической деятельности преподавателя высшей школы. Иваново: «ИвГУ», 1997. 187 с.

2. Андреев, В.И. Эвристика для творческого саморазвития. Учебное пособие. Казань: «Центр инновационных технологий», 1994. 247 с.

3. Степанов С. Ю., Кремер Е. З. Сотворчество на уроке – как это возможно? Сборник материалов II Всероссийской научно-методической конференции «Актуальные проблемы химического образования». Москва, 2011, С. 123 – 128.

4. Степанов, С.Ю. Учитель-ученик ценности сотворчества. М.: «Педагогика», 1990. 144 с.

5. Сластенин В.А. и др. Педагогика: Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений. М.: Издательский центр «Академия», 2002. 576 с.

6. Загвязинский, В. И. Педагогическое творчество учителя. М.: Советская педагогика, 1988, № 1, С. 70–75.

7. Abdurasulovich, K. J., Abdurasulovich, K. O., Yangiboevich, K. M., Anvarovich, A. A., & Xolmurodovich, G. A. (2020). Opportunities and results to increase the effectiveness of multimedia teaching in higher education. *Journal of Critical Reviews*, *7*(14), 89-93.

8. Muradilloyevich, I. U., Tanzilovch, O. K., Anvarovich, A. A., & Baxodirovna, S. I. (2020). Improvement of teaching methodology by using modeling programs of engineering education in higher education of uzbekistan. *Journal of Critical Reviews*, *7*(14), 81-88.

9. Maxmudovich, X. M., Kuchkorovich, J. A., & Xo‘Jjiyev, M. (2021). Technology of using E-learning modeling programs in teaching special subjects in professional education. *Psychology and Education Journal*, *58*(1), 5403-5411.

10. Tamoyillari, b. A. O. D. Masofaviy ta’lim orqali umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini kognitiv–vizual yondashish orqali, talabalar.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MA’NAVIY-MA’RIFIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING O‘RNI

Orifova Oqilaxon Javlon qizi,
Alfraganus universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishning yangi pedagogik tamoyillari ko‘rib chiqilgan. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar kontseptsiyasida tarbiyaviy tadbirlarni takomillashtirish zaruriyati, alohida ta’kidlangan: siyosiy tuzumning o‘zgarganligi, yangicha iqtisodiy munosabatlarning shakllanib borishi, tarbiyaviy ishni yaxshilashda davr talabiga javob beradigan yangicha tamoyillari g‘oyalar, ish uslubiyatlarini ishlab chiqish hamda o‘qituvchining ijodkorlik faoliyatining rivojlanishi haqida fikr yuritilgan..*

Kalit so‘zlar: *pedagogik mahorat, tajriba sinov, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, o‘qish sifati, ta’lim metodlari, yangi yondoshuv.*

Аннотация*. В данной статье рассматриваются новые педагогические принципы организации внеклассной деятельности учащихся начальных классов общеобразовательных школ. В концепции внеклассной воспитательной работы подчеркивается необходимость совершенствования воспитательной деятельности: изменения политического строя, формирования новых экономических отношений, выработки новых принципов идей, методов работы и развития учителя, развития обсуждается творческая деятельность.*

Ключевые слова: *Педагогическое мастерство, экспериментальная проверка, информационно-коммуникационные технологии, качество обучения, методы обучения, новый подход.*

Annotation. *This article discusses new pedagogical principles for organizing extracurricular activities for primary school students in secondary schools. The concept of extracurricular educational work emphasizes the need to improve educational activities: changes in the political system, the formation of new economic relations, the development of new principles of ideas, methods of work and teacher development, the development of creative activities is discussed.*

Key words: *Pedagogical skills, experimental testing, information and communication technologies, quality of teaching, teaching methods, new approach.*

Kirish. Bugun mamlakatimizning ta’lim tizimida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar ilg‘or xorijiy ta’lim tajribasini o‘rganish, tahlil etish hamda ta’lim muassasalari sharoitiga moslashtirishning ijtimoiy-pedagogik, didaktik xususiyatlarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Bugungi kunda yangi axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llab boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga fanlarini o‘qitish, shu bilan birga, ta’lim oluvchilarni murakkab olamiga olib kirish va axborot madaniyatini shakllantirishga qobiliyatli o‘quvchilarni tayyorlash dolzarb masalalardan hisoblanadi. Maktabda va sinfdan tashqari ishlar jarayonida o‘quvchilarning bir-biriga hurmati, axloqiy sifatlari jamoa orasida shakllanib boradi. Bunda o‘quvchilarning bir-biriga bo‘lgan muomala madaniyati ham shakllanadi. O‘quvchi o‘qituvchiga taqlid asosida yoki do‘stlari orasida o‘rgangan tarbiyasi muomalasiga ta’sir qilishi mumkin. O‘qituvchi o‘quvchilar orasida muomala madaniyatini shakllantirish uchun avvalambor o‘quvchining o‘ziga bo‘lgan muomalasini, e’tiborini o‘rganishi kerak. Sinfdan va maktabdan tashqari tashkil qilingan ishlar o‘quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to‘ldiradi. Ularning dunyoqarashi to‘g‘ri shakllanishiga va axloqiy kamol topishiga ko‘maklashadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Nazariy bilimlarni amaliyot ishlab chiqarishi bilan bog‘lanishaga zamin yaratadi. Madaniy-ma’rifiy tadbirlarda axborot komunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish muhim hisoblanadi. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning tarbiyaviy ta’siri ko‘p darajada o‘quv jarayonini tashkil etish saviyasiga hamda o‘quvchilar jamoasininig turli xil ishlarni qanday yo‘lga qo‘yishlariga bog‘liqdir. Sinfdan tashqari faoliyat majburiy dastur bilan chegaralanmaydi, balki o‘quvchilarni ixtiyoriy ravishda birlashtiradi. Ularning tashabbusi asosida ishlarni amalga oshiradi, fanga qiziqtiradi, ularni xalqning madaniy hayoti muhitiga olib keladi. Sinfdan tashqari ishlar shaxsdagi ijtimoiy faollik, ijtimoiy ong hamda axloqiy odatlarni tarkib toptirishning eng muhim omilidir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun turli didaktik materiallar to‘plamidan foydalanib, ko‘rgazmali mashq, nazorat mashqlari va test sinovlari modullari kiritilgan aralash kompyuter dasturlarini tayyorlash mumkin. Bu esa o‘quvchining tanqidiy fikrlashga, fikrini to‘liq bayon etishiga yordam beradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘rtasida yangi jamoa a’zolarini tashkil etish va moslashuv davrida ularga ishonch, hurmat, xushmuomalalik kabi tuyg‘ularni shaklantirishda madaniy-ma’rifiy tadbirlarning o‘rni beqiyosdir. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar o‘quvchilarning qiziqishi, istaklari, xohish va ehtiyojlariga suyangan holda, ularning darsdan bo‘sh vaqtlarida o‘quv-tarbiya jarayonini to‘ldiradi. U o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligini oshirishga imkoniyat yaratadi. Sinfdan tashqari ishlarning o‘ziga xosligi shundaki, to‘garak, klub dasturlarining rang-barangligi, ular mazmunidagi yangiliklar o‘quvchilarni erkin shaxs sifatida shakllanishiga imkon beradi. Butun dunyoda bo‘lgani kabi mamlakatimizda ham ta’lim sohasiga zamonaviy qarash va texnologiyalarning keng jalb qilinishi rivojlanib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida ta’lim sohasida ham axborot iste’moli xususiyatlarini ilmiy tadqiq qilish xulosalarni shakllantirib bormoqda. Bugungi kunda ulardan to‘g‘ri va samarali foydalanish bilan bir qatorda ogoh bo‘lishni ham talab etmoqda.

Boshlang‘ich sinflarda (4-sinflar misolida) «Kitobsevarlar» ko‘rik tanlovi o‘tkazish o‘quvchilar tafakkurining o‘sishi, bilim doirasining kengayishiga qobiliyat va iste’dodlarini o‘stirishiga yordam beradi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 12-yanvardagi «Kitobxonlik madaniyatini yanada rivojlantirish chora 40 tadbirlari» to‘g‘risidagi qarori keng jamoatchilik tomonidan iliq qarshi olindi va keng ma’naviyat dargohlarining e’tirofiga sazovor bo‘lmoqda. 2017-yil 13-sentabrdagi kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish borasidagi navbatdagi qarori yuqoridagi fikrimizni asoslovchi muhim omil bo‘ldi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta’lim-tarbiya berishdagi muhim vazifalarning asosiy qismi o‘qish mashg‘ulotlari orqali amalga oshiriladi. O‘quvchilar o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini shakillantirishda madaniy- ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish muhim hisoblanadi. Qomusiy ma’rifatparvar, mutafakkirlar hamda hozirgi zamon shoir, yozuvchilarning ijodiyotidan namuna bilishlari va tengdoshlari bilan fikr almashishlari mumkin. Maktab yoshidagi o‘quvchilarning ta’limiy-tarbiyaviy faoliyatlari o‘ziga xos xususiyatga ega: o‘quvchilarda hayotiy tajribalarning kamligi, o‘quv-tarbiya jarayonida hodisalarga qiziqish, «yaxshi», «yomon» harakatlarga chuqur munosabat bildira olmasligi kabilar. Kitobxonlik madaniyati esa ularga tanqidiy fikrlashga xulosa qilishga yordam beradi. Tarixda yuksak kashfiyotlar qilgan daholar o‘z tasavvur doiralaridan ortig‘iga ega buyuk insonlar bo‘lishgan. Kitob mutolaasi jarayonida o‘quvchining tasavvuri ishlaydi. U uzoq o‘tmishni, kelajakni tasavvur qiladi. Zamondoshlari hayotini tasavvurida gavdalantiradi. Buning uchun o‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalash, ularni oddiy kitobxondan ijodkor kitobxon darajasiga ko‘tarish talab etiladi. O‘quvchilarda kitobga havas uyg‘otishda har bir bolaga yakka tartibda yondashish, shaxsiy qiziqishlarini hisobga olish zarur. Bolalarda kitob ustida ishlash malakasini shakllantirish ularda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalashning muhim omilidir. Bolalarda ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg‘otish, ularning bog‘lanishli nutqini o‘stirish, adabiy-estetik tafakkurini yuksaltirishda madaniy-ma’rifiy tadbirlarning o‘rni beqiyos albatta. 4-sinf o‘quvchilarida «Kitobsevarlik» ko‘rik tanlovini sinflar kesimida o‘tkazish

va bellashuv qilish mumkin. O‘quvchilar 30-40 tagacha o‘qigan ertak yoki badiiy kitoblarini taqdim etishlari mumkin bo‘ladi. O‘quvchilar mutoala qilgan kitoblaridan hikmatli gaplar aytishlari mumkin, o‘qituvchi tomonidan bolalar uchun adabiyotlardan yoki ensiklopidiyalardan qiziqarli savollar hilmatli so‘zlar, topishmoqlar ham berishi mumkin.

Natijalar. Axborot komunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib o‘quvchilar uchun kitobsevarlik, kitob o‘qigan inson ma’rifatli bo‘lishi haqida tarbiyaviy ahamiyatga ega kichik videorolikdan foydalanish mumkin. Har bir sinfda sinfdan tashqari o‘qilgan barcha asrlar o‘quvchilarga mos ravishda biror voqeani sahnalashtirish mumkin. Bu boladagi nutqni rivojlantirishga, lug‘at boyligini oshirishga yordam beradi. Shuningdek sahnalashtirilgan asarni tomosha qilgan o‘quvchining diqqati oshib xotirada saqlash qobiliyati o‘sadi. Hatto sahnalashtirish o‘quvchini har tomonlama yo‘naltiradi, ya’ni aktyorlik qobiliyatini rivojlantiradi, suxandonlik, rejissorlik kabi kasblarga ilk tasavvurlarni o‘rgata boshlaydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kitobxonlik qobiliyatlarini rivojlantiradi, notiqlik mahoratini oshiradi, o‘z fikrini teran bayon qilishga orgatadi. Kitob, avvalo, hayotiy maktab, ma’naviyat manbai. U kitobxonni hayot bilan tanishtiradi, unda hayotni sevish, yashash mohiyatini anglash hislarini tarbiyalaydi. Atrof-muhitga, tabiatga ijobiy munosabatini shakllantiradi, inson xarakterining murakkabliklarini tushuntiradi, ruhiy qiyofaning rangin qirralarini kashf qilish qobiliyatini, ona vatanga, xalqiga sadoqatli bo‘lish tuyg‘usini o‘stiradi. Badiiy adabiyot o‘qish orqali kitobxonning badiiy idroki, mustaqil fikrlash qobiliyati, mutolaa madaniyati, vatan taqdiri uchun javobgarlik tuyg‘usi tarbiyalanadi. Badiiy asar qaysi tur va janrga mansubligidan qat’iy nazar, uning mohiyatida inson shaxsini kamol toptirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini o‘stirish, odamiylik sifatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan bir qator didaktik xususiyatlar, estetik tamoyillar mujassamlashgan bo‘ladi. Badiiy asarning eng muhim xususiyati shundaki, u inson qalbini mayinlashtiradi, tuyg‘ularini o‘tkirlashtiradi, ma’naviy-ruhiy barkamollikni tarbiyalaydi. Dunyodagi eng og‘ir kitob Britaniyaga saqlanadi. Kitob- bilim bulog‘i o‘quvchining o‘rtog‘i Tilsiz, aql o‘rgatar. (kitob)

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki sinfdan va maktabdan tashqari tashkil qilingan ishlar o‘quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to‘ldiradi. Ularning dunyoqarashi to‘g‘ri shakllanishiga va axloqiy kamol topishiga ko‘maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot ishlab chiqarishi bilan bog‘lanishiga zamin yaratadi. Yuqoridagilarning barchasida o‘quvchilarning o‘qish malakalari shakllantiriladi, o‘qilgan asarni tushunishga o‘rgatadi, ularning so‘z boyligini oshirib, lug‘atini boyitadi. Sinfdan tashqari madaniy ma’rifiy tadbirlar o‘z navbatida, qiziqarli, o‘ziga jalb etadigan faoliyat bo‘lib, umuman, bolalarning bilim doirasini boyitadi, qiyoslash uchun material beradi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining vazifasi bolalar jamoasini tashkil qilish, tarbiyalash va jipslashtirish borasidagi nazariy bilimlarni o‘zlashtirib, ilg‘or tajribalarga suyanib o‘quvchilarni tarbiyaviy jarayonda o‘rtoqlik-do‘stlik, o‘zaro hamkorlik, hamjihatlik, o‘z-o‘zini tarbiyalash va boshqarish kabi jamoatchilik sifatlarini tarbiyalash mahoratini o‘zlashtirishdan iborat.

Adabiyotlar

1. Ta’limda axborot texnologiyalari: O’quv qo’llanma / R.X. Ayupov. Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti. - T.: TPDU, 2020 yil, 580 bet.

2. Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, Bo’riyeva Shaxnoza Inat qizi. Boshlang’ich sinf o’quvchilarida media madaniyatini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari. Xalqaro jurnal. Международный научный журнал «Новости образования исследование в XXI веке». № 8 (100), часть 1. март, 2023 г.

3. Abdullayeva Barno Sayfutdinovna Tursunova Malika Baxtiyor qizi Xaydarova Mahliyo Xabibullayevna. Boshlang‘ich ta‘limda tarbiya fani. Darslik. TDPU. :T - 2022. 36-bet.

4. Yo‘ldashev J. G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – O’quv qo’llanma. T: Fan va texnologiya, 2008. 72-bet.

5. Informatsionnaya kultura lichnosti: uchebno-metodicheskoe posobie. - M.: Libereya-Bibinform, 2007. Abrorkhonova, K., & Khudoyberdieva, S. (2022). VIRTUAL TOUR IN PRIMARY SCHOOL. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(06), 72-77.

6. Norboy o‘g‘li, H. F. (2023). Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati. *Journal of new century innovations*, *37*(1), 44-48.

7. Hayitov, A., & Abdurasulova, F. (2022). Interfaol metodlar asosida boshlang ‘ich sinflar darslarini samarali tashkil etish usullari. *Science and innovation*, *1*(B7), 598-604.

8. Orifova O. Ekskursiya darslarida integrativ yondashuv asosida amaliy ishlarni tashkil etish-journal of marketing, business and management(jmbm)/sjif factor: 4.28

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING METODIK TAYYORGARLIGINI OSHIRISHNING MAZMUNI

Inoyatova Zulfiya Hamdamovna,
Nizomiy nomidagi TDPU Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi kafedrasi v,b. dotsent

Annotatsiya*. Maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini oshirishning mazmuni va uni amalga oshirishning bir qancha vazifalari hamda tavsiyalar haqida so‘z borgan.*

Kalit so‘zlar*: metodika, tayyorgalik, metodik tayyorgarlik, bo‘lajak o‘qituvchi, metodik tayyorgaligini oshirish, tavsiyalar.*

Аннотация. *В статье говорится о содержании совершенствования методической подготовки будущих учителей начальных классов и некоторых задачах и рекомендациях по ее реализации.*

Ключевые слова: *методика, обучение, методическая подготовка, будущий учитель, совершенствование методической подготовки, рекомендации.*

Annotation. *The article talks about the content of improving the methodical training of future primary school teachers and several tasks and recommendations for its implementation.*

Key words: *methodology, training, methodological training, future teacher, improvement of methodological training, recommendations.*

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida jahon iqtisodiy-ma’rifiy dunyosiga kirib borishga qaratilgan yangi ta’lim tizimi shakllanmoqda. Bu jarayon pedagogika fani va amaliyotida sezilarli o‘zgarishlar bilan birga amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy mutaxassisga qo‘yiladigan talablar o‘zgarib bormoqda. Bo‘lajak o‘qituvchilarda ta’limiy va tarbiyaviy jarayonni tashkil etish ko‘nikmalarini innovatsion ta’lim metodlarini qo‘llagan holda, zamon talablariga mos, kasbiy kompetentlilikka ega bo‘lgan, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash modellari YuNESKO tomonidan qabul qilingan, 2030-yilgacha xalqaro ta’lim konsepsiyasida “Butun hayot davomida sifatli ta’lim olishga imkoniyat yaratish” birinchi darajali vazifa sifatida qaralib, ta’lim mazmunini mazkur munosabatlarga asoslanib shakllantirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Oliy ta’lim muasssasini bitirish davriga kelib bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi zamonaviy o‘quv maqsadlariga erishish imkonini beruvchi kasbiy faoliyat vositalariga ega bo‘lishi kerak. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining jamiyat va davlat tomonidan qo‘yilgan vazifalarga erishish vositasida o‘zlashtirish darajasi o‘qituvchi tomonidan butun hayoti davomida shakllanadigan metodik faoliyatga, kasbiy mahoratga tayyorlik darajasini belgilaydi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi oliy o‘quv yurtida o‘z ustida ishlashning dastlabki tajribasini shakillantiradi va takomillashtiradi. Kasb yo‘nalishi bo‘yicha mutaxassisning muvaffaqiyati uslubiy faoliyat asoslarining qanchalik to‘liq va sifatli shakllanganligiga bog‘liq.

“O‘qituvchining metodik tayyorgarligi” tushunchasining turli talqinlari hamda uning alohida turlarini tahlil qilar ekanmiz, turli ta’rif va talqinlar sezilarli darajada bir-biriga zid bo‘lmay, balki bir-birini to‘ldiradi. V.A. Adolf ta’kidlaganidek, metodik tayyorgarlik “... ma’lum darajada maxsus-ilmiy, pedagogik, psixologik bilim va ko‘nikmalarning butun tizimini birlashtiradi” bu bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy mahorat darajasini sezilarli darajada shakllanish darajasi.

Metodik tayyorgarlikga berilayotgan aksariyat ta’riflarda tadqiqotchilar o‘qituvchining metodik tayyorgarligini bilim, ko‘nikma va malakalar; mustaqil metodik faoliyatga tayyorligi

va qobiliyati; muayyan shaxs xususiyatlari bilan bog‘laydilar. Bizning nuqtayi nazarimizga ko‘ra, metodik tayyorgarlikning talabaning kasbiy yo‘nalishini hisobga olgan holda quyidagi ta’rifi to‘liq sanaladi:

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining metodik tayyorgarligi ostida biz uning qobiliyatini va tayyorgarligini tavsiflovchi shaxsning integrativ sifatlarini tushunamiz:

- boshlang‘ich sinflarda ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish va pedagogik vazifalarni bajarishda ularning asosiy fundamental bilimlardan va kommunikativ qobiliyatlardan foydalanish;
- o‘quv jarayoni bo‘yicha metodik bilim va ko‘nikmalarni egallash;
- pedagogik faoliyatni yuqori darajadagi ta’limiy va kasbiy motivatsiya orqali modellashtirish va loyihalashtirish;
- boshlang‘ich sinflarning fanlarini o‘qitish metodikasida o‘z ustida ishlash, o‘z-o‘zini aktuallashtirish va o‘z-o‘zini takomillashtirish.

Kasbiy tayyorgarlik davomida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi fundamental fanlarni o‘zlashtirishdan tortib, ta’lim-tarbiyaviy vazifalarni hal qilishni bilish kerak. Bundan tashqari, pedagogika oliy ta’lim ta’lim muassasalari bitiruvchilari uchun oliy ta’lim tizimini rivojlantirish loyihasida taqdim etilgan metodik faoliyat ob’ektlari soni ham ko‘paygan (boshlang‘ich sinflarda rejali va sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishning mazmuni, metodlari, vositalari, shakllari va jarayoni). Shu bilan birga, ta’limning faoliyatga asoslangan shakllariga, uni tashkil etish va amalga oshirish texnologiyalariga bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga tegishli bo‘lishi kerak. O.V. Lebedeva ta’kidlaganidek, “didaktika sohasidagi bilimlar, fanlarni o‘qitish usullari, o‘zlashtirishning psixologik mexanizmlarini hisobga olgan holda muayyan didaktik vaziyat uchun o‘quv jarayonini mantiqiy loyihalashtirish qobiliyati”.

Metodik tayyorgarlik tushunchaning yetarlicha o‘rganilmaganligi va yondashuvlarning xilma-xilligi bilan uning mohiyati va rivojlanish jarayoni haqida umumiy tushuncha yo‘q. Hozirgi vaqtda «o‘qituvchining metodik tayyorgarligi» tushunchasini aniqlashning turli yondashuvlari mavjud. Shunday qilib, N.L. Stefanova metodik tayyorgarlikni boshlang‘ich maktab o‘qituvchisining metodik madaniyatining tarkibiy qismlaridan biri deb hisoblaydi va uni metodik ta’lim va dunyoqarash bilan bog‘laydi.

Metodik fanlar bo‘lajak o‘qituvchilar uchun metodik tayyorgarlik ko‘rishga mo‘ljallangan fanlar deb ataladi. Metodik tayyorgarlikning asosiy natijasi-talabalarning boshlang‘ich sinf fanlarini o‘qitishga, maktab o‘quvchilarini ta'lim va rivojlantirish faoliyatini o‘quv predmeti va o‘quv jarayoni orqali amalga oshirishga, shuningdek, ta'lim va rivojlanish muammolari bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishga tayyorligi hisoblanadi. Metodik tayyorgarlikning eng muhim qismi bu – bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchining amaliy tayyorgarligi sanaladi. O‘qituvchining amaliy tayyorgarligi “Pedagogik faoliyatning tarkibiy qismlarini amaliy egallash, muammolarni pedagogik ta'lim yo‘nalishiga mos keladigan o‘quv-tarbiya jarayonining real sharoitlarida hal qilishga tayyorlik”ni ta'minlaydi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning pedagogik ta'lim mazmunini psixologik-pedagogik va ijtimoiy yo‘naltirishni alohida yondashuvni talab qiladi. Oliy pedagogik ta'limni modernizatsiyalash sharoitida O‘zbekiston Respublikasi va xorijda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlashning ijobiy tajribasini hisobga olish katta istiqbolga ega.

Hozirgi vaqtda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari metodik tayyorgarligini takomillashtirishda, o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o‘z o‘rnida foydalanish bilan bir qatorda xalqaro baholash dasturlari bilan ham chambarchas bog‘liq. Bu, ayniqsa, matematika fanini o‘qitish jarayonida innovatsion yondashuv sifatida xalqaro baholash dasturi asosida o‘qitishga asoslangan metodikaning yangi shakl, vositalaridan foydalanishda yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Bugungi kun bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga faqatgina tayyor bilimlarni beribgina qolmay, ularga elektron- axborot resurslardan foydalanishni va xalqaro baholash dasturlari asosida o‘quvchilar savodxonligini baholashga o‘rgatish muhim masalalardan hisoblanadi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini metodik tayyorgarligini takomillashtirish muammosi bo‘yicha o‘tkazilgan ilmiy ishlar tahlili quyidagilar vazifalar bajarilishini o‘z ichiga oladi.

Tavsiyalar:

✓ bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning individual qobiliyatlari va imkoniyatlariga yo‘nalganlik hisobiga matematika fanini o‘qitishning ijtimoiylashuv jihatlarini amalga oshirishni yo‘lga qo‘yish;

✓ ham mazmuni, ham faoliyat metodlariga ko‘ra oliy ta’lim muassassalari matematika o‘qitish metodikasi fanini o‘qitishda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini o‘quvchilarni intellektual rivojlantirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish hamda boshlang‘ich sinf matematika fanini o‘qitish kursi o‘rtasida o‘zaro chambarchas aloqani shakllantirish.

✓ metodika kursini amaliy yo‘nalganligiga e’tiborni kuchaytirib, pedagogik va metodik amaliyotdagi aloqalar, qisman qidirish, qidirish va tadqiq qilish tusidagi topshiriqlarni joriy qilish hisobiga bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning matematika o‘qitish metodikasini o‘rganish samaradorligini oshirish;

✓ axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish; boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematik o‘rganishida uzviylikni amalga oshirishga bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash, bu boshlang‘ich matematika kursidagi masalalarni rivojlantirishni ko‘rsatadi;

✓ bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini o‘quvchilarni intellektual rivojlantirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini o‘quvchilarni intellektual rivojlanishga tayyorlash;

✓ boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini to‘garak, olimpiada, musobaqlar kabi faoliyat shakllarini yo‘lga qo‘yishga layoqatli shaxs darajasiga yetkazish.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini metodik tayyorgarligini takomillashtirish uchun yuqorida qayd etib o‘tilgan barcha nazariy asoslar, fikrlarni inobatga olib, ta’lim jarayonida ta’lim mazmuni, o‘rgatish, o‘rganish bir-biri bilan uzviy aloqada shuning uchun ulardan hech birini e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgariligini takomillashtirish jamiyat rivojining zaruriy sharti hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqiotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-4708- sonli Farmoni

2. Abdullayeva B.S va b Boshlang‘ich sinflarda matematikadan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish-Toshkent.: OOO “Jahon print” 2011, 146-b.

3. Abduraimov Sh.S. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlash sifatini ta’minlashda tarmoqlararo amaliy integratsiya. Monografiya. –Toshkent: Navro‘z, 2014. – 120 b

4. Jumayev M.E., “Matematika o‘qitish metodikasidan praktikum”- Toshkent.: O‘qituvchi, 2004, 328-bet.

5. Луканкин Г.Л. Высшая математика для экономистов. Курс лекций. 2009 г. Маркова А.К., Матис Т.А. Формирование мотивации учения. М.: изд-во «Педагогика». 1990. С.34-56.

6. The Effectiveness of Advanced Educatinal Technologes in the Context of Innovative Development International Journal of Progressive Sciences and Technologes (IJPST) ISSN :2509-0119 Inoyatova Z.

7. Khamdamovna, I. Z., R. Kamola, and J. Nigora. "Problems and Solutions for the Organization of Pedagogical Communication in the Educational Process of Future Primary School Teachers." *European Multidisciplinary Journal of Modern Science* 4 (2022): 413-416.

8. Inoyatova, Z. X., Po‘Latova, G. N, & Xojimurodova, D. (2022). Ta’lim jarayonida o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish. *Science and Education*, *3*(12), 795-800.

INTELLEKTNING SHAKLLANISHIDA ATROF MUHIT VA IRSIYATNING ROLI

Azamov Abobakir Ne'matjon o'g'li,
O'zMU o'qituvchisi
Qodirova Bonu Lochin qizi
O'zMU talabasi

Annotatsiya. *Maqolada intellektning shakllanishida atrof muhit va irsiy omillarning ta'siri, ularning o'zaro bog'liqlik muammosi ko'rib chiqiladi. Shuningdek ushbu muammo yuzasidan olib borilgan izlanishlar va tadqiqotlar tahlili keltiriladi. Shaxsning intellektual salohiyatini shakllanishini belgilab beruvchi omillarni aniqlash, muammoni amaliy hal etish biz uchun katta ahamiyatga ega bo'lib, kelajak avlod rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar*: Intellektual salohiyat, irsiyat, psixogenitika, egizaklar metodi, monozigotik egizaklar, dizigotik egizaklar, atrof-muhit ta'siri, ijtimoiy muhit omillari, identifikatsiya modeli, IQ darajasi, Zayontz pragnozi , divergent fikrlash, genotib-atrof-muhit korrelyatsiyasi.*

Аннотация. *В статье рассматривается влияние средовых и генетических факторов на формирование интеллекта, а также проблема их взаимозависимости. Также статье дано анализ исследований проведенных по данной проблеме. Определение факторов формируюший интеллектуального потенциала человека, решение проблемы практическим путем имеет для нас большое значение и оказывает непосредственное влияние на развитие следующего поколения.*

Ключевые слова*: Интеллектуальный потенциал, наследственность, психогенетикаб, близнецовый метод, монозиготные близнецы, дизиготные близнецы, влияние соцального среды, факторы социальной среды, модель идентификации.*

Abstract. *The article ehamines the influence of environmental and genetic factors on the formation of intelligence, and the problem of their interdependence. Also, an analysis of the researches and studies conducted on this problem is given. Determining the factors that determine the formation of the intellectual potential of a person, solving the problem in a practical way is of great importance for us and has a direct impact on the development of the next generation.*

Key words: *Intellectual potential, heredity, psychogenetics, twin method, monozygotic twins, dizygotic twins, environmental influence, social environment factors, identification model.*

Kirish. Insonning intellektual salohiyati kishining shaxsiy rivojlanishi va komillikka erishishidagi juda muhum xususiyatlardan biridir. Shuning uchun ham olimlar tomonidan yillar davomida intellekt tushunchasi, uning xususiyatlari, rivojlanish bosqichlari to'g'risida turli muhokamalar va tadqiqotlar olib borilgan. Shuningdek intellekt shakllanishi nima bilan bog'liqligini aniqlash doimo dolzarb muammo bo'lib kelgan. Shunda savol tug'iladi? Intellektning shakllanishini ijtimoiy ta'sirlar, tashqi muhit shart sharoitlari belgilab beradimi yoki irsiyat, ularning nisbati qanday degan?

Bu savolga javob sifatida quydagilarni keltirish mumkin: intellekt rivojlanishini belgilovchi omillarni o'rganish psixologiya tarixida eng munozarali masalalardan biridir. F.Galton birinchi bo'lib psixogenetiklar hozir ham qo'llayotgan asosiy metadologik texnikani qo'llagan. U o'zining mulohaza va fikrlarini 1869-yilda nashr etilgan "Irsiyat dahosi: uning qonunlari va qoidalarini o'rganish" kitobida jamlagan. Ushbu kitobda Galton tarixning barcha davrlarida mashhur bo'lgan tadqiqotni o'tkazadi, 500 ga yaqin kishilarning qarindoshlik aloqalarini sinchkovlik bilan kuzatadi va tahlil qiladi. Galtonning fikricha insonning

psixologik xususiyatlariga irsiyatni ta’sirini o‘rganish uchun bu xususiyatlarni yaxshilab aniqlash va ma’lum munosabatdagi odamlar (egizaklar, o‘gay farzandlar, ota onalar va bolalar)da taxminlarni solishtirish kerak. Uning irsiyatni rolini aniqlashda egizaklardan foydalanish g‘oyasi fanga salmoqli hissa qo‘shdi, chunki hozirgi vaqtda ham irsiyat ta’sirini o‘rganishda qo‘llanilayotgan egizaklar usulini rivojlanishiga turtki bo‘ldi.

Metod. Ko‘pchilik olimlarning fikriga ko‘ra intellekt shakillanishida irsiyatni rolini o‘rganishning eng ishonchli usuli bu egizaklar metodidir. Egzaklar metodining asosiy mohiyati birgalikda va alohida yashovchi egzaklarning rivojlanishidagi o‘xshashlik va farqlarni o‘rganishdan iborat. Ushbu turdagi tadqiqotlar turli mamlakatlarda o‘tkazildi va tadqiqotlarda egzaklarning go‘daklikdan qarilikkacha bo‘lgan davrlari tahlil qilindi. Olib borilgan tadqiqotlar intellekt rivojlanishi bilan bog‘liq yuzaga keladigan bir qator savollarga javob berish imkonini berdi.

“Inson individualligining shakllanishida atrof-muhit va irsiyatning roli” kitobida keltirilgan,1963-yildan 1980-yilgacha bo‘lgan davrda G‘arbiy Yevropa va AQSHda genetiklar va psixologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotni tahlil qiladigan bo‘lsak, tadqiqotda uchta guruhga mansub odamlar tekshiriladi. Bular quyidagilar:

1.Genetik jihatdan butunlay bir xil - bu guruhga monozigotik egizaklar kiradi, ya’ni ular bitta tuxumdan rivojlanadi va bir xil xromosomalar to‘plamiga ega bo‘lishadi.

2. Genetik jihatdan yaqin kishilar – bu guruhga ba‘zi genlari o‘xshash boshqalari farqli bo‘lgan shaxslar kiradi .Masalan dizigotik egizaklar ,bir ota onaning bolalari .

3. Genetik jihatdan bog‘liq bo‘lmagan shaxslar – o‘gay farzandlar ,o‘gay aka ukalar, turmush o‘rtoqlar .

Yuqorida keltirilgan uchta guruhga mansub shaxslar o‘rganilganda shu narsa ma’lum bo‘ldiki, birgalikda voyaga yetgan monozigotik egizaklar intellekt shakllanishi jihatidan juda o‘xshash bo‘lsa, alohida o‘sgan monozigotik egizaklarda o‘xshashlik nisbatan kamroq. Yuzaga kelgan bu farqlar ularni turli muhit sharoitlarida o‘sganli bilan izohlanadi. Xuddi shunday natijalar dizigotik egizaklarda ham kuzatiladi, ular albatta intellekt jihatidan monozigotik egizaklarga qaraganda bir-biriga kamroq o‘xshashdir. Ya’ni dizigotik egizaklar genetik jihatdan bir xil emas ,ular o‘xshash genlarga ega bo‘lib, qizig‘i shundaki bolaning jinsi muhim emas, bir xil va qarama-qarshi jinsdagi egizaklar bir biriga teng darajada o‘xshaydi. Bu fakt irsiyat intellektning rivojlanish darajasida yetakchi rol o‘ynashini tasdiqlaydi.

Ota onalar va ularning farzandlarida intellekt rivojlanishidagi bog‘liqliklar to‘g‘risida to‘xtaladigan bo‘lsak ,o‘gay ota-onalar tarbiyalagan bolalarning intellekt darajasi, asrab olgan ota-onasidan ko‘ra ko‘proq biologik ota-onasiga bog‘liq bo‘lishi aniqlangan .Bu ham intellekt bilan irsiyat o‘rtasidagi aloqaning muhumligini isbotlovchi yana bir dalildir.

I.V.Ravich-Sherbo (1999) ham ushbu masala doirasida o‘tqazilgan psixogenetik tadqiqotlarni tahlil qilar ekan, tebranishlardan qat’i nazar korrelyatsiya koefitsientlarining qiymatlari bir xil qonuniylikdaligi aniqlangan,bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, bir xil bo‘lgan genlarda atrof muhit har xil bo‘lsa ham, intellekt o‘xshashligi yuqori darajada bo‘ladi va odamlar o‘rtasidagi farqlarning 40% dan 80%gacha bo‘lgan qismi irsiyatdagi farqlar bilan bog‘liq. Ya’ni insonlarning intellektual rivojlanishidagi farqlarning o‘rtacha 50%i genlar bilan belgilanadi deyishimiz mumkin.

Agar biz intellektning rivojlanish darajasi irsiyat bilan aniqlanadi deb hisoblasak, biologik ota-onalar va farzandlarning IQ darajasi o‘rtasida bir xillik kuzatilishi va shu bilan birga farzand asrab olgan oilalardagi o‘gay ota-ona va farzand o‘rtasida esa hech qanday bog‘liqlik kuzatilmasligi kerak. Xush haqiqatdan ham shundaymi? Umuman olganda bolalarning intellektual qobiliyatlari albatta ota-ona genlaridan bolaga o‘tadi, lekin bu bilan biz bola aqliy faoliyatining barcha turlari irsiy demoqchi emasmiz. S. Jenks tadqiqotlarni o‘rganib chiqib, biologik ota-onalar va ularning farzandlari o‘rtasidagi korrelyatsiya

koeffitsientining o‘rtacha qiymati 0,55 degan xulosaga keladi. Asrab olingan bolalarga nisbatan bu ko‘rsatkich 0,28 ga kamayadi. M.Shiff va K.Levontin tadqiqotlarida farzandlar va biologik ota-onalar o‘rtasida bog‘liqlik saqlanib qolsada, ular boshqa ijtimoiy muhitga joylashtirilganda asrab olingan bolalarning IQ darajasi sezilarli ravishda o‘zgarishini isbotlab berishgan.Bundan ko‘rinib turibdiki bolalarning intellekt darajasi o‘z ota-onalari(irsiyat) bilan birga asrab olgan ota-onalar(ijtimoiy muhut,oilaviy shart sharoiti, muloqot qilishi)ga ham bog‘liq ekan. E’tibor berish kerakki bu yerda bolalarni asrab olgan ota-onalar ta’siri deyilganda , ularni atrof - muhit orqali qiladigan ta’siri nazarda tutilgan.

D.Fuller va V.Tompson ijtimoiy muhitning bolalarning intellektual rivojlanishga ta’sirini tushuntiruvchi uch turdagi modelini keltirib o‘tgan:

- Modellarning birinchi turi - bolalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlanishiga turtki bo‘luvchi ota – ona va bolalar o‘rtasidagi muloqot.
- Ikkinchisi – identifikatsiya modeli .Bunga ko‘ra bolalar ijtimoiy guruhlar bilan aloqaga kirishish jarayonida turli rollarni o‘zlashtiradi, ular bilan bog‘liq bilim va ko‘nikmalarni ma’lum darajada egallaydi.
- R.Zayontz boshchiligidagi uchunchi model bu – bolaning intellekt darajasi oiladagi bolalar soni bilan bog‘liqligini tahmin qiluvchi model.

Asosiy qism. Yuqorida sanab o‘tilgan intellekt shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi model turlarining barchasi o‘ziga xos ahamiyatga ega hisoblanadi. Masalan birinchi turdagi model - unga ko‘ra bolada aqliy qobiliyatlarning shakllanishini, uning ota onasi bilan muloqot qilish jarayoni belgilaydi. Darhaqiqat, bola uchun ilk ijtimoiy guruh bu oila hisoblanadi va bolaning ota - ona yoki boshqa oila a’zolari bilan muloqot qilishi, muomalada bo‘lishi bevosita undagi intellektual qobiliyatlarni shakillanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Ammo psixologik tadqiqotlar ma’lumotlari bu modelni qo‘llab – quvvatlamaydi. Chunki modelga tayanadigan bo‘lsak asosan o‘smir yoshgacha bolalar onalari bilan ko‘proq muloqot qilganliklari uchun bolaning intellekti va ona intellekti o‘rtasidagi bog‘liqlik, otalar va bolalarnikidan yuqori bo‘lishi kerak edi, bu esa amalda kuzatilmaydi. Ayrim olimlarning fikriga ko‘ra bolalar va ota onalar o‘rtasidagi intellektning o‘xshashligi hissiy munosabatlar bilan belgilanishi kerak. Kishining intellekti va kreativligini rivojlantirishda oila ichidagi muloqot, bolaga sarfalanadigan vaqt muhim omil hisoblanadi. V.N.Drujinin ushbu masalaga boshqacharoq yondoshadi, unga ko‘ra bolaning aqliy rivojlanishi ota-ona bilan o‘tqazilgan vaqt yoki muloqotga emas, balki oila a’zolari bilan bo‘lgan emotsional aloqalarga bog‘liq. Bolalarda emotsional aloqalarning yaxshi bo‘lishi bevosida oila a’zolar bilan muloqot jarayonining ham samaradorligiga ta’sir etadi,ya’ni ular bir- biri bilan uzviy aloqador. Bola o‘z oilasida qanchalik o‘zini erkin his qilsa, onasi yoki boshqa oila a’zolari bilan emotsional yaqin bo‘lsa, o‘z tuyg‘ularini ifoda eta olsa, uning kommunikativ aloqalari ham,kognitiv jarayonlari va aqliy rivojlanish intensivligi ham shuncha yuqori bo‘ladi. Bolalarni tarbiyalash jarayonida ona bolalarga emotsional yaqin bo‘lganligi sababli, bolaning intellektual va kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shunday qilib onalik effekti deb ataladigan intelektual ta’sir yuzaga keladi.

Keyingi model yuqoridagi pozitsiyaga o‘xshash identifikatsiya modeli.Uning asosiy mazmuni sotsiolizatsiya jarayonidan iborat bo‘lib, bolaning yangi rollarni egallashi, ota-onaga xos xatti-harakatlarni o‘zlashtirish bilan kechadi. Bu bosqichda bola ijtimoiy muhitga moslashadi va muhit ta’siriga bog ‘liq holda intellektual qobiliyatlari shakillanadi va yuzaga chiqadi.

Uchinchi model R.Zayontz ishlab chiqgan model. Bunga ko‘ra bolaning intellekti oliadagi bolalarning tug‘ilish ketma-ketligiga bog‘liqligi tahmin qilinadi. Demak oila a’zolari soni nechta bo‘lsa ham ularning barchasi o‘z intellekt darajasiga ega. Barcha oila a’zolari o‘zaro aloqada va bir birlariga ta’sir etishadi.Modelga ko‘ra oilada, qolgan bolalarga qaraganda to‘ng‘ich farzandning intellektual salohiyati yaxshi rivojlangan bo‘ladi, chunki u birinchi farzand bo‘lganligi uchun ota-onasining e’tiborini ko‘p tortadi, ular bilan ko‘proq

munosabatda bo‘ladi. E’tibor beradigan bo‘lsak bu modelda, birinchi va ikkinchi modellarni izlarini ko‘rishimiz mumkin, ya’ni ota-ona bilan muloqot yoki yangi ijtimoiy rollarni taqsimlanishi, aynan shu omillar oiladagi farzandlarning intellekt tafavvutlarini belgilab beradi. Qisqa vaqtdan keyin tug‘ilga aka ukalar va opa singillar esa egizaklarga o‘xshaydi:ular oilaviy muhitda o‘zaro raqobatda bo‘lishadi. Natijada oilaviy umumiy “intellekttual iqlim” yuzaga keladi.

Oiladagi intellektual mikroiqlimni bolalar soniga bog‘liqligini o‘rganish bo‘yicha olimlar turli tadqiqotlar olib borishgan. A.I.Savenkov olingan ma’lumotlarni tahlil qilib, 1976-yilda aniqlangan Amerika fuqorolarining oilalarida bolalar sonining o‘sishi tendensiyasi asosida amerikalik maktab o‘quvchilarida aqliy qobiliyatlarni, 1980-yilgacha asta-sekin pasayishini tahmin qilgan. Ya’ni u R.Zayontz pragnozini to‘g‘ri deb hisoblagan. Lekin shuni ham unutmasligimiz kerakki, modelda ta’kidlanganidek to‘ng‘ich farzand intellekti yuqori emas, balki o‘rta yoki kichik farzandlarda ham intellektual salohiyatni, boshqa aka ukalariga qaraganda yaxshi rivojlanganligini, tug‘ulishlar ketma ketligiga bog‘liq emasligini kuzatamiz. Bunday holat ota ona ayrim sabablarga ko‘ra birinchi farzand bilan kam muloqotda bo‘lgani yoki e’tiborni yetoshmasligi, emotsional to‘siqlarni bo‘lishi natijasida kamdan kam hollarda yuzaga keladi. Demak aslida tug‘ilish ketma ketligidagi farqlarning yuzaga kelishiga sabab ham bu oiladagi munosabatlardir.

Xuddi shu munozaraga aloqador tadqiqot Skills va uning hamkasblari tomonidan 1930-yillarda olib boriladi. Bunda Ayova shtatidagi aqli zaif bolalar uchun pansionatlardan birida 25 ta chaqaloqdan iborat guruh tashkil qilinadi. Ular har doim o‘rinlarida yolg‘iz yotar va bir birida pardalar bilan ajratilgan edi. Bolalar kattalar bilan faqat ularga g‘amxurlik qilish (ovqatlantirish) jarayonidagina muloqot qilishardi. Bu sharoitda tarbiyalangan bolalar, hech qachon normal intellektual moslashishga erisha olmaydi, ko‘p qismi aqliy nogironlar klinikasida qoladilar. Ushbu bolalar intellekti boshqa bolalar singari normal rivojlanishi uchun ularga oila mehri, ota-ona hissiyoti, muhabbati, g‘amxo‘rligi, muloqoti zarur edi. Skills 13 nafar bolani olib, ularni ruhiy nogiron ayollar muassasasiga olib boradi. Ayollar chaqaloqlarga o‘z bolalaridek mehr berishadi, suhbatlashishadi va ular tez orada boshqa bolalar singari normal rivojlana boshlaydi (keyinchalik ularni 4 tasi oliy ma’lumotli bo‘ldi). Ya’ni tadqiqotdan xulasa qiladigan bo‘lsak, bolaning intellekti, moslashuvchanligi, kognitiv jarayonlarining rivojlanishi uchun u yashayotgan ijtimoiy muhit ham ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatadi. Bola ijtimiy muhitdan, muloqotdan ,oila etiboridan deprivatsiya (mahrum) qilinsa ularning intellektual salohiyati boshqa tengdoshlarinikidan farqli ravishda past bo‘ladi. M.Runko va M.Belenda ham maktab o‘quvchilarida divergent fikirlash va intellektning rivojlanish darajasini sinovdan o‘tkazadilar. Natijalarga ko‘ra oilada o‘sgan bolalargina divergent fikirlash uchun eng yaxshi natijalarni qo‘lga kiritgan va bunda muloqot doirasining kengligi muhum omil hisoblangan. Oilada aka-uka va opa-singillari bo‘lgan, muloqot doirasi ancha keng bo‘lgan bolalarda kognitiv jarayonlar (sezgi, xotira, idrok, tafakkur, nutq), kommunikativ aloqalar, intellektual qobiliyatlarni shakllanish darajasi boshqa bolalarnikiga nisbatan yaxshi bo‘lgan.

Oilaning tarkibiy jihatlarini bolalarning intellektiga ta’sirini aniqlash borasida o‘tqazilgan tadqiqot natijalaridan kelib chiqib K.D.Ushakov quyidagicha xulosaga keladi:

1.Ota-onasining yoshi katta bo‘lgan bolalarning aql-zakovat darajasi, yosh ota-onalari bo‘lgan bolalarnikidan o‘rtacha yuqori.

2.Farzandlar soni kam bo‘lgan oilalarda ,bolalarning intellekti yuqori.

3.Oilalarda bolalarning aql-zakovatining psixometrik ko‘rsatkichlari ,katta yoshdagi bolalardan kichiklariga kamayadi.

4.Bolalarning tug‘ilishi orasidagi vaqt oralig‘ining qisqarishi bilan ko‘p oilalarda intellekt pasayishi tendensiyasi kuzatiladi.

5.Oilaning yuqori ta’lim va iqtisodiy mavqei bolalar aql-zakovatining rivojlanishiga foydali ta’sir ko‘rsatadi: bunday oilalarda yosh avlodning rivojlanishi darajasi yuqori bo‘ladi.

Tadqiqot natijalarini tizimlashtirish va atrof-muhit omillarining intellekt va kreativlikni rivojlantirishga ta’siri muammosini nazariy tahlil qilish orqali K.D.Ushakov qobiliyatlarni ijtimoiy aniqlash modelini ishlab chiqishga muvofiq bo‘ldi.U eksperimental ma’lumotlardan kelib chiqib ,atrof-muhit intellektining bolaning kognitiv rivojlanishiga aniq ta’sir ko‘rsatadigan ishonchli dalillar yo‘qligini ta’kidlaydi.V.N.Drujinin va O.N.Skoblik ijtimoiy muhitning kognitiv va hissiy omillarining murakkab o‘zaro ta’siri va ularning bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlariga deterministik ta’sirini aniqlashdi.Tadqiqotlar bolaning aql-zakovati unga hissiy jihatdan yaqinroq bo‘lgan ota-onaning intellekti bilan ko‘proq bog‘liqligi ko‘rsatib berdi.

Yuqorida qayd etilgan tadqiqot va fikr mulohazalarda o‘rganilayotgan asosiy muammo bu bolalarning intellektual qobiliyatlarini shakillanishida ota-onalar o‘rnini aniqlash, ularning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganishdan iboratdir. Biz ulardan xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, har bir ota-ona o‘z farzandlarining intellektini rivojlantirishga ikki tomonlama ta’sir ko ‘rsatadi. Ya’ni bir tomondan agarda ota-onalar yuqori intellektga ega bo‘lsa,ular buni genlar orqali bolalariga o‘tqazadilar va ikkinchi tomondan farzandlari dunyoga kelgandan so‘ng ularning intellektlari yuqori darajada rivojlanishi uchun munosib muhit,shart-sharoit yaratib berishadi. Shunqay qilib ota-onalar bolalarining intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ikki xil ta’sir etishadi.

Yuqorida bolalarning kognitiv jarayonlari, individual xususiyatlari va intellektual qobiliyatlarining rivojlanish jarayonida atrof muhitning ham,irsiyatning ham ta’sirini o‘rganuvchi ko ‘plab tadqiqot va nazariyalarni keltirib o‘tdik.Ammo masalaning yana bir tomoni mavjud bo‘lib, bu irsiyat va artof-muhitning o‘zaro ta‘siridir. R.Plomin va uning hamkasblari huddi shu masalani o‘rganishga kirishishdi. Ular genetik-atrof-muhit o‘zaro ta’sirini eng mashhur modelini taklif qilishdi. Plomin **genotib-atrof-muhit** korrelyatsiyasining uch turini ajratib ko‘rsatadi:

- ✓ **Passiv ta’sir** – bir oila a’zolar umumiy irsiyat va umumiy muhitga ega bo ‘ladi,ya’ni genotip va atrof-muhitning tasodifiy kombinatsiyasi yuzaga keladi;
- ✓ **Reaktiv ta’sir –** ma’lum shaxsiy xususiyatlarning shakillanishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan ,shaxsning tug‘ma xususiyatlarining namoyon b‘lishiga atrof-muhit reaktsiyasi;
- ✓ **Faol ta’sir-** shaxs o‘z irsiyatiga eng mos keladigan muhitni faol ravishda qidiradi yoki yaratadi.

Genotib-atrof-muhit o‘zaro ta’sirining birinchi variantiga musiqachilar oilasi misol bo‘la oladi: o‘zi genlar sabab musiqiy qobiliyatiga moyil bo‘lgan bola, musiqiy muhitda rivojlanadi. Qo‘shimcha qilib shuni aytish kerakki ,bu jarayonda bola o ‘z qobiliyati bo‘yicha juda yaxshi rivojlanadi va kelajakda ko‘plab yutuqlarga erishishi mumkin. Ikkinchi variantga, farzand asrab olgan ota-onalarning asrab olgan bolalariga ularning individual rivojlanish darajasiga qarab turlicha munosabatda bo‘lishini misol qilishimiz mumkin. Asosan bu jarayonda bolalarning tug‘ma qobiliyatlari yuzaga chiqishi uchun atrof-muhit asosiy rol o‘ynaydi.Uchinchi variantga kelsa , bunda bola o‘z qiziqishlarini anglab yetishi va shunga mos ravishda faol ravishda muhitni tanlashi kerak bo‘ladi. Bolaning rivojlanishi davomida genotib-atrof-muhit korrelyatsiyasining turi passivdan, reaktiv va faolgacha ketma-ket o‘zgaradi, degan taxmin mavjud.

Genotib-atrof-muhit korrelyatsiyasining mohiyati shundaki, har bir inson hayoti davomida o‘z atrof-muhitini shakillantirishda faol ishtirok etadi, uning elementlarini genetik jihatdan moyilligiga mos ravishda tanlaydi va o‘zgartiradi.

Shunday qilib inson intellektini shakillanishida atrof muhit ko‘proq ta’sir ko‘rsatadimi yoki irsiyat ?

Bu savolga biogen (biogenetik) yo‘nalish tarafdorlari, shu sohada ish olib borgan olimlar irsiyatga ustunlik berishsa, sotsiogen (sotsiogenetik) yo‘nalish vakillari esa atrof - muhitga ustunlik berishadi.

Ingliz psixologi D.Shattlvort (1935) atrof - muhit va irsiyatning aqliy rivojlanishga ta’sirini miqdoriy nisbatlarini aniqladi: 64 % - irsiy ta’sirlar,16 % - oiladagi muhit darajasidagi farqlar, 3 % - oiladagi bolalar tarbiyasidagi farqlar, 17 % - aralash omillar (irsiyatning atrof - muhit bilan o‘zaro ta’siri).

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, insonning shaxsiy rivojlanish jarayonida atrof – muhit ham irsiyat ham intellektning shakillanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatar ekan.Yuqorida ko‘rib chiqilgan tadqiqotlar, egizaklar metodi orqali o‘tkazilgan ilmiy ishlar, D.Fuller va V.Tompson ishlab chiqgan modellar, Skills tadqiqotlari va boshqa olimlarning ishlaridan umumiy xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, intellektual qobiliyatlar insonga irsiy beriladi va atrof muhit omillari bilan bog‘liq holda taraqqiy etadi, butun hayot davomida rivojlanadi. Inson ontagenez jarayonini o‘rganar ekanmiz, intellekt darajasi insonning hayoti davomida o‘zgarishini ko‘ramiz.Tadqiqotlarga ko‘ra intellekt 20-23 yoshgacha rivojlanadi, keyin u ma’lum darajada mustahkamlanadi va turli yoshlarda intellektning turli komponentlari (masalan qaysidir yoshda mantiqiy tafakkur) ustunlik qilishi mumkin. Yosh ulg‘aygan sari intellektual qobiliyatlar ham asta sekin sustlashib boradi, qachonki doimiy ravishda intellektual faoliyat mashq qilib turilsa bu jarayon ancha sekinlashadi. Ya’ni aqliy qobiliyatlar o‘z darajasini yo‘qotmaslik uchun har qanday yoshda mashq qilishni talab qiladi.

Adabiyotlar

1. Роль генетических и средовых факторов в развитии интеллекта: история, состояние и перспективы Текст научной статьи по специальности «Психологические науки» С. Б. Малых

2. "Роль среды и наследственности в формировании индивидуальности человека. М.,Педагогика, 1988, с.180-210.

3. Л.Ф. Бурлачук Психодиагностика: Учебник для вузов -СПБ:ПИТЕР 2006.-351с

4. В.Н. Дружинин “Психология и психодиагностика общих способностей”. М., Академия, с.83-

5. Глебова М.В. Влияние средовых факторов на развитие интеллекта и креативности // Международный журнал экспериментального образования. – 2016. – № 4-2. – С. 220-223;

TIBBIYOT HAMSHIRALARI FAOLIYATIDA SHAXSLILIK XUSUSIYATLARI NAMOYON ETILISHINING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Narzilloyeva Salomatbonu Sunatulloyevna,
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tibbiyot hamshiralarining kasbiy faoliyat samaradorligiga ta'sir qiluvchi shaxslilik xususiyatlari va ularning ilmiy tahlili o'z ifodasini topgan. Shuningdek, tibbiyot hamshiralari shaxslilik xususiyatlarini va uni tadqiq qilish uslubi aniqlangan. Ayni paytda, sog'liqni saqlash tizimida faoliyat yuritayotgan tibbiyot hamshiralarining shaxslilik xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan metodikalarni tanlanishi va ularni tadqiqot maqsadiga mos ravishda modifikatsiya qilinishi bugungi ijtimoiy psixologiyada muhim ahamiyatga ega bo'lgan muammolardan biri sanaladi. Olib borilgan ilmiy-nazariy tahlillar, bugungi kunda tibbiyot hamshiralarini kasbiy faoliyatiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlashni hamda ushbu omillarni shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik mexanizmlarni ishlab chiqish dolzarbligini ko'rsatmoqda.*

Kalit so'zlar: *psixologik kompetentlik, «Men-konsepsiyasi», agressiya, ijtimoiy dadillik, ijtimoiy yetuklik muloqot.*

Аннотация. *В данной статье представлены личностные характеристики медицинских сестер, влияющие на их профессиональную деятельность и их научный анализ. Также определены особенности личности медицинской сестры и метод ее исследования. На данный момент одной из важнейших проблем современной социальной психологии является выбор методов, направленных на изучение личностных качеств медицинских сестер, работающих в системе здравоохранения, и их модификация в соответствии с целью исследования. Проведенный научно-теоретический анализ показывает важность выявления социально-психологических факторов, влияющих сегодня на профессиональную деятельность медицинских сестер, и разработки психологических механизмов, влияющих на формирование этих факторов.*

Ключевые слова: *психологическая компетентность, Я-концепция, агрессия, социальная смелость, социальная зрелость, общение.*

Annotation. *This article presents the personal characteristics of nurses that influence their professional activities and their scientific analysis. The personality traits of the nurse and the method of her research are also determined. At the moment, one of the most important problems of modern social psychology is the choice of methods aimed at studying the personal qualities of nurses working in the healthcare system, and their modification in accordance with the purpose of the study. The conducted scientific and theoretical analysis shows the importance of identifying socio-psychological factors that influence the professional activities of nurses today, and the development of psychological mechanisms that influence the formation of these factors.*

Key words: *psychological competence, self-concept, aggression, social courage, social maturity, communication.*

Kirish. Jahonda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda tibbiyot hamshiralari professional kompetentligining psixologik asoslarini o'rganish, kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish, ularning psixologik mezonlarini tizimlashtirish, sotsial-psixologik kompetentlik ko'rsatkichlarini tadqiq etish va rivojlantirish modelini yaratish hamda takomillashtirishga mo'ljallangan maxsus modellashtirilgan topshiriqlardan iborat psixodiagnostik metodikalar majmuini ishlab chiqish bo'yicha izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada tibbiyot xodimlarining psixologik tayyorgarlik darajasini yuksaltirish, ularning sotsial-psixologik kompetentligini

shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar va mexanizmlarini aniqlash, tibbiyot xodimlari kasbiy tayyorgarlik rolini oshirish va ularning faoliyat samaradorligiga ta’sirini aniqlashga yo‘naltirilgan tadqiqot ishlariga e’tibor qaratish zarurati kuzatilmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda sog‘liqni saqlash tizimini tubdan isloh qilish, kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va soha mutaxassislarining kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishning alohida zarur huquqiy-me’yoriy asoslari yaratildi: «Aholiga tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmat ko‘rsatish qulayligi va sifatini oshirish, ...sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ... sog‘liqni saqlash sohasini, eng avvalo, uning dastlabki bo‘g‘inini, tez va shoshilinch tibbiy yordam tizimini yanada isloh qilish», ustuvor vazifa sifatida qaralishi e’tiborga molik. Bu borada tibbiyot xodimlarini kasbiy kompetentligini takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan yangicha nazariy yechimlarni topish imkoniyatlari yaratildi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Tibbiyot hamshiralarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalari Sharqning buyuk mutafakkirlarini asrlar davomida qiziqtirib kelgan. Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy o‘z asarlarida, insonlarni tushunish, muloqotmandlik, suhbatdoshning xulq-atvori, xatti-harakatlari, kechinmalariga nisbatan adekvat sezuvchanlik, axloqiy ustanovkalar kabi sifatlarining namoyon etilishini «yuqori darajadagi axloqiy sifatlar» deb ta’riflaganlar. Mashhur mutafakkir Abu Bakr ar-Roziy o‘z davrida bemorlarni davolashda ularga ruhiy ta’sir qilish muhim omillardan biri ekanligini ta’kidlagan. Shuningdek, Ismoil Jurjoniy, Masixiy Al Karvakiy, Chag‘miniy kabi tabiblar ham kasallikni davolashda tibbiyot xodimlarining sotsial-psixologik kompetentlik omillari roli va ahamiyati muhimligi e’tirof etilgan.

O‘zbekistonda sotsial-psixologik kompetentlik omillarining kasbiy kompetentlikka ta’siri, o‘rni va ahamiyati Sh.R.Baratov, M.G.Davletshin, A.M.Jabborov, V.M.Karimova, D.G.Muhamedova, Z.T.Nishonova, Sh.J. Usmonova. B.R.Qodirov, E.G‘oziyev, G‘.B.Shoumarovlar tomonidan ilmiy tadqiq etilgan. Tibbiyot xodimlarining sotsial-psixologik kompetentligini tashkil etuvchi psixologik mexanizmlar, kasalliklarga ta’sir qiluvchi psixologik omillar, tibbiyot xodimlarining shaxsiy sifatlarini, ularning kasbiy faoliyat samaradorligiga ta’siri masalalari Z.Abidova, Z.R.Ibodullayev, D.I.Ilhamova, M.X.Karamyan, Yu.K.Narmetovalar tadqiqotlarida o‘rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi olimlaridan I.F.Bashirov (harbiy psixologlar faoliyatida sotsial-psixologik kompetentlikning roli), I.A.Egorov (korxona rahbari emotsional intellektining xodimlariga ta’siri), V.V.Boyko (rahbar kommunikativ kompetentligi shakllanishining kasbiy kompetentlikka ta’siri) sotsial-psixologik kompetentlik omillarining kasbiy faoliyat samaradorligiga ta’sirini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar olib borishgan. Professional kompetentlikning tuzilishi va shakllanishiga qaratilgan masalalar A.A.Bodalev, Ye.P.Ermalayeva, N.A.Kuzmina, A.K.Markova, L.M.Mitina, Ye.A.Mileryan, L.E.Panin,L.A.Petrovskaya, P.A.Shavir tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. V.S.Ageyev, M.I.Bobneva, I.F.Demidova, N.F.Efremova, Yu.M.Jukov, I.L.Zimnyaya, V.Kunisina, Yu.Makarov, A.P.Panfilova va boshqalar sotsial-psixologik kompetentlik fenomenining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ilmiy tadqiq etganlar.

Xorij tadqiqotchilaridan G.Gardner, Daniel Goulman, Robert Torndayk, P.Selov va J.Mayerlar o‘z tadqiqotlarida sotsial-psixologik kompetentlikka ta’sir qiluvchi omillar va komponentlarni ilmiy asoslab berishgan.

Tadqiqotlar natijalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga doir ilmiy izlanishlar olib borilishiga qaramay, aynan, tibbiyot hamshiralari sotsial-psixologik kompetentlik omillarining kasbiy faoliyat samaradorligiga ta’siri masalalari yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Tibbiyot hamshiralari kasbiy faoliyatini samaradorligini rivojlanishida shaxslilik xususiyatlarining o‘rni va ahamiyatini belgilashda biz R.B. Kettellning «Shaxsni 16 omil yordamida o‘rganish» so‘rovnomasiga tayandik. Ma’lumki, R.Kettellning «Shaxsni 16 omil yordamida o‘rganish» so‘rovnomasi shaxsning psixologik xususiyatlarini yoritishga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Kettell so‘rovnomasi ijtimoiy psixologiya sohasida eng ko‘p tarqalgan hamda o‘zining ishonchliligiga va validligiga ega bo‘lgan metodikalardan biri hisoblanadi. R.Kettellning «Shaxsni 16 omil yordamida o‘rganish» testini tadqiqotimizda foydalangan shaklini professor A.M.Jabborov o‘zining “O‘zbek maktab o‘qituvchisining psixologik va etnik xususiyatlari” nomli doktorlik dissertatsiyasida modifikatsiya qilgan. Tadqiqotimizda so‘rovnoma tarkibidagi omillarning oltitasi klinik xarakterga ega ekanligi bois, faqat o‘n omilidan foydalanishni lozim topdik. Biz foydalangan omillar esa, aynan shaxsning psixologik xususiyatlarini yoritishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Ushbu o‘nta omil ko‘rsatkichlarini baholash orqali, tibbiyot xodimlarida shakllangan shaxslilik xususiyatlariga baho berish mumkinligi nuqtayi nazardan tadqiqot umumiy maqsadiga moslashtirildi. Bizning izlanishimizga qadar olib borilgan tadqiqotlarda ham ushbu metodikadan keng foydalanilgan. Bu esa bizning amaliyot uchun obyektiv ilmiy ma’lumotlar berishga xizmat qiluvchi psixodiagnostik metodika sifatida tatbiq etishimizda qo‘l keldi.

R.Kettell so‘rovnomasi 16 ta asosiy shaxs faktorlari haqida ma’lumot olish imkonini beradi. U faktorlar shaxsning emotsional, bilish, xulq tomonlarini qabul qilgan umumiy psixologik tuzilishiga ega. So‘rovnoma yordamida quyidagi tavsilotlarni bilish imkoniyati tug‘iladi: A – yopiq (odamovilik) - muloqotchanlik, V – past intellekt - yuqori intellekt, S – emotsional beqarorlik – emotsional turg‘unlik, Ye – itoatkorlik – mustaqillik, F – mulohazalilik – ekspressivlik, G – his-tuyg‘uga beriluvchanlik – yuqori normativ xulq, H – tortinchoqlik – botirlik, I – shafqatsizlik – yumshoq ko‘ngillilik, J – ishonuvchanlik - shubhalanuvchanlik, M – amaliylik - xayolparastlik (rivojlangan tasavvur), N – tabiiy oddiylik – diplomatlilik, O – o‘ziga ishonish – aybdorlik hissiga moyillik, Q1 – rigidlik - o‘zgaruvchanlik, Q2 – konformizm (guruhga tobelik) - mustaqillik, Q3 – o‘zini-o‘zi nazorat qilishining past darajasi – o‘z hulqini nazorat qilishning yuqori darajasi, Q4 – kuchsizlik - frustratsiya, MD - o‘ziga bahoning adkevatliligi - o‘zini baholashning noadekvatliligi.

- Tahlil va natijalar (Analysis and results). Metodika oldingi metodikalar singari tadqiqot obyektiga tatbiq etildi. So‘rovnomaning umumiy va xususiy hollardagi natijalarini quyida batafsil tahlil etib o‘tamiz

Tibbiyot xodimlarining R.B. Kettellning «Shaxsni 16 omil yordamida o‘rganish» so‘rovnomasiga tayanib olgan natijalarimizda shaxslilik xususiyatlari quyidagi psixologik tavsiflarga ega ekan. Deyarli barcha omillar bo‘yicha tibbiyot xodimlarining ko‘rsatkichlari o‘rtachadan yuqori zonadan o‘rin oldi(1-jadval).

Ularning ushbu shaxslilik xususiyatlari ko‘rsatkichini omillar bo‘yicha xususiy hollarda talqin etiladi:

Muloqotga moyillik (A) shkalasi (5,28). Bu qiymat shu bosqichdagi tibbiyot xodimlarini boshqalar bilan hamkorlik qilishga tayyor, diqqat-e’tiborli, qattiq g‘azablanish yoki xursand bo‘lish holatlariga (ichki hayajonlanish, ehtiros) tushmasliklari, o‘z hulqini boshqara olish qobiliyatiga ega ekanliklari, ayni paytda rahmdil va samimiy, shu bilan birga o‘zgacha uslubda talabchanliklarini anglatadi.

Hissiy barqarorlik (S) (5,20±1,76). Bu ko‘rsatkichda pedagoglarga xos o‘z hislarini va kayfiyatini boshqara oladigan, «Men timsoli» kuchi yuqoriroq ekanligi, «Men» konsepsiyasini ijobiy bo‘lishiga intiluvchanligi, kasbiy faoliyatda ma’lum darajada

muvaffaqiyat bilan ishlashlari mumkinligini bildiradi. Agarda tibbiyot xodimlarida hissiy barqarorlik yanada yuqori darajada bo‘lsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi deyish mumkin.

1-jadval

Tibbiyot hamshiralarida shaxslilik xususiyatlari namoyon etilishining umumiy ko‘rsatkichlari

	Omillar	X	U
«Shaxsni 16 omil yordamida o‘rganish» so‘rovnomasi (R.B.Kettell)	Muloqotga moyillik (A)	5,28	1,61
	Hissiy barqarorlik (S)	5,20	1,76
	Hukmronlikka intilish (Ye)	5,34	1,57
	Ijtimoiy yetuklik (Qr)	5,31	1,52
	Ijtimoiy dadillik (N)	5,56	1,61
	Ishonuvchanlik (J)	5,06	1,68
	O‘ziga ishonish (Q)	5,11	1,58
	Mustaqillik ($Q_{2.}$)	5,66	1,74
	O‘zini nazorat qilish (Q3.)	5,58	1,67
	Xotirjamlik ($Q_{4.}$)	5,25	2,01

Hukmronlikka intilish (Ye) (5,34±1,57). Omilning bu darajasi tibbiyot hamshiralarining atrofidagi odamlar ta’siriga beriluvchanligi, atrofdagilar talabini ham hisobga olishi, mustaqilligini belgilovchi huquqingizni himoya qilishda agressiv emasliklari, shu bilan birga ularda kollej rahbariyati bilan erkin munosabatda bo‘lishga moyilligidan dalolat beradi.

Ijtimoiy yetuklik (Qr) (5,31±1,52). Mazkur omilning ushbu darajasi tibbiyot xodimlarining hayotga va ishga yengil qarashlari, javobgarlikni his qilmasliklari, tejamsizlik kabi hislatlardan to‘la ozod emasliklari, biroq bunday holat ularning «Men-konsepsiyasi» ni salbiy ekanligini anglatmaydi, balki o‘z hulqini boshqara olish va qa’tiylikni yetarli emasligi oqibati bo‘lib hisoblanadi. Ular umuminsoniy qadr-qimmatlarni tan olishga va ahloq qoidalariga rioya qilishga intiluvchi shaxslar sifatida mavqega egadirlar.

Ijtimoiy dadillik (N) (5,56±1,61). Bunday qiymat tibbiyot hamshiralarining yetarli darajada botirliklari, odamlar bilan aloqaga erkin kira olishi, muomaladagi qiyinchiliklarni yenga olishi, kutilmagan holatlarga tushib qolganida o‘zini yo‘qotmasligidan dalolat bermoqda.

Ishonuvchanlik (J) (5,06±1,68). Ishonuvchanlik omilining ushbu ko‘rsatkichi tibbiyot hamshiralarining kasbiy faoliyat va hayotiy masalalarni hal etishda aqlga asoslanib ishonishlari va shu orqali faoliyatda samaraga erishishlari mumkin.

O‘ziga ishonish (Q) (5,11±1,58). Omilning ushbu darajasi tibbiyot hamshiralarining o‘ziga bo‘lgan ishonchi muvaffaqiyatsizliklarini boshqarish imkoniyatini, bo‘layotgan voqealarni to‘g‘ri baholash va ularga munosib javobni bera olishini, o‘z imkoniyatlariga ishonchni yuzaga keltiradi. Ularda o‘zini kamsitishga moyillik bo‘lmasada, lekin bir muncha yuqori darajadagi tez xafa bo‘lish, ta’sirchanlik bor. Ular o‘zilariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashga harakat qilishlari, kasbiy sifatlarini takomillashtirishga alohida e’tibor berishlari maqsadga muvofiq.

Mustaqillik ($Q_{2.}$) (5,66±1,74). Tibbiyot hamshiralari hamma narsani o‘zlari bajarishni ma’qul ko‘rsalarda, atrofidagilar tavsiyasi va takliflarini ham quloq soladilar. Ular mustaqil bo‘lishni ham, atrofdagilarga tayanishni ham, ularni qo‘llab-quvvatlashlarini ham xohlaydilar.

O‘zini nazorat qilish (Q3.) (5,58±1,67). Ko‘rsatkich tibbiyot hamshiralarining ijtimoiy va axloq normalarini bajarishda qat’iyatli ekanligi, ko‘pchilik holatlarda tartibli va rejali harakat qilishlari. Ammo ular har doim ham qiyinchiliklarni yengib, boshlagan ishini

oxirigacha yetkazavermas ekanlar. O‘z faoliyatlarini samarali tashkil qila olsalarda, har qalay o‘zlarini nazorat qilishga ko‘proq e’tibor berganlari ma’qul.

Xotirjamlik (Q_4.) (5,25±2,01). Ushbu omil ko‘rsatkichlarining namoyon etilishi, tibbiyot hamshiralarida ehtiyojlar miqdorining ko‘pligi tufayli ularda bir muncha zo‘riqish borligidan va nisbatan ko‘proq asabiylikka moyillikdan dalolat beradi.

Murakkab maqsadlardan o‘zini olib qochish va zo‘riqish, birinchi navbatda, kasbiy faoliyat natijasi bo‘lib, bunga o‘z navbatida, temperament tiplarining o‘ziga xos xususiyatlari ma’lum darajada o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Yuqoridagi tibbiyot hamshiralarining shaxslilik xususiyatlarini umumiy holati sharhida ham ijobiy, ham mo‘tadil va ayrim o‘rinlarda kasbiy faoliyat uchun teskari xarakterni aks ettiruvchi xususiyatlar mavjudligini ko‘rdik

Demak, R.B. Kettel uslubi natijalariga ko‘ra barcha tibbiyot hamshiralari kasbiy kompetentligi va shaxslilik xususiyatlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va aloqadorlikda rivojlanishida muloqotga moyillik, hissiy barqarorlik, ijtimoiy dadillik, ijtimoiy yetuklik, o‘ziga ishonish, o‘zini nazorat qilish xususiyatlarining yetakchilik qilishi aniqlandi.

Tibbiyot hamshiralarining shaxslilik xususiyatlari o‘rtasidagi mutanosiblik ularni shaxslararo munosabatlarda hissiy barqaror bo‘lishlarini, hukmronlikka intilmasliklarini va ruhiy toliqish, qo‘zg‘alish va zo‘riqishlarni kamaytirishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Umuman, tibbiyot hamshiralari shaxsiy va kasbiy faoliyati uyg‘unligining namoyon etilishida muhim ahamiyat kasb etuvchi psixologik ko‘rsatkichlariga baho berishda har bir tibbiyot hamshiralarining shaxslilik xususiyatlarini chuqur o‘rganish, tahlil qilish va tegishli empirik xulosalar chiqarish orqali ularning kasbiy faoliyat kompetentligini taminlash mumkinligi yana bir bor o‘z tasdig‘ini topdi.

Adabiyotlar

1. Андреева Г.М. Социалная психология. – М.: “Аспект пресс”, 1996. – 178 с.

2. Маерс Д. Социаная психология/ Интенсивний курс 3-изд., «Олма Пресс». - С.Петербург – Москва 2002. – 188 с.

3. Ананев Б.Г. Интеллектуальная деятельность и терморегуляция// Возрастная психология взрослых. Материалы конференции. – Ленинград: 1991.– С. 75—84.

4. Кунисина В.Н., Казаринова Н.В., Поголша В.М. Межличностное общение/ Учебник для ВУЗов. – СПб.: «Питер», 2002 – 322 с.

5. Sobirova D.A. Tibbiyot xodimlari kasbiy kompetentligining psixologik asoslari “Monografiya” - Buxoro “Durdona” 2020-248 b.

USTOZGA TA’ZIM

Muhammad Davletshin - O’zbekistonda gumanistik psixologiyaning asoschisi



M.G.DAVLETSHIN – PSIXOLOGIYA ILMI DARG‘ASI, IBRAT NAMUNASI

Qirg‘izboyev A.K.
Nizomiy nomidagi TDPU rektori, tarix fanlari doktori, professor

Inson umri davomida ezgulikka, yaratishga intilib yashaydi. Kimdir bog‘ yaratsa, kimdir ilm izlaydi, shogirdlar tarbiyalaydi, ularning ilmiy salohiyatini yuksaltirishga intiladi, kimdir yaxshi amallari bilan ko‘pchilik dardiga darmon bo‘la oladi, odamlar qalbini me’moriga aylanadi, yaxshilik qilish, go‘zallikni his etish, mehr-muhabbat va e’tibor ko‘rsatish hayotda asosiy maqsadiga aylanadi. Bunday insonlar jamiyatning rivoji uchun yashaydi, nafaqat buguni, balki ertasi uchun ham poydevor qo‘yadi.

Butun umrini O‘zbekistonda psixologiya va pedagogika fanlarining istiqboli, kelajagi, insonlar farovonligi bilan uzviy bog‘lagan, uning har qanday yumush va xizmati uchun o‘zini doimo kamarbasta deb bilgan ustoz o‘z bog‘i, ilmi, shogirdlari, salohiyati bor serqirra inson Muhammad Gabdulgalimovich Davletshin desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

M.Davletshin har bir kishining ruhiyati, dunyoqarashi va tafakkuriga e’tiborni qaratishga intilishi, hayotda orttirgan tajribasining ijobiy jihatlarini shogirdlariga beminnat o‘rgatishi va yaxshilikka ergashishga undovchi kabi benazir xislatlarni mujassam etgan shaxs edilar. Ayniqsa, psixologiya ilm-fan rivojiga, yurt taraqqiyotiga qo‘shgan hissalarini e’tirof etmaslikning iloji yo‘q. Ularning bevosita ilmiy rahbarliklarida 50 nafarga yaqin fan nomzodlari, fan doktorlari yetishib chiqishgan bo‘lishi bilan birga, ular boshqargan Psixologiya fanlari bo‘yicha Ilmiy kengashda muhokama qilingan dissertatsiyalar himoyalari tufayli ko‘pdan ko‘p tadqiqotchilarning muvaffaqiyatli himoyalari uchun beg‘araz maslahat berganlar va qo‘llab-quvvatlaganlar.

Bu mo‘’tabar inson bilan suhbatlashgan kishida avvalambor undagi xalqimizga xos saxovat, samimiylikni his etish imkoniyati o‘z-o‘zidan yuzaga kelganini ko‘p kuzatganman.

M.Davletshin – zukko olim edilar. Ular nafaqat mamlakatimizdagi keng ilmiy jamoatchilik, balki xorijdagi hamkasblari, xususan Sobiq Ittifoq respublikalaridan Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston, Turkmaniston davlatlari, Chexoslavakiya, Polshadagi olimlar, yurtimizga xayrixoh bo‘lgan jamoat arboblari, mutaxassislar bilan ham bevosita muloqotda bo‘lib, O‘zbekiston manfaatlari yo‘lida psixologiya va pedagogika fanlarini rivojlanishiga oid ilmiy izlanishlarni qo‘llab-quvvatlaganlar. Ulardagi intellektual salohiyat, yuksak ilmiy-amaliy tajriba, tinib-tinchimaslik fazilatlari shogirdlari, qolaversa, ilmiy jamoatchilikning doimiy e’tiborida bo‘lib kelgan. Ularning bevosita tashabbuslari bilan o‘tkaziladigan ilmiy-amaliy konferensiyalarda qo‘yilgan masalalar dolzarbligi, jamiyat va inson manfaatlari uchun xizmat qilishi bilan ahamiyatli ekanligi bilan ajralib turgan.

Chuqur daryo qancha sokin oqsa, uning tubidagi shiddat shunchalik kuchli bo‘ladi. M.G.Davletshin tabiatan sokin va samimiy bo‘lsa-da, u kishidagi ichki quvvat va shiddatni sokin daryoga qiyoslasa bo‘ladi. Agar bu fazilatlarga ilmiy tafakkur va yangi jihatlarini amalda qo‘llash borasidagi sa’yi-harakatlar payvastaligi qo‘shiladigan bo‘lsa, olimning sohani qanchalik keng qamrovda idrok qilishini anglab olish mumkin bo‘lar edi.

Inson bitta mevali daraxt o‘tkazib voyaga yetkazsa, uning hosilidan minglab kishilar bahramand bo‘lar ekan. M.G.Davletshinning shogirdlari hozirgi kunda Psixologiya ilmida ularning ishlarini bardavomligini ta’minlashayapti, demak, Psixologiya fanining rivojlanishiga, ustoz g‘oyalarining davomiyligini ta’minlashayapti.

Muhammad Gabdulgalimovichning sermazmun hayot yo‘li, qariyb ko‘p yillik mehnat faoliyati ulkan samaralarga boy, havas qilsa arzigulik ibrat maktabi ekanligi shubhasiz! Bu yoshlarga ibrat, xavas, taqlid namunasi bo‘la oladi.



M.G.Davletshin Boshqirdiston televideniesiga intervyu bermoqda (2008)

BAG‘RI KENG USTOZ EDILAR

Barotov Sh.R.,
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti rektori psixologiya fanlari doktori, professor

Xalqimizda “Olim ketdi-olam ketdi” degan naql bor. Ushbu hikmatda xalqimizning ilm va uning sohiblariga bo‘lgan cheksiz hurmati yaqqol aks etib turibdi. Mana shunday yuksak bahoga loyiq olim – O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan Fan arbobi, psixologiya fanlari doktori, professor M.G.Davletshin 2011-yilning 24-yanvarida bu dunyoni tark etgan bo‘lsalarda ustoz ibrat to‘la hayotni, hikmat to‘la ilmni va g‘ayrat to‘la shogirdlarini bu yorug‘ olamga qoldirib, o‘z nomlarini manguga abadiylashtirib ketdilar.

Taqdir taqozosi bilan bolalikda O‘zbekiston diyoriga kelib qolgan Muhammed Davletshin o‘zining fidokorona mehnati, sermahsul ilmiy ijodi bilan yurtimizning chinakam farzandi ekanligini isbotlay oldi.

1953-yilda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutida o‘z kasbiy faoliyatini boshlagan M.G. Davletshin dastlab 1957-yilda “V-VII sinf o‘quvchilarida texnik qiziqishlarni shakllantirish” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Olimga o‘sha yilning o‘zidayoq professorlik ilmiy unvoni berildi.

Ustoz 1957-1968-yillarda Nizomiy nomidagi TDPI hozirgi (TDPU) o‘quv ishlari prorektori, 1968-yildan 2001-yilgacha Nizomiy nomidagi TDPU Psixologiya kafedrasi mudiri, 2001-yilidan hayotini so‘ngigacha ushbu kafedra professori sifatida keng qamrovli va samarali faoliyat ko‘rsatib keldi.

M.G.Davletshinning mamlakat uchun ilmiy kadrlar tayyorlash sohasidagi xizmatlari nihoyatda beqiyosdir. Jumladan, ustozning bevosita rahbarligi va beminnat ilmiy maslahatlari bilan 50 dan ortiq fan nomzodlari va 100 dan ortiq fan doktorlarining dissertatsiyalari muvaffaqiyatli himoya qilingan.

M.G.Davletshin tomonidan psixologiya fanining turli masalalariga bag‘ishlangan 250 dan ortiq ilmiy va ilmiy-metodik ishlar nashr etilgan. Jumladan, “Qobiliyatlarning rivojlanishi”, “Maktab o‘quvchilarining texnik qobiliyatlari psixologiyasi”, “Qobiliyatlar va uning psixologik diagnostikasi” (hammualliflikda), “Yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiya” (hammualliflikda), “Umumiy psixologiya” (hammualliflikda), “Psixologik tadqiqotlarning metodologiyasi va metodlari”, “Ta’limning psixologik asoslari” kabi risolalarining e’lon qilinishi O‘zbekistonda psixologiya maktabi taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi.

M.G.Davletshin Nizomiy nomidagi TDPU qoshidagi psixologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya ishlari himoyasi bo‘yicha Birlashgan ixtisoslashgan kengash raisi (1991-1999) va hayotining oxirigacha uning a’zosi sifatida faoliyat ko‘rsatib keldi.

M.G.Davletshinga yosh avlodni tarbiyalash, oliy pedagogik ta’limni rivojlantirish, ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash sohasidagi yuksak xizmatlari uchun bir necha orden va medallar, shuningdek, ikkinchi jahon urush yillaridagi fidokorona mehnati uchun “Mehnatda ko‘rsatilgan jasorat” medali, “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan fan arbobi” faxriy unvoni berilgan.

Darhaqiqat, o‘nlab, yuzlab shogirdlari qatori men ham uztozning o‘ziga xos yuksak insoniyligi, olimlik va bag‘rikenglik xislatlaridan bahramand bo‘lganman. Birgina misol tariqasida aytadigan bo‘lsam, 1998-yilda doktorlik dissertatsiyamni himoya qilishda ustozning haqiqiy olim, mehridaryo inson ekanliklarini bevosita ko‘rganman va his qilganman. Bu hissiyot men uchun bir umrlik hayot maktabi, olimlik saodati bo‘lib kelmoqda.

Ha, Ustoz Muhammed Gabdulgalimovich Davletshindek, buyuk olimlarning bizga bergan beminnat saboqlari bor ekan O‘zbekistonda psixologiya ilmi doimo taraqqiy etib boraveradi.

M.G.DAVLETSHIN – BUYUK TARBIYACHI

Abdullayeva B.S.,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, pedagogikafanlari doktori, psixologiya fanlari doktori, professor

Hayotda shunday insonlar borki, odamlar undan o‘rnak, ibrat olishga, hayot turmush tarzini shakllantirishda andoza olishga xarakat qiladi. Bunday odamlarning ibrati komil insonlarga xos bo‘lgan xulq atvori, dunyoqarashi, tafakkuri va boshqa qator insoniy fazilatlarida namoyon bo‘ladi.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika Universitetida o‘zining ibratli hayot yo‘li, ilmiy-uslubiy ijodi, murabbiylik faoliyati bilan o‘rnak bo‘lgan hurmatli insonlardan biri psixologiya fanlari doktori, professor Muhammad yarim asrlik pedagogik, ilmiy-uslubiy va rahbarlik faoliyatlari mobaynida Respublikamizda olib borilayotgan demokratik islohotlar, fuqarolik jamiyati qurish jarayonlari va odamlar ongidagi yuksak insoniy qadriyatlarni mustahkamlash, pedagogik-psixologik g‘oyalarni yosh avlod ongiga singdirishdagi xizmatlari beqiyosdir.

Barkamol avlod, komil insonni tarbiyalab yetishtirish muhim vazifa sirasiga kiradi. Uning o‘ziga xos sir–sinoatlari bor. U cheksiz sahifali afsona kitob, varaqlagan sari sirlari chiqaveradi! Shulardan biri olimlikdir. Olim - nur sochib turgan quyoshning o‘zi. Quyosh barchaga bab-barobar nur sochgani kabi, olim xoh kasbdoshlari, do‘stlari hamda shogirdlariga mehr va ilm nurini sochaveradi. Barchaga birdek saboq berishga doim tayyor. “Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo‘lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi”, – degan tamoyilni hayoti mazmuniga aylantira olgan ustozimiz Muhammad Davletshinga tegishli deb hisoblayman. Ularning oliygohda ish olib borganlaridagi doimiy shiorlari “Yoshlarga qanchalik mehr bilan bilim va tarbiya berib to‘g‘ri yo‘lga boshlasak, shunchalik mevasi shirin va oqibati ijobiy bo‘ladi”, - g‘oyasiga asoslangan edi.

“Nina bilan quduq qazib” ilm-fan mashaqqatining nozik sirlaridan voqib bo‘lgan olimlikni ko‘zlagan va intilib borayotgan, chaqnab turgan porloq ko‘zlari uning kelajagiga havas bilan qarab turgan yoshlarni, barkamollikka intilayotgan avlodni ko‘rib faxrlanib qo‘yadigan va bu faxr orqasida buyuk ma’suliyat borligini yaxshi his etadigan, har bir shogirdining olimlik maqomiga erishishiga o‘zini mehnatini ayamagan shaxs – ustoz M.Davletshin edilar.

M.Davletshin xalq ichida keng tarqalgan “Ustoz otangdek ulug‘” degan maqolga “Shogird ham farzanddek aziz” degan iborani qo‘shib qo‘yishni joiz deb biladigan ustozi oliy edilar. Chunki, shogirdlari fan nomzodligi yoki fan doktorligi dissertatsiyalarini himoya qilayotgan daqiqalarda ustozlar qanchalik bezovtalanishi, mehr to‘la yuraklari bilan qo‘llab-quvvatlab turganliklarini guvohi bo‘lamiz va chuqur his etamiz. Albatta, bularning barchasi mamlakat istiqbolini yaratayotgan barkamol avlodlarga e’tibordir. Bunday yoshlari va yoshlarga nihoyatda e’tiborli bo‘lgan ustozlari bor mamlakat doimo kelajagi porloq, o‘z tanlagan yo‘lidan shahdam qadamlar bilan cho‘qqilarga intilib boraveradi.

Ustoz M.Davletshin Psixologiya, Pedagogika sohalari rivojlanishiga o‘z hissalarini qo‘sha olgan ibratli, mehnatkash, irodali, komillik yo‘lini tanlab, ilmini, salohiyatini, mehrini yon-atrofidagilarga ulashishga qodir bo‘la olgan shaxs edilar. Ular O‘zbekistonda pedagoglar, psixologlarni tayyorlash otaxon universiteti hisoblangan Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika Universitetida faoliyat olib bordilar.

Ularning mehnat jamoasida oddiy talabadan tortib akademik shaxsigacha, farrosh, qorovuldan tortib, biror bo‘lim boshlig‘i bo‘lgan shaxsgacha; oila va yaqinlari farzand, nabira, qarindosh, do‘st, birodar, barcha-barchalar inson bilan bo‘ladigan munosabatlarida ulardan

quvvat, baxt, hayot, e'tibor, g'amxo'rlik ko'rsatganlari uchun ularning yonlarida doimo barcha-barchalar bo'lishga, ulardan maslahat olishga harakat qilishar edi. Chunki ularda e'tibor, haqqoniylik, insoniylik, adolat kabi fazilatlar o'z hayotlari davomida oddiy ehtiyojidan tortib, to murakkab ijtimoiy ehtiyojlarigacha amalga oshishiga to'g'ri yo'l ko'rsata oladigan, odamlar qidiradigan, intiladigan, izlaydigan, maslahatni bera oladigan shaxs edilar. Xotiramizda qolgan ozgina fazilatlarnigina keltirdik, xolos.

M.Davletshinning mamlakat, universitet miqyosida amalga oshirib kelgan soni-adog'i cheksiz ishlari tahsinga loyiqdir. Eng asosiy tarbiyachi shaxsi sifatidagi shaxsiy ibratlari xanuzgacha pedagog va psixologlar uchun etalon desak, yanglishmaymiz.



M.G.Davletshin shogirdlar davrasida.
(chapdan o'ngga-Z.T.Nishanova, N.S.Jo'raev, M.G.Davletshin P.S.Ergashev, N.G'.Kamilova, A.X.Ubaydullaev)

USTOZ M.G.DAVLETSHINNI XOTIRLAB

Nishanova Z.T.
TDPU professori, psixologiya fanlari doktori

Xotira, fikr, mulohaza, mushohada yolg‘iz shu tuyg‘ular o‘tmishni ortga qaytara oladi. Shunda biz xotira orqali anglay boshlaymiz. Xotirlashga arzigulik voqealar, jozibali tavsilotlarga boy odamlar ruhan va qalban komil insonlar bo‘ladi. Professor M.G.Davletshin ana shunday ruhiy olam quvvatiga ega bo‘lgan, uzoq kelajakni ko‘ra bilgan, o‘tmishni xotirlab, yaxshi niyatlar aytishga arzigulik zabardast olimlardan edi. 1991-1993-yillarda maqsadli aspiranturada tahsil oldim. O‘sha paytlarda professor M.G.Davletshindan ilmiy mavzu olish niyatim bor edi. Lekin ularning shogirdlari ko‘p bo‘lganligi tufayli kafedradagi iqtidorli yosh fan nomzodlaridan biri bo‘lgan Fayruza Salixjanovna Ismagilovani menga ilmiy rahbar etib biriktirdilar. Ulardan ilmiy ish sir-asrorlarini o‘rgandim. Kunlarning birida ular ishlab chiqarish korxonalaridan birida "O‘smirlarning psixologik xususiyatlari" haqida ma‘ruza o‘qidilar. Meni ham ma’ruzalariga taklif etgan edilar. Rahbarimning ma‘ruzalari shunchalar jonli chiqdiki, ma‘ruza so‘ngida hamma o‘tirganlar chapak chalishdi. Men esa ularga juda havas qildim. Ilmiy rahbarim men himoya qilishdan oldin Yekaterinburg shahriga ko‘chib ketganlari uchun ilmiy ishimda ilmiy maslahatchi M.G.Davletshin bo‘lganlar. O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, psixologiya fanlari doktori, professor M.G.Davletshin o‘zlarining umr daftarlarini shox satrlar bilan bezay olgan buyuk inson. U Vatanimizdagi psixologiya fanining rivojlanishiga o‘zining ulkan hissasini qo‘shgan olimdir. Domlaning bevosita rahbarligida 3 nafar fan doktori, 50 ga yaqin fan nomzodlari yetishib chiqdi. M.G.Davletshinni MDHda tanimaydigan psixolog yo‘q, uning shogirdlari respublikamizdagi barcha oliy o‘quv yurtlarida faoliyat ko‘rsatishmoqda. M.G.Davletshin Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so‘ng, 1991-yilda Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika instituti qoshida psixologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini beradigan Ixtisoslashgan Kengash ochilishini asoslab bergan va 1991-1999-yillar davomida shu kengashni boshqargan. Shuni tag‘kidlash joizki, mustaqillikdan oldin fan nomzodi ilmiy darajasini olish uchun Moskva, Leningrad, Kiyev kabi shaharlarga borib, dissertatsiyalar (rus tilida) yoqlanar edi. Birinchi o‘zbek ayol psixologlari orasida fan doktori ilmiy darajasiga sazovor bo‘lgan Vasila Mamanosirovna Karimovaning doktorlik dissertatsiyasi himoyasini bir marotabalik Kengashda muhokama qilinishida ham M.G.Davletshinning hissasi katta. Shu bilan birga, M.G. Davletshin 1996-1999 yillarda O‘zbekiston psixologlar assotsatsiyasining birinchi raisi ham bo‘lgan. Professor M.G.Davletshin tomonidan psixologiya fanining turli masalalari bo‘yicha 250ga yaqin ilmiy ish chop etilgan. Ustoz tomonidan qoldirilgan eng yirik monografiya va o‘quv qo‘llanmalar sirasiga "Qobiliyatlar diagnostikasi" (1979), "Yosh va pedagogik psixologiya" (1974), "Zamonaviy maktab o‘qituvchisining psixologiyasi" (1999), "Umumiy psixologiya" (2001), "Yosh va pedagogik psixologiya" (2004) va boshqalarni kiritish mumkin. U respublikada o‘tkazilgan barcha ilmiy anjumanlar materiallarining va ilmiy to‘plamlarning mas‘ul muharriri bo‘lgan. Yosh avlodni tarbiyalash, oliy pedagogik ta‘limni rivojlantirish, ilmiy va pedagogik kadrlarni tayyorlash sohasida olib borgan xizmatlari uchun M.G.Davletshin hukumatimiz tomonidan bir necha orden, medal, faxriy yorliqlar bilan taqdirlangan. "Umumiy psixologiya" kafedrasida O‘zbekiston psixologiya fanining otasi Muhammed Galimovich Davletshindan ilmiy pedagogik faoliyat sir asrorlarini o‘rgandik. Ular mehridaryo, bag‘ri keng, barchaga individual yondashuvni amalga oshiradigan ajoyib inson edilar. Ular hayotlarining so‘nggi kunlarigacha pedagogika universitetida faoliyat yuritgan, 87 bahorni ham universitetda qarshilagan olimga ko‘p havas qilganmiz. Shunday qilib, M.G.Davletshindan ko‘p narsalarni o‘rgandik, ularga havas qildik. Ustoz mening hayotimda

muhim rol o‘ynagan shaxslardan biri. Agar M.Davletshin mendagi qobiliyatni his qilib, qayta-qayta doktoranturaga topshirish taklifini bermaganlarida, men fan doktori bo‘larmidim-yo‘qmi, bilmadim. Doktoranturada o‘qib yurgan kezlarimizda har olti oyda hisobot topshiramiz. Ikkinchi kursning oxirida hisobot topshirganimda domlaning gaplari hozirgacha esimda saqlanib qolgan.

Dissertatsiyaning uch bobini yozib tugatdim, o‘n besh nafar maqolam chop etildi, hozirda to‘rtinchi bob ustida ishlamoqdaman, deya hisobotimni yakunladim. Davletshin menga savol berdilar:

- Ishingizni qachon tugatib, stolga qo‘yasiz?
- Men esa, ularga javoban:
- Xudo xoxlasa, deya javob berdim. Ular menga:
- Xudo xohlayapti, siz xohlamayapsiz,- dedilar.

Domlaning ilmiy ish bo‘yicha bergan har bir maslahati, o‘giti, fikrlari bizlarni fan cho‘qqilarini zabt etishga undaydigan motiv edi. Yaqinda ham hisobot so‘ralganda, o‘zimning yillik hisobotimni tezgina qilib, kafedra guruhiga tashlab qo‘ydim va domla Davletshin ham o‘zlarining nashr ishlarini yozib hisobotlarini namuna sifatida kafedraga ilib qo‘yardilar, deb ularni esladik. Hozirda ulardan o‘rgangan bilim, ko‘nikma va malakalarni yosh o‘qituvchilarga o‘rgatib, domla Davletshin shunday qilar edilar, deb ko‘pincha ular bilan ishlaganimdan faxrlanib qo‘yaman va ularni namuna sifatida ko‘rsataman. Ustozimizning joylari jannatda bo‘lsin!

MUHAMMAD DAVLETSHIN – O‘ZBEKISTON PSIXOLOGIYASIA GUMANIZM G‘OYALARINING DAVOMCHISI

Kamilova N.G.,
“Psixologiya” ilmiy-o‘quv markazi direktori, DSc, professor

Annotatsiya. *Maqolada Muhammad Davletshin to‘g‘risidagi xotiralar bayon qilinadi. Professorning unga yaxshi ishlaydigan rahbar va katta harflar bilan yoziladigan shaxs bo‘lishiga imkon beruvchi uning professional va shaxsiy xususiyatlari ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar*: “Men”-konsepsiya, professional xislatlar, o‘z-o‘zini irodaviy boshqarish.*

Har bir inson hayotida asosini “Men-konsepsiyasi”, aniqrog‘i shaxs rivojlanishining mexanizmi hisoblanuvchi “Men-ideal”ini tashkil etadigan ideali bor.

Shaxsan men uchun bu obraz professor Muhammad Gabdulgalimovich Davletshin shaxsi bilan identifikatsiya bo‘ladi. Davletshinning rahbar sifatidagi shaxsiy xislatlari haqida so‘zlagancha, o‘ylaymanki, har bir inson uning shaxsidagi qo‘yilgan vazifalarni hal qilishdagi puxtalik, qat’iyatlilik, o‘ziga bo‘lgani kabi o‘z xodimlariga ham yuqori talabchanlikning ustun bo‘lganiga hamma guvoh bo‘lgan. Muhammad Gabdulgalimovichning rahbarlik stilidagi qattiqqo‘llik va talabchanlik har bir xodimga amxo‘r va e’tiborli munosabat bilan birga borgan. Davletshin har bir xodimning individual-shaxsiy xususiyatlariga mo‘ljal olgancha jamoatchchilik yuklamasini ham belgilagan va hatto metodologik seminarlardagi chiqishlar mavzusi ham korreksion-rivojlantiruvchi ahamiyatga ega bo‘lgan.

Biroq shaxsan men uchun qiziqarli va diqqatga sazovor lahza – bu psixologiya kafedrasiga ishga qanday qabul qilinganim bo‘lgan. 1997-yilda nomzodlik minimumi imtihonini topshirganimda ustoz Davletshin, keyinroq ma’lum bo‘lganidek, “menga e’tibor qaratgan” ekan va 2 oydan keyin u meni ofisga suhbat uchun chaqirdi. Juda xavotirlanib, belgilangan vaqtda ofisga yetib keldim, chunki u kechikkanlarni xush ko‘rmasligi ma’lum edi.

O‘rindoshlik asosidagi ish taklifini eshitganimda darhol afsuslanishga majbur bo‘ldim, chunki men Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika ilmiy-tadqiqoti instituti aspiranti edim. Bundan tashqari, aynan shu davrda mening oldimda dissertatsiya tadqiqotim doirasida tajriba o‘tkazish vazifasi turardi. Men har kuni voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarini oldini olish organlarida yurganim bois xushmuomalalik bilan rad etish uchun so‘zlarni tanlayotganimda Davletshin menga “Biz sizga ishonamiz”, dedilar. Muhammad Gabdulgalimovichgagina xos bo‘lgan xotirjam ohang bilan, ranjish va xafagarchiliksiz aytilgan ibora menga singdirgan ishonch va mas’uliyat hissini Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida 26 yilgi ishim davomida men bilan birgadir. Xulq-atvor va faoliyatni yuqori darajada tartibga solish, shuningdek, har qanday kasbiy vazifalarni safarbarlik bilan hal qilish qobiliyati, faoliyatni rejalashtira olish va eng muhimi, odamlarga muhabbat bilan munosabatda bo‘lish qobiliyati Muhammad Gabdulgalimovichning o‘ziga xos tashrif qog‘ozi va har qanday darajadagi rahbar uchun namuna bo‘ldi.

Davletshinning pedagogik amaliyotidagi yana bir mo‘ljal – bu mashg‘ulotlar davomida o‘qish vaqtini rejalashtira olish qobiliyati bo‘lgan. Darslarga tayyorgarlik ko‘rishga qancha vaqt ajratayotganinni so‘rashganda, u “butun hayotim davomida va darsdan bir kun oldin yarim soat”, deb javob qaytargan. Shu bilan birga, turli guruhlarda bir xil ma’ruza mavzusini o‘qir ekan u auditoriyaning qiziqishiga mo‘ljal olgancha kamdan-kam hollarda takrorlagan. Hatto 80 yoshida ham uning muammoli ma’ruzalari tizimli taqdimot, misollarga boyligi va talabalarning mantiqiy fikrlashini rivojlantiradigan o‘qitish uslubi bilan ajralib turardi. Qo‘ng‘iroqdan bir daqiqa oldin ma’ruzasini yakunlab, u zavq bilan sokin ovoz chiqarib, “men

ulgurdim” derdi, bu yuqori darajadagi tashkilotchilik, o‘zi juda qadrlaydigan vaqtga mas’uliyatli va hurmatli munosabatni ko‘rsatadi. Davletshinning o‘qitish tizimi gumanistik psixologiyaning asosiy prinsipi hisoblanmish bilimlarni shakllantirish orqali talabalar shaxsini tarbiyalash va rivojlantirishni boshqarishga qaratilgan edi.

Boshqalarning hissiyotlari va tuyg‘ularini inobatga olish qobiliyatida ifodalangan emotsional intellekt hamda hamdardlik tuyg‘usi Muhammad Davletshinning yana bir tashrif qog‘ozi bo‘lib, u o‘zi bilan ishlagan yoki unga faqat maslahat uchun murojaat qilgan har bir kishining his-tuyg‘ulari va kechinmalariga juda ehtiyotkor munosabatda bo‘lgan.

Muhammad Gabdulgalimovichning shaxsiyati haqidagi hikoyamni yakunlab, shuni aytishni istardimki, yuqori psixologik madaniyatga ega bo‘lgan inson – taqlid qilish uchun yuksak namuna hisoblanadi.



M.G.Davletshin eng yaqin maslakdoshi va barcha shogirdlarining ikkinchi onasi rafiqasi Maftuxa aya bilan (2008)

USTOZGA MUNOSIB SHOGIRD BO‘LISH YO‘LIDA

To‘ychiyeva S.M.
Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada gumanistik psixologiya tamoyillari, ustozning shogirdlariga qo‘yadigan talablari, psixologiya, psixologga berilgan ta’riflar o‘z aksini topgan. Maqola bolajak pedago-psixolog tayyorlashda ustoz-shogid an’analarini davom ettirish g‘oyasini ilgari surgan.*

Kalit so‘zlar: *ustoz, psixologiya, psixolog, tamoyil, o‘z-oziga ishonch, determinizm, subyekt, shakllanish.*

O‘zbekistonda psixologiya ilmining buyuk namoyondasi, psixologiya fanlari doktori, professor M.G.Davletshinga shogird bo‘lish orzusida bo‘lganlar juda ko‘p edi. Lekin ustoz shogird tanlashda juda talabchan va ehtiyotkor edilar. Zero, Muhammad Gabdulgalimovich o‘z atroflariga o‘zlariday bag‘rikeng, ilmga intiluvchan, mehnatkash, yuzidan nur taraluvchi, zukko va talabchan insonlarni yig‘ishga harakat qilganlar va buni uddasidan chiqganlar. Domla, yaratgan maktab 23 psixologiya ilmining eng mashhur va keng tarqalgan yo‘nalishlaridan biri – o‘zbek gumanistik nazariya maktabi edi. Gumanistik psixologiya inson tabiatini tushuntirishda o‘zining yondashuvi bilan farq qiladi. Uning vakillari sifatida G.Ollportning shaxsqirralari, A.Maslounning shaxsnining o‘zini o‘zi kamol toptirish, K.Rodjersning psixoterapiyasi, R.Meynning shaxsning hayot yo‘li haqidagi g‘oyalarini e’tirof etish mumkin. Shunga ko‘ra gumanistik psixologiyaning umumiy tamoyillariga:

- Inson doimo yangi maqsadga intiluvchi, o‘zini o‘zi kamol toptirish va o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishni ifodalovchi taraqqiyot tamoyili;
- Inson o‘z tabiatiga ko‘ra erkin va mehribonlikni ifodalovchi insonparparvarlik tamoyili;
- Maqsadli determinizm tamoyili. Shaxsning intilishlari kelajakka yo‘naltirilganligi bilan uning maqsad, qadriyatlari va kutilmalarini ifodalovchi sababiy determinizmni tasdiqlash tamoyili;
- Inson mustaqil fikrlovchi va harakat qiluvchi mavjudot sifatida o‘zining subyekt sifatida namoyon qilishini ifodalovchi faollik tamoyili;
- Shaxsni alohida o‘rganib bo‘lmasligi, balki uni yaxlit o‘rganishga undovchi shaxsni eksperimental tadqiq etish tamoyili kirgan. Yaratganga beadad shukurkim, ustozimiz M.G.Davletshinning o‘zbek gumanistik maktabini bugun O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimida yetakchi nodavlat oliy ta’lim muassalaridan biri Toshkent amaliy fanlar universiteti Psixologiya kafedrasida davom ettirish nasib etdi. Ustoz bergan bilim, ko‘nikma va malakalarni yoshlarga etkazish bizning asosiy burchimiz deb bilaman. Inson qalbini qanday tushunmoq kerak? Psixolog o‘zi kim? Nima uchun insonlar turli xil qobiliyatlarga egalar? Turli kasb egalari qanday psixologik xususiyatlarga ega? Shaxsni kasbda o‘z-o‘zini anglash, o‘z ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda jamiyat talablari asosida aktual fuqaro darajasiga yetishning psixologik xususiyatlari qanday shakllantirilishi kerak? deganlar savollarga javob berishda M.G.Davletshin boshchiligidagi maktab vakillari qator izlanishlarni olib borishgan. Ustozning Respublikamizning turli viloyatlarida juda talabchan shogirdlari faoliyat yuritishadi. Ana shunday shogirdlardan biri, Buxoro psixologiya maktabi asoschisi va bugungi kundagi tinmay izlanishlarga bosh bo‘layotgan psixolog-olim , psixologiya fanlari doktori, professor Sh.Baratov psixologiya va psixologlarga ajoyib ta’rif beradilar.

1. Psixologiya − bu insonning psixik jarayonlari kechishini biladigan fandir.
2. Psixolog − bu insonlar bilan tez muloqotga kirisha oladigan va odamlarni tushuna oladigan mutaxassis hisoblanadi.

3. Psixolog − bu insonlarning xatti-harakati, hissiyotlari, boshqalarning fikrini boshqara oladigan va shunga maxsus o‘rgatilgan insondir. U shunga xos bo‘lgan texnikalardan foydalana oladi.

4. Psixolog − bu o‘zini yaxshi tushuna oladigan va har qanday vaziyatda ham o‘zini boshqara oladigan inson.

5. Psixolog − bu hayot haqidagi ko‘proq tasavvurlarga ega bo‘lgan donishmanddir, uning vazifasi qiynalgan insonlarga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatib, hayotda o‘z yo‘lini yo‘qotganlarga to‘g‘ri maslahatlar berilishi bilan alohida ajaralib turadi.

Psixolog − bu insonlar bilan tez muloqotga kirisha oladigan va odamlarni tushuna oladigan mutaxassis[1].

Ta’riflarning har biri bugungi kunda dolzarb kasb egalari psixologlarga bag‘ishlangan. Ustozimiz M.G.Davletshinning: “XXI asr psixologiya fani asri bo‘ladi va unda insonlar ko‘plab muammolarini aynan psixologik yo‘l bilan yechadilar” – degan fikrlarini hech ham esimdan chiqarmayman. Har gal auditoriyaga bo‘lajak pedagog-psixologlarga dars bergani kirganimda ustozning shu gaplarini eslayman va yoshlarga anglab yetishlari uchun yetkazaman. 2007-yilda M.G.Davletshin bir guruh shogirdlarni o‘z qanotlariga olib “Yosh va pedagogik psixologiya” o‘quv qo‘llanmasini yaratdilar. Shu adabiyot yaratilayotganda bir jamoa bo‘lib ilmiy adabiyotlar yozish malakasi va amaliyotini olganman. Aynan shu o‘quv qo‘llanmada domla shaxsan o‘zlari o‘qituvchi psixologiyasi bobini yozganlar. “Pedagogik kasb, ma’lumki, har kimning ham qo‘lidan kelavermaydi. Pedagogik faoliyatdan yutuqlarga faqat shu kasbga qiziqqan, shu faoliyat bilan shug‘ullanishga moyil, oqibat natijada esa, pedagogik qobiliyatga ega bo‘lgan kishilargina erisha oladi”- deb ta’kidlagan ustoz[2].

Bugungi kunda biz aynan shu vazifani amalga oshirish yo‘lida xizmat qilmoqdamiz. Psixologiya kasbi reallikdir. Bu kasb subyektning o‘zini shakllanish imkoniyatini yaratadi. Toshkent amaliy fanlar universiteti- nodavlat oliy ta’lim muassasasi. Bugungi kunda universitetda 14ta yo‘nalishda mutaxassislar tayyorlanmoqda. Talabalarimiz soni 27mingdan oshdi. Ana shu mutaxassisliklar orasida pedagog-psixolog mutaxassisligining borligi quvonarli hol. Ta’kidlab o‘tishni joiz deb bilaman, bu yo‘nalishga eng ko‘p talaba topshirgan. Universitetning bosh konsepsiyasi raqobatbardosh kadrlarda kasbiy amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Ustozning o‘zbek gumanistik maktabini talabalarga bilim berish orqali davom ettirgan holda, bo‘lajak pedagoglarimizga dars berayotgan ustozlar gumanistik maktabning asosiy tamoyili “Insonga bir butun yondashuv”ga rioya qilishadi. Bo‘lajak mutaxassisga psixologik xizmat jarayonida insonni tushunish va ijtimoiy motivatsion rivojlantirish jarayonini yangi usullar orqali yetkazish amaloyotini yo‘lga qo‘yishga harakat qilmoqdamiz. Insonning barcha tug‘ma potensial imkoniyatlari faqatgina ijtimoiy shart-sharoitning yaratilishi bilan ro‘yobga chiqishi va kamol topishi mumkin. Bugungi kundagi asosiy maqsadimiz – munosib shogirdlar tayyorlash va ustozimiz professor Muhammad Gabdulgalimovich Davletshin kabi psixologiya faniga fidoyi bo‘lishdir.

Adabiyotlar

1. Sh.Baratov va boshqalar. Psixologiya nazariyasi va tarixi. T.2019. 10-11b. 2. M.Davletshin va boshqalar. Yosh va pedagogik psixologiya. T. 2007. 111-b.

MUHAMMAD GABDULGALIMOVICH DAVLETSHIN: BIR SHOGIRD XOTIRASIDAN LAVHALAR

Qodirov Kamoliddin Botirovich,
Innovatsion va ijtimoiy-iqtisodiyot universiteti professori, psixologiya fanlari doktori.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, psixologiya fanlari doktori, professor Muhammad Gabdulgalimovich Davletshin rahbarligi ostida ilmiy faoliyat olib borgan shogird sifatida birgalikda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot faoliyatimiz jarayonida esda qolgan xotiralarimdan lavhalar keltirilgan. Maqolada M.G.Davletshinning yuksak insoniy fazilatlari, hayotiy prinsiplari, jamiyatga, ilmiy va pedagogik faoliyatga bo‘lgan munosabatlari hamda ilm-fan taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *ilmiy rahbar, murabbiy, rahnamo, yo‘lboshchi, hayotiy prinsiplar, insonparvarlik, ta’lim, tarbiya.*

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, psixologiya fanlari doktori, professor Muhammad Gabdulgalimovich Davletshin, nafaqat O‘zbekistonda, balki butun O‘rta Osiyoda yuzlab, minglab shogirdlarga ustozlik qilgan, shular qatorida kaminaga ham ilmiy rahbar sifatida nomzodlik dissertatsiyamni muvaffaqiyatli himoya qilishimda beqiyos katta hissa qo‘shib, hayot saboqlaridan dars bergan, nainki psixologiya fani, balki keng ma’noda hayotiy donishmandlik sirlarini ham o‘rgatgan buyuk siymolardan biridir [3], [4], [5], [6].

Ustozimiz M.G.Davletshinni, hech qanday mubolag‘asiz, o‘z shaxsiyatining betakrorligi, favqulodda yetukligi, insonparvarligi, mazmundorligi va donoligi bilan, shuningdek, shaxsan menga o‘xshash shogirdlarining hayotida chuqur iz qoldirib, ularning taqdiriga, hayot yo‘lini belgilashlariga juda katta ijobiy ta’sir ko‘rsatgan tom ma’nodagi murabbiy, rahnamo va yo‘lboshchi sifatida ta’riflash mumkin deb hisoblayman.

Muhammad Gabdulgalimovichning ko‘plab fazilatlari qatorida odamlarga nisbatan talabchanlikni g‘amxo‘rlik, mehribonlik bilan uyg‘unlashtira olish xislatini alohida e’tirof etish mumkin bo‘lsa kerak. Ustozimizning aynan ana shu fazilati shaxsan mening xotiramda yorqin saqlanib qolgan. Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika universiteti Psixologiya kafedrasi mudiri sifatida M.G.Davletshin barcha professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar va shogirdlarini yuqori talabchanlik bilan boshqara olar, har qanday topshiriqni yuksak ilmiy-pedagogik saviyada bajarilishini ta’minlay olar edi. Shu bilan birga, qo‘l ostida ishlaydigan har bir xodim, har bir shogirdning maishiy, iqtisodiy ahvoli bilan yaqindan qiziqib, ularni har qanday sharoitda qo‘llab-quvvatlashga, himoya qilishga harakat qilar edi.

Universitetda talabchan ustozlik vazifasini tom ma’noda ado etgan M.G.Davletshin xonadonining eshigi har doim shogirdlari va hamkasblari uchun ochiq bo‘lar edi. Barcha shogirdlari qatorida men ham Muhammad Gabdulgalimovichning xonadonida tez-tez mehmon bo‘lib turardim. E’tiborli tomoni shundaki, qachon uylariga borishimdan qat’i nazar turmush o‘rtog‘i Maftuha opa ochiq chehra va xursandchilik bilan samimiy kutib olardilar. Shosha-pisha ajoyib tansiq taomlar bilan liq to‘ldirib yozilgan dasturxonga taklif etardilar. Shundan so‘ng ustoz-shogirdlar orasida ba’zan soatlab davom etadigan qizg‘in suhbatlar, sermazmun ilmiy munozaralar uchun barcha shart-sharoitlarni izzat-ikrom bilan yaratib berar edilar.

Umuman olganda, M.G.Davletshin bir necha o‘nlab ilmiy darajali shogirdlarning tadqiqot ishlariga rahbarlik qilgan. Shaxsan, men Muhammad Gabdulgalimovich hayotidagi, ilmiy rahbarlik faoliyatidagi so‘nggi shogirdlaridan biri bo‘lganman va menga, u kishining hisob-kitobi bo‘yicha, roppa-rosa 40-sonli shogird bo‘lish nasib etgan. Demak, mendan oldin 39 nafar fan nomzodlari va fan doktorlari M.G.Davletshin rahbarligi ostida himoya qilgan ekan. Eng e’tiborli tarafi shundaki, Maftuha opa M.G.Davletshin kabi har bir shogirdini tom

ma’noda o‘z farzandidek ko‘rar, har bir shogirdi har oyda kamida bir marta ahvollashib turishini chin ko‘ngildan xohlar edi. Uylariga borganimda Maftuha opa xursandchiligini yashira olmay: *“Qirqinchi o‘g‘lim keldi!”* – deya zavq bilan xitob qilardi.

Tez-tez xabarlashib turmagan shogirdlardan esa juda xafa bo‘lardi Maftuna opa, va ranjiganini bildirib: *“Sizni farzandlarim safidan o‘chiraman”,* – deya beozorgina hazillashib “ogohlantirib” qo‘yardi. Shunday holat ba’zan menda ham bo‘lib turardi, ya’ni ishlar bilan juda band bo‘lib, 1-2 oylardan keyin borib eshiklarini taqillatsam: *“Qoyil! Yo‘qolgan o‘g‘lim topildi!”* – deya xursandchilik bilan hayqirib, keyin bir oz tanbeh berib, boshqa bunaqa yo‘qolib ketmaslikka, tez-tez xabarlashib turishga undar edi.

M.G.Davletshindagi muomala madaniyati, odamlarga ta’sir ko‘rsatish qobiliyati yuksak darajada namoyon bo‘lishi o‘z hayoti davomida erishgan muvaffaqiyatlarining eng muhim sababchilaridan biri bo‘lsa, ajab emas. Muhammad Gabdulgalimovich har qanday inson bilan juda ehtiyotkorlik bilan muomala qilib, har bir kishiga alohida hurmat-ehtirom ko‘rsatishga harakat qilardi va ehtimol, aynan shu boisdan deyarli har bir shogirdi va hamkasbining chuqur hurmati, e’zoz-e’tirofi va muhabbatini qozonishga erisha olgan bo‘lsa kerak.

Ustozimiz M.G.Davletshin hamkasblari va shogirdlariga shaxsiy ishlari bo‘yicha maslahatlar berishda hazil-mutoyiba, hikmatnamo mulohazalardan foydalanish qobiliyati bilan alohida ajralib turardi. Hattoki, darsga tayyorgarlik ko‘rib kelmagan, uyga vazifani bajarmasdan darsda qatnashayotgan talabalarni ham juda ta’sirchan hazil-mutoyiba orqali koyib turardi. Masalan: *“Talabaga shunchaki shimini auditoriyadagi stulga ishqalab ketgani uchun baho qo‘yilmaydi-ku!..”* – deya yarim hazil, yarim chin kinoya bilan, bir tomondan, talabani kuldirib, ikkinchi tomondan, uni o‘ylashga, mas’uliyatni his etib, jiddiyroq yondashishga undar edi.

Yana bir vaziyat: Muhammad Gabdulgalimovich ma’ruza mashg‘uloti jarayonida tartib-intizomni buzib, gaplashib o‘tirishdan o‘zini tiya olmagan talabani o‘rnidan turg‘izib, unga qilayotgan ishining qanchalik noto‘g‘ri ekanligini muloyimlik va yumshoqlik bilan, sodda tilda tushuntirib bera olardi. Shunday vaziyatlardan birida Muhammad Gabdulgalimovich talabalarga 2-3 marta tanbeh berganidan so‘ng bu holat yana takrorlangach, ularga istehzo bilan quyidagicha murojaat qilgan: *“Bilasizmi, psixiatrlar ayrim bemorlarga enurez, ya’ni “peshobni ushlab tura olmaslik” tashxisini qo‘yishadi. Siz-chi? Mabodo, “nutqni ushlab tura olmaslik” kasalligiga chalinmaganmisiz?..”*

Albatta, shunga o‘xshash ko‘plab muammoli kasbiy vaziyatlarda, nizoli pedagogik vaziyatlarda M.G.Davletshin tomonidan yuksak darajadagi hozirjavoblik, topqirlik, kreativlik, diplomatik muomala madaniyati namoyon qilinishi chuqur ma’noli hazil-mutoyiba va kesatishlar orqali yoshlarning xulq-atvorini to‘g‘ri yo‘naltirish, shuningdek, xodimlari va shogirdlarining ishga, o‘qishga bo‘lgan munosabatlarini ijobiy tomonga o‘zartirish uchun samarali vosita bo‘lib xizmat qilgan deb o‘ylayman. Shaxsan men hurmatli ustozimiz Muhammad Gabdulgalimovichdan juda ko‘plab pedagogik muloqot sirlarini, pedagogik ta’sir ko‘rsatish vositalarini o‘rganganman va hanuzgacha o‘z kasbiy-pedagogik faoliyatimda samarali qo‘llab kelmoqdaman.

Yuksak darajadagi odob-axloq qoidalariga rioya qilishda barcha hamkasblari va shogirdlariga shaxsiy namuna bo‘lgan hurmali ustozimiz M.G.Davletshin har doim muayyan hayotiy prinsiplarga amal qilib yashaganlari alohida e’tiborga molikdir. Xususan, M.G.Davletshindagi boshqalarning muvaffaqiyatsizligini, hayotiy muammolarini hech qachon suhbat mavzusiga aylantirmaslik, odamni biror ishni qilishdan, biror xayolga borishdan qaytarishda muloyimlik bilan, uni hijolatga qo‘yishdan ehtiyot bo‘lib harakat qilish, birov uchun xulosa chiqarmaslik, odam unga aytilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, o‘zi farosatini ishlatib mustaqil xulosa chiqarishiga qo‘yib berish kabi muomala prinsiplariga qat’iy rioya qilish xislatlari shaxsan menda ustozimizga nisbatan alohida hurmat, hayratlanish

hamda shunday dono va kamtarin insonning shogirdi bo‘lishdan mag‘rurlik hissi paydo bo‘lgan desam, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Muhammad Gabdulgalimovich Davletshinni hayot davomida erishgan yutuqlari va nufuzli mavqeiga baho bera turib, hech ikkilanmay, kasbiy faoliyat va ilm-fan sohasida juda katta muvaffaqiyatga erishgan, yuksak darajadagi ijtimoiy maqomga ega bo‘lgan shaxslar qatoriga qo‘shish mumkin [1], [2]. Biroq bu insonning mijozidagi sokinlik, muloqot jarayonlaridagi vazminlik, faoliyatidagi shoshmasdan, har tomonlama o‘ylab ish qilish xislatlarini kuzatgan kishida mutlaqo beg‘am, betashvish inson siymosi gavdalanishi mumkin. Darhaqiqat, Muhammad Gabdulgalimovichning o‘zi ham bolalik davrini eslab, bizga quyidagi xotiralarini bot-bot gapirib berar edi: *“5 yoshgacha bo‘lgan davrimda juda kam gapirganman. Uyimizda bir sandiqcha bo‘lgan. Ota-onamning eslashlaricha, o‘shanda men shu sandiqchaning ustiga chiqib o‘tirib olar va soatlar davomida sandiqchadan tushmasdan jimgina hammani kuzatib, ahyon-ahyonda atrofdagilarga buyruq berib, u yoki bu ishlarni bajarishlarini aytib o‘tirgan ekanman”*.

Shu yerda bir savol tug‘iladi. Shunchalar xotirjam, betashvish va bemalol shaxs bo‘la turib, M.G.Davletshin qanday qilib bu qadar katta hayotiy muvaffaqiyatga erishgan bo‘lishi mumkin? O‘z kuzatishlarimdan kelib chiqib, men shunday xulosaga kelganmanki, M.G.Davletshinning xulq-atvorida muayyan faoliyat davomida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan holatlarni oldindan ko‘ra bilish, ularga avvaldan tayyorgarlik ko‘rib qo‘yish xislati juda yuqori darajada namoyon bo‘lgan. Bu inson har doim o‘z imkoniyatlarini xolis baholash, tegishli ishni bajarish uchun shart-sharoit, jismoniy imkoniyat qiyinchilik tug‘diradigan vaziyatda reallikdan uzilmagan qarorlar qabul qilish qobiliyatini o‘zida yuksak darajada shakllantira olgan. Nazarimda M.G.Davletshin o‘zida vaqtdan unumli foydalanish ko‘nikmasini yuqori darajada rivojlantirganligi bois hech qachon, hech qanday ishga juda kichik bo‘lsa ham tayyorgarliksiz qo‘l urmaslik, ma’lum vazifalarni bajarishda hech qachon oxirgi muddatlarga mo‘ljal olmaslik, har bir ishni muddatidan oldin bajarilishiga erishish prinsiplariga amal qilar edilar. Aynan mana shu ko‘nikmalarni o‘zida shakllantirish, doimiy ravishda o‘zini o‘zi rivojlantirish, tinimsiz o‘z ustida ishlash natijasida M.G.Davletshin juda katta hayotiy yutuqlar, ijtimoiy maqom va kasbiy muvaffaqiyatlarga erishgan bo‘lsa, ajab emas.

Xulosa qilib aytish mumkinki, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, psixologiya fanlari doktori, professor Muhammad Gabdulgalimovich Davletshin siymosi O‘zbekiston ilm-fani taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shgan yirik olim, xususan, psixologiya fanining yorqin namoyandalaridan biri va shu bilan birga, tom ma’nodagi insoniylik va ezgulik timsoli sifatida asrlar davomida biz shogirdlar qalbida barhayot yashaydi. Kelgusida ustozimiz M.G.Davletshinning hayoti va ijodiy faoliyati chuqur tadqiq etilishi, hayotiy prinsiplaridagi gumanistik g‘oyalari, yuksak ma’naviy va insonparvarlik qadriyatlari o‘rganilib, ulardan yosh avlodga ta’lim-tarbiya berishda keng foydalanilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. Davletshin M.G. Ijtimoiy psixologiya muammolari va ularni odamlar bilan ishlashda qo‘llash, T., 1990;
2. Davletshin M.G. Qadimgi Sharq davlatlarida psixologik fikrlarning rivojlanishi, T., 1995.
3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
4. https://psy.su/persons/in_memoriam/psy/130253/?ysclid=lo2o8cr75a698642121
5. https://qomus.info/encyclopedia/cat-d/davletshin-muhammad-gabdulgalimovich-uz/
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Muhammad_Davletshin

M.G.DAVLATSHINNI SHAXS GENEZISIGA KOGNITIV YONDOSHUVLARI

Tursunov L.S.
Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti psixologiya kafedrasi dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ustoz M.G.Davlatshin tomonidan shaxs shakillanishi va takomillashuviga oid ilgari surgan fikrlarini kognitiv psixologiya nuqtaiy nazaridan qisqacha to‘xtalib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar*: shaxs, faoliyat, ongli faoliyat, o‘z – o‘zini anglash, “men”lik, komil inson, kognitiv, bizlik, bilvosita, bevosita.*

Zamonaviy shaxs muammosi insoniyat jamoaviy felogenezining ibtidoiy daviridan boshlanib, bugungi kunlargacha yetib kelgan muommo desak xato bo‘lmaydi. Jamiyatni ijtimoiy – iqtisodiy va texnik taraqiyoti ko‘z ilg‘amas tezlikdagi takomillashuviga mutanosib ravishda shaxsni kognitiv rivojlanishi qanday bo‘lishi kerakligi, barcha zamonlarda inson-shunoslik fani vakillarining oldida turgan dolzarb vazifa sifatida qarab kelingan. XXI asrning birinchi choragi yakunlanishi arafasida jamiyatning barqaror ijtimoiy – iqtisodiy takomil-lashuvi, zamonaviy shaxs rivojlanishining psixologik xususiyatlarini ilmiy asosda tahlil etish psixologlarga katta ma’suliyatni yuklashi hech kimga sir emas. Ammo buyuk adib A. Qodiriy takidlaganidek “Moziyg‘a qaytib ish ko‘rish xayrli, deydilar” deganlaridek biz ham yurtimiz-da ruhiyatshunoslik faniga ulkan hissa qo‘shgan ustozlarimizni bosib o‘tgan yo‘llariga nazar solib turishimiz ular oldidagi qarzimiz ekanligini unitmasligimiz lozim. O‘zbekistonlik psix-ologlar tomonidan shaxs nazariyasi talqiniga e’tiborimizni qaratadigan bo‘lsak. Unda sobiq ittifoq davridagi yakka partiya va yakka g‘oya mafkurasi xukumronligi ostida rus psixolo-glarning tutgan yo‘llarini tutganliklarida ko‘rishimiz mumkin. Kommunistik tizim hukmron-lik davrida barcha g‘oya va nazariyalar kommunizm quruvchisini axloq meyoriga mos kelishi lozim edi. Mazkur qattiy tartib va talabga qaramay o‘z ilmiy izlanishlarini olib borib O‘zbek psixologiyasi fanini bayrog‘ini yuqori ko‘targan va jahon psixologiya fani taraqiyotiga hissa qo‘sha olgan zabardast psixologlarimizni shaxs nazariyalari haqidagi fikrlarini ilgari surgan-liklarini tariximiz o‘z oltin sahifalarida aks ettirib turibdi. M. G. Davlatshin o‘z umrini psix-ologiya faniga bag‘ishlagan olim sifatida bir nechta darslik, o‘quv va o‘quv uslubiy qo‘lanma hamda yuzlab ilmiy maqolalarni muallifi bo‘lishi bilan bir qatorda yuzlab shogirdlarini fanda o‘z o‘rnini topishiga katta hissa qo‘shgan shaxs sifatida O‘zbek psixologiya fani tarixidan a’lohida o‘z o‘rniga ega.

Ustoz M. G. Davlatshin o‘z ilmiy asarlarida shaxs masalasiga nihoyatda katta ma’suliyat bilan yondoshganligini shaxsga bergan ta’rifidan ham ko‘rishimiz mumkin. “Shaxs - ijtimoiy munosabatlarga kiruvchi va ongli faoliyat bilan shug‘ullanuvchi betakror odam”. Mazkur tarifni asosan uch katta qisimga bo‘lib o‘rganish lozim bo‘ladi: - ijtimoiy munosaba-tlarga kiruvchi; - ongli faoliyat bilan shug‘ullanuvchi; - betakror odam. Shaxs jamiyatni mahsuli ekanligi qonuniyatidan kelib chiqadigan bo‘lsak “ijtimoiy munosabatlarga kiruvchi” degan qisqa ibora bilan shaxsni yuzaga kelishi negizi ijtimoiy muhitligi takidlanishi bilan bir qatorda shaxsning rivojlanishi va takomillashib borishi ham bevosita boshqa shaxslar bilan munosabatida aks etishi ko‘rinadi. Shuni ham takidlash lozimki, shaxs ijtimoiy munosaba-tlarga kirishuvida ba’zan jamoa nomidan ham ma’suliyatni his qilgan holda munosabatga kirishadi. Demak ta’rifdagi “ijtimoiy munosabatlarga kiruvchi” degan so‘zning tagida ni-hoyatda katta ma’no borligini unitmasligimiz lozim. “Ongli faoliyat bilan shug‘ullanuvchi” tarifdagi mazkur ibora orqali shaxsning asosiy xususiyatlaridan ongli faoliyatga urg‘u berilib, shaxsni qurshab turgan boshqa jonzotlar farqlab turadigan xususiyatiga e’tibor qaratilganligini ko‘rishimiz mumkin. Shaxsni ongli faoliyati sifatida, avvalo, o‘zligini anglashi va “men”ligini tan olishidaligini inobatga oladigan bo‘lsak M. G. Davlatshin mazkur ta’rifida kognitiv psix-

ologiyani asosiy qonuniyatlaridan biriga urg‘u berayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Shuni ham e’tirof etishimiz lozimki, kognitiv jarayonlarni takomillashuvisiz shaxsda ongli faoliyat yuzaga chiqmaydi. “Betakror odam” iborasi odamlarni bir – biridan ham fizoanotomik ham ruhiy tomondan farqlanib turishi yani ikkita bir xil odam uchramasligiga shama qilinayotganligi bilan birga shaxsning o‘ziga xos kognitiv xususiyatlari mavjudki ular faqat birgina shaxsda o‘z aksini namoyon qiladi. Tarifdagi uchta iborani tavsifi eng sodda va eng qisqa izohi yuqorida biz takidlaganimizdek bo‘lishi tabiiy hol bo‘lishiga qaramasdan kelgusida turli nuqtayi nazarlar orqali ham izohlanishi tarafdorimiz. M. G. Davlatshin shaxsni shakllantiruvchi asosiy ichki kognitiv omillar qatoriga quydagilarni kiritgan: “A) Faoliyatda o‘zgaruvchan ehtiyojlar orasida qarama – qarshiliklar va ularni qondirish; B) Faoliyatdagi faollik natijasida qondirilgan ehtiyojlar asosida yangi ehtiyojlarni yuzaga kelishi.”

Ustoz tomonidan ilgari surilayotgan faoliyatning ongliligi, nafaqat, ehtiyojlarni qondirishga balki aynan ana shu ehtiyojlar asosida yuzaga keladigan maqsadli omillar inson farzandini bilvosita o‘zini shaxs sifatida e’tirof eta olishiga ham undaydi. Mazkur holat shaxs “men”lini yuzaga kelishida kognitiv jarayonlarini birlashuviga sabab bo‘lib “men”likdan, “biz”likka o‘tishning asosiy qonuniyatlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. M. G. Davlatshin shaxs rivojlanishini harakatga keltiruvchi tashqi kognitiv kuchlar tarkibga quyidagi qo‘zg‘atuvsi kuchni kiritadi: “A) Shart – sharoit o‘zgarishi bilan shaxs ham o‘zgaradi (rivojlanish yuzaga keladi). B) O‘z – o‘zini tarbiyalash – ongli faoliyat bo‘lib, insonni shaxs sifati to‘la namoyon bo‘lishini ta’minlaydi. (o‘z – o‘zini boshqarish, o‘z – o‘zini nazorat qilish, o‘z – o‘zin tahlil qilish). Shaxs o‘z – o‘zini anglashiga alohida urg‘u berib: O‘z – o‘zini anglash individning o‘zi haqida nisbatan barqaror anglangan tasavvurlar tizimi. Uning asosida individ odamlar bilan o‘z munosabatini o‘rnatadi. O‘z – o‘zini anglashning shakillanishi jamiyatning ongli a’zosini tarbiyalashning zarur shartlaridan biridir”. O‘z – o‘zini tarbiyalash eng oliy insoniy qonuniyat bo‘lib unda shaxs o‘zini, nafaqat, kognitiv jihatdan balki oliy insoniy tuyg‘ularni anglagan holda jamiyatdagi yozilgan va yozilmagan qonuniyatlar asosida o‘z xulq - atvorini nazorat qilish bilan bir qatorda boshqalarga namuna bo‘lish kabi hissini ham takomillashtiradi. Ustoz M. G. Davlatshin tomonidan ilgari surilgan “O‘z – o‘zini anglashning shakillanishi jamiyatning ongli a’zosini tarbiyalashning zarur shartlaridan biridir” darhaqiqat kognitiv psixologiyada bolani o‘zligini anglashining shakillanishi eng murakab jarayonlardan biri hisoblanadi. Jamiyat a’zolarini ongliligiga a’lohida e’tibor berilishi asosida shaxs har tomonlama barkamol inson bo‘lib yetishishini inobatga oladigan bo‘lsak mazkur holat barcha davrlarda ham eng dolzar masalalardan biri sifatida e’tirof etib kelingan. Ammo shaxs genezisini kognitiv takomillashuvidagi asosiy qonuniyat ekanligiga M. G. Davlatshin tomonidan urg‘u berilganligi alohida diqqatga sazovordir.

Adabiyotlar.

1. M.G.Davlatshin “Umumiy psixologiya” -T. TDPU- 2002 y
2. A. Qodiriy “Tanlangan asarlar” -T. “Sharq” – 2019 y.

PROFESSOR MUHAMMAD DAVLETSHIN - O‘ZBEKISTONDA GUMANISTIK PSIXOLOGIYANING ASOSCHISI

Alimova Umida Raxmatillayevna,
Amaliy psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
Baxtiyorova Durdona Olimjon qizi
TDPU “Pedagogika va psixologiya” fakulteti, “Amaliy psixologiya” yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Anotatsiya. *Ushbu maqolada Davletshinning hayoti, ijodi va uning asarlari haqida, gumanistik psixologiyaning rivojlanish tarixi, uning usullari, tadqiqot metodlari haqida yoritib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Gumanistik psixologiya, o‘quv tadqiqot, ekzistensial, ilmiy tadqiqot, insonparvarlik psixologiyasi, ong, ijtimoiy-psixologik trening, neyrolingvistik.*

Davletshin Muhammad Gabdulgalimovich – psixolog olim. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, psixologiya fanlari Doktori, professor. U 1952-yil Nizomiy nomidagi Toshkent pedagogika institutini tugatgan. 1956-yildan shu institutda katta o‘qituvchi, keyinchalik dotsent, o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor, psixologiya kafedrasining mudiri, kafedra professori bo‘lib faoliyat yuritgan. Ilmiy ishlari umumiy pedagogika psixologiya, yoshlar psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya muammolariga bag‘ishlangan. O‘zbekistonda psixologiya fanining rivojlanishiga ulkan va beminnat hissa qo‘shgan, ilk bor gumanistik psixologiyaga asos slogan olim. Uning rahbarligida yaratilgan "Qobiliyatlar va ularning diagnostikasi" asari amaliyotchi psixologlar tayyorlashda keng qo‘llanilmoqda.

O‘zbekistonda psixologiya fanining rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shgan yirik olim, psixologiya fanlari doktori, professor. U pedagogik psixologiyaga, ayniqsa, yosh psixologiyasiga oid ishlari bilan mashhurdir. Shuningdek, M.G.Davletshin tomonidan pedagogika universitetlar va institutlarda yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanidan dars berishni yanada takomillashtirish vazifalari ham ko‘rsatib o‘tilgan. Chunki, bu fan talabalarga bola ruhiyatining taraqqiyot jarayonlarini, turli yosh bosqichlarida bola ruhiyatining muhim xususiyatlarini, ta’lim va tarbiya jarayonida bu xususiyatlar va qonuniyatlarni hisobga olish yo‘llarini tushunib olishga imkoniyat yaratadi. Turli yoshdagi o‘quvchilarning ruhiy xususiyatlarini bilish bo‘lajak o‘qituvchiga maktabda ta’lim va tarbiya jarayonini ancha samarali o‘tkazishga yordam beradi. Bundan tashqari, M.G.Davletshin tomonidan talabalarning mustaqil ta’limiga ham katta e’tibor qaratgan:

“Bo‘lajak o‘qituvchining bilish faoliyatini faollashtirish maqsadida biz alohida e’tiborni talabalarning o‘qish faoliyati bilan ularning mustaqil ilmiy tadqiqot ishlarini uzviy birlashtirib, o‘quvchi shaxsining psixologiyasini o‘rganishga qaratmog‘imiz lozimdir. Bo‘lajak o‘qituvchi nazariya bilan birga o‘quvchi shaxsining kamol topishi va shaxs sifatida shakllanishining qonuniyatlari haqidagi bilimlar bilan qurollantirib, o‘quv-tadqiqot va ilmiy tadqiqot ishlariga, ularning mustaqil ishlariga, aniq metodlarni qo‘llash orqali o‘quvchilarni ruhiy tomondan o‘rganish uchun amaliy ishlarni olib borishga o‘rgatib bormog‘imiz darkor" deb alohida ta’kidlab o‘tgan. Shundan so‘ng olimning asarlari Respublikamizning barcha oliy o‘quv yurtlarida yangi davr psixolog-pedagoglarini tayyorlashda qo‘llanib, o‘qitib kelinmoqda. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, O‘zbekistonda ilk bor gumanistik psixologiyaga asos solgan va shundan so‘ng gumanistik psixologiya ancha takomillashdi va yanada chuqurroq o‘rganila boshlandi. Gumanistik psixologiya – asosan sog‘lom, yetuk ijodiy faol shaxslarning doimiy rivojlanishiga intilishi, rivojlanish qobiliyati va faol hayotiy pozitsiyasini o‘rganadi. Shaxsni o‘ziga xos yaxlit tizim sifatida o‘zining asosiy predmeti sifatida tan oladi va faqatgina insonlargagina xos bo‘lgan fazilatlarni o‘rganadi. Oliy qadriyatlar, shaxsning

o‘zini-o‘zi anglashi, ijodkorlik, sevgi, erkinlik, mas'uliyat, ruhiy salomatlik, shaxslararo muloqot – gumanistik psixologiya tahlili predmetlari hisoblanadi. Gumanistik psixologiya mustaqil harakat sifatida 20-asrning 60-yillari boshlarida Amerika Qo‘shma Shtatlarida bixeviorizm va psixoanalizning hukmronligiga qarshi norozilik sifatida paydo bo‘ldi. Gumanistik psixologiyaning rivojlanishiga va taraqqiy etishiga quyidagi olimlar o‘z hissasini qo‘shgan: Abraham Maslou, Karl Rojers, Gordon Olport, Viktor Frankl, Sharlotta Byuler, Rollo Mey, Jeyms Bugental, Xans-Verner Gessman va hokazo. Gumanistik psixologiya inson psixikasining ijobiy tomonlarini o‘rganuvchi bo‘limidir. Gumanistik psixologiya o‘zining falsafiy asosi sifatida ekzistensializmga tayanadi.

Gumanistik psixologiyaning tamoyillari quyidagilar:

1.Shaxs alohida mavjudotdir. Shaxsda ongning mavjudligi uni atrofidagi dunyodan ajratib turadi, uni noyobligini taminlaydi;

2. Inson tabiati doimo rivojlanib boradi va shuning uchun uni aniqlab bo‘lmaydi;

3. Inson yaxlit va butun mavjudotdir. Uni bo‘laklarga ajratishning imkoni yo‘q;

4. O‘z-o‘zini anglash inson tabiatining ajralmas qismidir;

5. Shaxsning ijodiy kuchi, iroda erkinligi va o‘z-o‘zini anglashi;

6. Insonning ekzistensial holati eng muhim ma'lumot manbai hisoblanadi. Javobgarlik hissi;

7. Odamlar o‘rtasidagi munosabatlar o‘zaro hurmat va e'tirofga asoslangan bo‘lishi kerak;

8. Har bir inson o‘zini hozirgi paytda his qilishi kerak.

Gumanistik psixologiyaning eng mashhur usullaridan biri: - Badiiy terapiya - chizish, musiqa, harakat orqali o‘z-o‘zini anglash; - I.Shultz usulida avtomatlashtirilgan o‘qitish - o‘zingizga suyanish, o‘zingizning ichki meningiz bilan aloqa qilish; - Vizualizatsiya - istaklarni anglash, maqsadlarni yaratish; - meditatsiya, yoga, hasa yoga, tantrizm va boshqalarni o‘z ichiga olgan sharqona uslublar; - B.Reyx uchun o‘simliklarni davolash, surunkali kasalliklar stress tufayli kelib chiqadigan mushak tolalari natijasidir; - Neyro-lingvistik dasturlash, bunda inson ruhiga ta'sir etadigan og‘zaki formulalarga alohida e'tibor beriladi.

Adabiyotlar.

1. Greening, T. Insonparvarlik psixologiyasining beshta asosiy tamoyillari. Gumanistik psixologiya jurnali. 2006;

2. F.Xaydarov, N.Xalilova - Umumiy psixologiya. Toshkent 2009.

3. Zeigarnik B.V. Xorijiy psixologiyada shaxsiyat nazariyalari. M .: Moskva davlat universiteti nashriyoti, 1982. - 128 b.

4. Kempinski A. Ekzistentsial psixiatriya: Per. tirgaklar bilan. - M .: Barkamollik, 1998 .-- 320 b.

5. Xoll KS, Lindsi G. Shaxsiyat nazariyasi: Per. ingliz tilidan - M .: KSP +, 1997 .-- 720 b.



Professor M.G.Davletshin ijod jarayonida

1-sho‘ba. Professor Muhammad Davletshin - O‘zbekistonda gumanistik psix-ologiyaning asoschisi.



M.G.Davletshin tavalludi ayyomining 85 yilligiga bag‘ishlangan kechada

Mundarija /Содержание/Contents

5	**Barotova D.Sh.** *Mahallada psixologik xizmat ijtimoiy – psixologik muammo sifatida* *Psychological service in the neighborhood as a social-psychological problem*
9	***Душанов Р. Х.*** *Психологическое консультирование как особенность психологического сопровождения деятельности сотрудников оперативных подразделений* *Psychological counseling as a feature of psychological support for the activities of employees of operational units*
14	***Каримов Х.*** *Социально-психологические особенности конфликта между мужем и женой в узбекских семьях* *Socio-psychological features of the conflict between husband and wife in Uzbek families*
20	***Nurullayev F.G.*** *O‘zbek xalq qo‘shiqlari vositasida o‘quvchilarni ma’naviy –axloqiy shakllantirish omillari* *Factors of spiritual and moral formation of students through Uzbek folk songs*
24	***Раҳимова И. И., Юлдашева Х. Р.*** *Влияние компьютерных интернет игр на поведение подростков* *The influence of computer Internet games on the behavior of adolescents*
28	***Xadicha M. K., Saidova F. N., Karimova S. M.*** *Boshlang‘ich sing o‘quvchilari o‘rtasida ziddiyatlarni yuzaga kelish sabablari* *Reasons for conflicts between primary school students*
32	***Sultanova U. M.*** *Rivojlantiruvchi ta’lim asosida o‘quv faoliyatini tashkil qilish* *Organization of educational activities based on developmental education*
35	***Ismoilova N. Z.*** *Emotsional intellekt - stressga barqarorlikni oshiruvchi koping zaxira sifatida* *Emotional intelligence as a coping mechanism that increases resilience to stress*
39	***Nazarov A. S.*** *Boshqaruv faoliyati rahbar qaror qabul qilishi asosiy ijtimoiy-psixologik determenant sifatida* *Management activity is the main socio-psychological determinant of decision-making by the leader*
46	***Jabbor A. M.*** *Ijtimoiy tarmoqlardagi axborotlarni tushunish muammosining psixologik mazmun-mohiyati* *Psychological essence of the problem of understanding information in social networks*
49	***O‘sarov O. A.*** *Prokuratura tizimi xodimlarida kasbiy refleksiya ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida* *Professional reflection as a socio-psychological phenomenon in the employees of the prosecutor's office*
55	***Orziqulova Ch. R.*** *O‘smir emotsional hislari o‘z-o‘ziga munosabatini takomillashtirishda tutgan o‘rni*

	The role of adolescent emotional feelings in improving self-relation
60	***Abdullayev A. N.***
	Oliy ta'lim muassasalarida yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik-psixologik modeli
	Pedagogical-psychological model of educating young people in the spirit of military patriotism in higher education institutions
67	***Haydarov L. R.***
	Bo'lajak muhandis texnologlarning kasbiy va shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi
	Methodology of development of professional and personal abilities of future engineering technologists
71	***Orifova O. J.***
	Boshlang'ich sinflarda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning o'rni
	The role of using information technologies in the organization of spiritual and educational events in primary classes
75	***Inoyatova Z. H.***
	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini oshirishning mazmuni
	The content of improving the methodical training of future primary school teachers
78	***Azamov A. N., Qodirova B. L.***
	Intellektning shakllanishida atrof muhit va irsiyatning roli
	The role of environment and heredity in the formation of intelligence
84	***Narzilloyeva S. S.***
	Tibbiyot hamshiralari faoliyatida shaxslilik xususiyatlari namoyon etilishining psixologik determinantlari
	Psychological determinants of the manifestation of personality traits in the work of medical nurses
89	***USTOZGA TA'ZIM*** ***Muhammad Davletshin - O'zbekistonda gumanistik psixologiyaning asoschisi***
90	***Qirg'izboyev A.K.*** *M.G.Davletshin – psixologiya ilmi darg'asi, ibrat namunasi*
	M.G. Davletshin - Faculty of Psychology, a role model
92	***Barotov Sh.R.*** *Bag'ri keng ustoz edilar*
	He was a great teacher
93	***Abdullayeva B.S.*** *M.G.Davletshin – buyuk tarbiyachi*
	M.G.Davletshin is a great educator
95	***Nishanova Z.T.*** *Ustoz M.G.Davletshinni xotirlab*
	In memory of teacher M.G. Davletshin
97	***Kamilova N.G.*** *Muhammad Davletshin – O'zbekiston psixologiyasia gumanizm g'oyalarining davomchisi*

	Muhammad Davletshin is a follower of the ideas of humanism in the psychology of Uzbekistan
99	***To'ychiyeva S.M.*** *Ustozga munosib shogird bo'lish yo'lida*
	On the way to becoming a worthy disciple of the teacher
101	***Qodirov K.B.*** *Muhammad Gabdulgalimovich Davletshin: bir shogird xotirasidan lavhalar*
	Muhammed Gabdulgalimovich Davletshin: scenes from the memory of a student
104	***Tursunov L.S.*** *M.G.Davlatshinni shaxs genezisiga kognitiv yondoshuvlari*
	M.G.Davlatshin's cognitive approaches to personality genesis
106	***Alimova U.R., Baxtiyorova D.O.*** *Professor Muhammad Davletshin - O'zbekistonda gumanistik psixologiyaning asoschisi*
	Professor Muhammad Davletshin is the founder of humanistic psychology in Uzbekistan

“BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMIY AXBOROTNOMASI”

Ilmiy-amaliy jurnalida maqolalar chop ettirish tartiblari haqida

1. Ilmiy maqolalarning hajmi 3000-4000 so‘zdan iborat bo‘lishi kerak.

2. Maqolaning asosida matnning kamida 60-70 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim (topshirilgan maqolalar “Antiplagiat” tizimi yordamida tekshiriladi).

3. Maqolaning matni, formula va jadvallarni **Microsoft *Word* (*2003-2010 versiyasida*)** dasturidan foydalanib tayyorlash kerak.

4. Windows asosidagi matn *dasturi redaktorining parametrlari*:

- 2 sm dan standart hoshiyalar qolishi kerak;
- shrift Times New Roman, kegel – 12;
- satrlar orasidagi interval – 1 sm.;
- matnni kengligi bo‘yicha tekislash;
- abzats 1 sm;
- sahifani tanlash uchun oriyentatsiya – kitob sahifasi;
- MS Word dasturi yordamida ishlangan rasmlar qabul qilinmaydi. Barcha rasmlar va jadvallar nomerlanishi, nomlanishi hamda manbasi ko‘rsatilishi shart.

5. Grafik va diagrammalar oq-qora formatda bo‘lishi zarur.

***Ilmiy maqolaning tuzilishiga nisbatan ilgari suriladigan talablar*:**

1. Muallifning ORCID raqami bo‘lishi shart.

2. Maqolaning nomi 12 so‘zdan oshmasligi kerak va UDK raqamlari bo‘lishi lozim.

3. Maqola muallif(lar)i ismi-sharifi; ilmiy unvoni, darajasi, oliy ta’lim muassassi (*tashkilot*)ning nomi, ish joyi, egallab turgan lavozimi, ish joyi manzili (*qisqartmalar ishlatilmasin!*). Mualliflar bir nechta bo‘lsa ularning har biri haqida to‘liq ma’lumotlar berilishi shart; (barcha ma’lumotlar 3 tilda:o‘zbek, rus, ingliz tillarida bo‘lishi shart)

4. Material matni tuzilishi jihatidan

Kirish

Metodlar

Natijalar va Munozara (Introduction, Methods, Results, and Discussion, Conclusion)ga ajratilishi, har bir bo‘limi uchun sarlavhalar berilishi kerak.

Quyida keltirilgan misolga e’tibor bering:

Annotasiya (Abstract) (150-200 so‘zdan iborat bo‘lishi kerak) (3 tilda:o‘zbek, rus, ingliz tillarida bo‘lishi shart**)**

Вводная информация/актуальность (Background):

− Цель (Objective);

− Методы (Methods);

− Результаты (Findings);

− Выводы (Conclusions);

Ключевые слова (Keywords). (3 tilda: o‘zbek, rus, ingliz tillarida bo‘lishi shart)

ВВЕДЕНИЕ (Introduction)

МЕТОДЫ (Methods)

РЕЗУЛЬТАТЫ (Results) (CHIZMA, JADVALLAR bo‘lishi shart)

ОБСУЖДЕНИЕ (Discussion)

ЗАКЛЮЧЕНИЕ (Conclusion)

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ (References):

1. Familiya, I.O. (2016). *Nazvaniye knigi*. Gorod: Izdatelstvo. Elektron manzili. URL:

2. Familiya, I.O., Familiya, I.O. (2017). Nazvaniye stati. *Nazvaniye jurnala*, 15(1), 24-32 s. Elektron manzili. URL:

3. Familiya, I.O. (2017). Nazvaniye stati. Retrieved from http://lkds;j

MAHALLADA PSIXOLOGIK XIZMAT IJTIMOIY – PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA (3 tilda: o‘zbek, rus, ingliz)

Barotova Dilafruz Sharifovna,
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti “O‘quv ishlari va ilmiy innovatsiyalar bo‘yicha prorektor” psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent ***(3 tilda: o‘zbek, rus, ingliz)***
https://orcid.org/ **0000-0002-2100-3222**

Annotatsiya. 150-200 so‘zdan iborat bo‘lishi kerak. **(3 tilda: o‘zbek, rus, ingliz)**
Kalit so'zlar: 8-10 ta. **(3 tilda: o‘zbek, rus, ingliz)**

KIRISH. ВВЕДЕНИЕ (Introduction)

METODLAR. МЕТОДЫ (Methods)

NATIJALAR. MULOHAZA. РЕЗУЛЬТАТЫ (Result and Discussion) (ChIZMA, JADVALLAR bo‘lishi shart)

Xulosa va tavsiyalar. ЗАКЛЮЧЕНИЕ (Conclusion)

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati. СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ (References):

1. Familiya, I.O. (2016). *Nazvaniye knigi*. Gorod: Izdatelstvo. Elektron manzili. URL:

2. Familiya, I.O., Familiya, I.O. (2017). Nazvaniye stati. *Nazvaniye jurnala*, 15(1), 24-32 s. Elektron manzili. URL:

3. Familiya, I.O. (2017). Nazvaniye stati. Retrieved from http://lkds;j

DIQQAT: O‘ZBEK TILIDAGI BARCHA YOZUVLAR LOTIN ALIFBOSIDA

2023-12-04 11:18:56

my.gov.uz

Ўзбекистон Миллий кутубхонаси

№4383-6765-6d6f-5113-c473-0003-7681
Ҳужжат яратилинган сана: 2023-12-04
Ариза рақами: 100497662

Ҳужжат берилган: "BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
СТИР: 308196898

Даврий нашрларга ISSN халқаро стандарт рақамини бериш

МАЪЛУМОТНОМАСИ

ГОСТ 7.56-2002 "Серияли нашрларнинг халқаро стандарт рақамланиши" давлатлатаро стандартлари талаблари асосида бўлишини тўлиқ таъминлаш мақсадида, Алишер Навроий номидаги Ўзбекситон Миллий кутубхонаси O'rnatilgan tartibda raqam berildi асосан даврий нашрларини ISSN тартиб рақами билан белгилаш учун қўйдаги рақам тақдим этилади:

Журнал номи	Берилган ISSN тартиб рақами
BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMIY AXBOROTNOMASI	3030-3095

RAXMEDOVA GULBAXOR TULKUNOVNA

Мазкур ҳужжат Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 15 сентябрдаги 728-сон қарорига мувофиқ Ягона интерактив давлат хизматлари порталида шакллантирилган электрон ҳужжатнинг нусхаси бўлиб, давлат органлари томонидан ушбу ҳужжатни қабул қилишни рад этишлари қатъиян тақиқланади. Ҳужжат ҳақиқийлигини repo.gov.uz веб-сайтида ҳужжатнинг ноёб рақамини киритиб ёки мобил телефон ёрдамида QR- кодни сканер қилиш орқали текшириш мумкин.

8762

BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMIY AXBOROTNOMASI

№ 4, 2023



Buxoro-2023



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИ АДМИНИСТРАЦИЯСИ ҲУЗУРИДАГИ АХБОРОТ ВА ОММАВИЙ КОММУНИКАЦИЯЛАР АГЕНТЛИГИ

ГУВОХНОМА

№ 064916

"BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI" MASULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги гувоҳнома

ЛИЦЕНЗИЯ РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ
С-5669145

СТИР (СОЛИҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИОН РАҚАМИ)
308196898

АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ
22.02.2023дан

ЖОЙЛАШГАН МАНЗИЛИ (ПОЧТА МАНЗИЛИ)
Бухоро вилояти, Когон тумани, "B. NAQSHBAND" MFY HUDUDI

ВАКОЛАТЛИ ОРГАН
Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги

22.02.2023 12:34
ТАҚДИМ ЭТИЛГАН САНА



Гувохнома № 064916

Фаолият тури

Оммавий ахборот воситаси сифатида фаолиятни амалга ошириш

Қўшимча маълумотлар

ҚЎШИМЧА МАЪЛУМОТЛАР

Оммавий ахборот воситасининг номи	Оммавий ахборот воситасининг тили	Оммавий ахборот воситасининг тури
BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMIY AXBOROTNOMASI	O'ZBEK,RUS, ILNGLIZ	Журнал

ТАРҚАТИЛИШ ҲУДУДИ ВА ШАКЛИ

Тарқатилиш ҳудуди ва шакли	Ҳудуд	Тарқатилиш шакли
Республика миқёсида		Анъанавий

BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMIY AXBOROTNOMASI
ilmiy jurnal
4-son
Buxoro – 2023. -116 b.

Научный вестник Бухарского института психологии и иностранных языков
научный журнал
Выпуск 4.
Бухара – 2023. – 116 с.

Jurnal Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti muassisligidagi nashr hisoblanadi.

Jurnalning nashr sifati uchun bosmaxona javobgar.

OBUNA INDEKSI 3062

Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi.
Bosishga ruxsat etildi
Qog`oz bichimi 60x84, 1/8
Tezkor bosma usulda bosildi.
Shatrli bosma tabog`i - 10 Buyurtma №312. Adadi – 60
Bahosi kelishilgan narxda.
"Sharq Buxoro" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:
Buxoro shahar O'zbekiston Mustaqilligi ko'chasi, 70/2 uy.
Tel:0(365)222-46-46